**2- расм** жараён тасвири, а- Тоза этил спирти, б-Бирламчи хом ашё дон, с- Ачитқи ва сусло аралашмаси, д-Этил спиртининг авагадро моделида чизилган тасвири

**Хулоса:** Фармацевтика учун ишлатиладиган спирт крахмалли ва қандли хом-ашёлардан олинади. Бунинг учун крахмалли хом-ашёлар қайта ишланади ва қандли моддларга айлантирилади. Крахмални қандли моддаларга айлантириш учун амилолитик ферментлардан фойдаланилади. Донли хом-ашё таркибидаги қуруқ моддаларни асосий қисмини крахмал ташкил қилади, лекин ачитқилар таъсирида бижғимайди. Шунинг учун уни бижғийдиган қандли моддаларга айлантириш керак. Бу жараён амилолитик ферментлар ёрдамида амалга оширилади.

#### Фойдаланилган адабиётлар.

1. Yusupov, Farhod, et al. "Development and study of adsorption properties of a new sulfur polyvinyl chloride cation exchanger for water treatment." *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science*. Vol. 1231. No. 1. IOP Publishing, 2023.



# МЕТОДЫ АНАЛИЗА ИНЪЕКЦИОННОГО РАСТВОРА НА ОСНОВЕ МЕТИЛЕНОВОГО СИНЕГО И ЕГО СТАНДАРТИЗАЦИЯ

Муродбеков А.Р., Юнусходжаев А.Н.

г. Ташкент, Фармацевтический институт образования и исследований, студент магистратуры 2 курса, e-mail: azim.m97@mail.ru, тел: +998943815738.

## Аннотация.

Метиленовый синий - первый синтетический препарат, применённый в медицинской практике

Метиленовый синий (лат. Methyleneum coeruleum) (N,N,N',N'-тетраметилтионина хлорид тригидрат, 3,7-бисдиметиламинофенотиоцианит хлорид, метиловая синь, метиленовый голубой). Представляют собой тёмно – зеленые кристаллы с бронзовым блеском, растворяется в воде с окрашиванием раствора в темно-синий цвет.

Химическая формула –  $C_{16}H_{18}ClN_3S$  или в виде кристаллогидрата  $C_{16}H_{18}ClN_3S \cdot H_2O$ .

Молекулярная масса 319,86 г/моль.

Метиленовый синий (темно-золотистый) считается сильным антисептическим веществом и эффективно используется в медицине в качестве антибактериального средства, а также в качестве противоядия. Иногда его также используют при цистите, уретрите и других воспалительных заболеваниях мочевыводящих путей [1].

В настоящее время на рынке существуют инъекционные растворы метиленового синего. Эти растворы используются в медицинской практике при лечении метгемоглобинемии. Растворы для инъекций на основе метиленового синего производятся только зарубежными производителями [2], [3].

На основании вышеизложенной информации можно сказать, что локализация инъекционного раствора на основе метиленового синего является актуальной темой.

**Ключевые слова.** Метиленовый синий, гидроксипропил –  $\beta$  – циклодекстрин, спектрофотометрия, высокоэффективная жидкостная хроматография, потенциометрия, описание, подлинность, рН среды, механические включения, объем, стерильность, бактериальные эндотоксины, аномальная токсичность.

## Цель работы.

Изучить физико – химические и лечебные свойства метиленового синего.

Изучить общие и частные методы анализа метиленового синего и инъекционных растворов.

Разработать оптимальные методы анализа приготовленного инъекционного раствора и его стандартизации.

На основе полученных данных сделать вывод об инъекционном растворе.

## Результаты.

Полученный инъекционный раствор темно – синего цвета.

УФ спектры поглощения испытуемого раствора и раствора стандартного образца, в области 655±2нм имеют максимумы поглощения при одних и тех же длинах волн «ГФ РУз 2.2.25 СФ»[4].

Время удерживания основных пиков на хроматограмме испытуемого раствора, соответствует времени удерживания пиков метиленового синего на хроматограмме раствора стандартного образца «ГФ РУз, 2.2.29 ВЭЖХ, Евр. Ф».

Дает характерные реакции на хлориды Евр. Ф, ГФ РУз 2.3.1

рН среды 2,98 ГФ РУз, Евр.Ф (2.2.3)

Механические включения: видимые частицы отсутствуют «ГФ РУз, 2.9.20, ОФС 42 Уз – 0006 – 3341 – 2020». Невидимые частицы: ≤10 мкм – 28; ≤25 мкм – 17 «ГФ РУз, 2.9.19, ОФС 42 Уз – 0005 – 3340 – 2018 ».

Объем заполнения ампул 5,02 мл «ГФ РУз, 2.9.17».

Стерильность. Препарат стерильный «ГФ РУз, Евр.Ф (2.6.1)».

Бактериальные эндотоксины. Не превышает 2,5 ЕЭ/мл «ГФ РУз 2.6.14, ОФС 42 Уз – 0001 – 1010 – 2020».

Аномальная токсичность. Препарат нетоксичен при внутривенном введении.

«ГФ РУз 2.6.9.»[5].

#### **Выводы.**

На основании полученных данных можно сделать вывод, что приготовленный раствор для инъекций соответствует показателям: «Описание», «Подлинность», «рН среды», «Механические включения», «Объем», «Стерильность», «Бактериальные эндотоксины», «Аномальная токсичность».

#### **Список использованной литературы**

1. Курсовая работа. Метиленовый голубой. «Белгородский государственный национальный исследовательский университет».
2. Provaubluе Prescribing Information
3. Methylene blue intravenous injections 50 mg for toxic methemoglobinemia
4. Спектроскопическое исследование метиленового синего в водных растворах солей, белков и липидов Д.В.Поминова, А.В.Рябова, А.С.Скобельцин, И.В.Маркова, И.Д.Романишкин, А.М.Куличенко, Е.В.Ахлюстина, И.Д.Романишкин, А.М.Куличенко, Е.В.Ахлюстина
5. Государственная Фармакопея Республики Узбекистан, г.Ташкент, ТОМ I, II.

***DORI VOSITALAR VA PREPARATLAR TEXNOLOGIYASI BO`LIMI***

**AJINLARGA QARSHI KOSMETOLOGIK KREM TEXNOLOGIYASINI  
ISHLAB CHIQISH**

1. Toshkent sh., Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti 3- kurs 307-guruh talabasi, e-mail: [arofat03071990@gmail.com](mailto:arofat03071990@gmail.com) tel: 99897-450 14 47.

2. Toshkent Sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti Farmatsevtik texnologiya kafedrası dotsenti, farm.f.d.

**Annotatsiya:** ajinlar ichki hissiyotlarimizning yuzdagi ifodasidir. Ma'lumki, tabassum, achchiqlanish, qovoq uyish kabi mimik harakatlar ajinlarga yo'l ochadi. Yaqqol ko'zga tashlanadigani esa peshonadagi katta – kichik “ariqcha”lardir. Yosh ulg'aygani sayin yuz terisining elastiklik xususiyati yo'qolib boradi va kollagen tolasi ishlab chiqarilishi kamayadi. Shu bois terida turli notekisliklar yuzaga keladi. Bu holatda vertikal ajinlardan ko'ra gorizontal chiziqlar ko'payishi nisbatan ko'proq kuzatiladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, izlanishlarimiz ob'ekti sifatida asal ari mumi (Cerae), zaytun moyi (Oleum Olivarum), natriy tetraborat, tozalangan suv, tirnoqgul nastoykasidan (Tinctura Calendulae) foydalanildi. Biologik faolligi va uning zahirasi yetarliligini hisobga olgan holda, krem texnologiyasi ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib, uning yechimi kosmetologiya amaliyotida yuz terisini himoya qilish va uni saqlash, tabiiy kremlar ishlab chiqarishga imkon beradi [1].

**Kalit so'zlar:** Asalari mumi, krem, tirnoqgul nastoykasi, zaytun moyi

**Maqsad.** Mahalliy xom ashyolardan kosmetologik amaliyotida terida paydo bo'ladigan ajinlarni oldini olish va davolash hususiyatiga ega bo'lgan krem tarkibini tanlash va texnologiyasini ishlab chiqish.

**Natija:** Krem olish jarayonida asalari mumi, zaytun moyi, natriy tetraborat, tozalangan suv, tirnoqgul nastoykasidan foydalanildi. Asal ari mumi (63-65°S) suv hammomida eritildi. Eritilgan asalari mumi va zaytun moyi tarkibiga natriy tetraborat bir nercha tomchi issiq suvda eritilib tarkibiga kiritildi, bir jinsliy massa hosil qilindi so'ng kremga tirnoqgul tindirmasi qo'shib yaxshilab aralashtirildi. Olingan surtmaning tashqi ko'rinishi visual kuzatish asnosida baholandi. Olingan surtma oq rangdan och sariq rangacham ko'rinishda bo'ldi. Tayyorlangan surtmaning fizik – kimyoviy xossalari, jumladan dispersligi, ph muhiti, kolloid turg'unligi, qavatlarga ajralib qolmasligi, qovushqoqligi O'zbekiston Davlat farmokopeyasi bo'yicha aniqlandi. Surtmalarga qo'yilgandan asosiy talablardan yana biri ularni tayyorlash saqlash va qo'llash davomida bir jinsligini dori va yordamchi moddalarni begona qo'shimchalarsiz bir xil aralashganligi va fizik jihatdan turg'unligi taminlashdir.

**Xulosa:** Yangi kosmetologik vosita yaratishda dastlabki xomashyo va yordamchi moddaning fizik kimyoviy va texnologik xossalarni o'rganish muxim ahamiyatga ega. Taklif etilayotgan krem tarkibiga kiruvchi boshlang'ich va yordamchi moddaning o'rganilgan xossaloriga tayangan holda krem tarkibi tanlandi va texnologiyasi ishlab chiqildi.

**Adabiyotlar:**

1. Z. A. Nazarova., G.M. Tureeva., I.SH Sharipova., N.S. Fayzullaeva Parafarmatsevtik preparatlar texnologiyasi// O'quv qo'llanma 2021y.

## ANTIGELMENT TA'SIRGA EGA DORI SHAKLI TEXNOLOGIYASI BO'YICHA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR

SH. J. Yaxshimurotova<sup>1</sup>, D. Z. Ergasheva<sup>2</sup>

1. Toshkent sh., Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti 3-kurs 309-guruh talabasi, e-mail: [yaxshimurotovashaydo76@gmail.com](mailto:yaxshimurotovashaydo76@gmail.com), tel: +998908127880

2. Toshkent sh., Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti, Analitik va farmatsevtik kimyo kafedrası assistenti

Ushbu tezisda bolalar va kattalarda uchraydigan gelmintlar, gijjalarga qarshi qo'llaniladigan dori shakli texnologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirildi.

**Kalit so'zlar:** matsratsiya-sirkulyatsiya, perkolyatsiya, quruq qoldiq, degelmentizatsiya

**Dolzarbli:** O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2012-yilda gigiyena va degelmentizatsiyalash strategiyasi qabul qilingan bo'lib, respublikamizda aholini gelmentizatsiyalash Davlat dasturi amalga oshirilmoqda, ushbu chora-tadbirlar samarasida aholining gelmintozi kasalligini ko'rsatkichlari 40% ga kamayishi kuzatildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-noyabrda «Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4887-son qarorida belgilangan bo'lib, ovqat ta'minoti sohasida ham degelmentizatsiyalash chora tadbirlari amaliyotga izchil tatbiq etib kelinmoqda. Bugungi kunda farmatsevtika sohasida tabiiy dori vositalarini ishlab chiqarishga alohida e'tibor berilmoqda, chunki bunday dori vositalarining inson organizmiga nojo'ya ta'sirining yo'qligi ilmiy va amaliy jihatlardan isbotlangan [4]. O'simlik xom ashyolarining biologik faolligi va zaxirasi yetarliligini hisobga olib Dastarbosh guli ( Flores Tanaseti), Achchiq ermon o'ti (Herbae Artemisiae absinti) suyuq ekstrakti texnologiyasi ishlab chiqildi [1,2,3].

**Ishning maqsadi.** Gijjalarga qarshi yig'madan suyuq ekstrakt texnologiyasini ishlab chiqish ilmiy ishning asosiy maqsadi etib belgilandi.

**Tadqiqot usullari.** Suyuq ekstrakt olishda o'simliklar tarkibidagi biologik faol moddalarni ajratib olish muhim sanaladi. Gijjalarga qarshi ta'sirga ega bo'lgan tarkib asosida suyuq ekstrakt ishlab chiqish texnologiyasida "Perkolatsiya" va "Maseratsiya-sirkulyatsiya" usullari qo'llanildi. Ekstragent sifatida turli quvvatdagi 40%, 70%, 90% li etil spirtidan foydalanib, suyuq ekstrakt texnologiyasi ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalari.** Ma'lumki o'simlik tarkibidagi biologik faol moddalarni ajratib olishda ekstrakt olish jarayoniga bir qancha omillar ta'sirini ko'rsatadi. Bular xom ashyoning maydalik darajasi, ekstragent turi va konsentratsiyasi, ajratma olish usullari va boshqalar. Xom ashyo tarkibidagi biologik faol qo'shimchalarni yetarli miqdorda ajratib olish uchun ajratib olish uchun ajratuvchi sifatida turli quvvatdagi 40%, 70%, 90% li etil spirti olindi. O'simlik xom ashyolari 3mm; 5mm; 7mm maydalik

darajasigacha maydalab olindi. O'simlik gullaridan meyoriy xujjatga asoslanib maydalanmasdan suyuq ekstrakt olindi [3]. 3 xil ko'rinishga ega bo'lgan bir xil tarkibli suyuq ekstrakt hosil bo'ldi. 40 % li etil spirti asosida olingan suyuq ekstrakt-to'q yashil, balchiqsimon rangli o'ziga xos hid va ta'mga ega bo'lgan tiniq suyuqlik. 70% li etil spirti asosida olingan suyuq ekstrakt-to'q jigarrang rangli, o'ziga xos hid va ta'mga ega bo'lgan tiniq suyuqlik. 90% li etil spirti asosida olingan suyuq ekstrakt-och jigarrang rangli, o'ziga xos hid va achchiqror ta'mga ega bo'lgan tiniq suyuqlikni xosil qildi. Turli usullarda olingan suyuq ekstraktimiz tashqi ko'rinishi, quruq qoldiq 2,1%, og'ir metall miqdori 0,01% ni tashkil etdi.

**Xulosa.** Gelmintlarga qarshi yig'madan gijjalarga qarshi ta'sirga ega bo'lgan suyuq ekstrakt texnologiyasini ishlab chiqildi, hamda son ko'rsatgichlaridan og'ir metall tuzlari, spirt quvvati aniqlandi.

#### **Adabiyotlar**

1. Эликсирь/ Под ред. В.Г.Макарова.-СПб.:МЦ «Адаптоген», 1999.-218с.
2. Государственная фармакопея Российской Федерации, XIV изд., Москва (2018); [Электронный ресурс], URL.: <http://femb.ru/feml>.
3. Технология лекарств промышленного производства / В.И.Чуешов, Е.В. Гладух, И.В. Сайко и др.– Винница. Новая книга, 2014.
4. И.Ш.Шарипова, Н.Х.Ташпулатова, А.Файзуллаев, А.Д.Таджиева «Махдллий усимлик хом ашёларидан тиндирма олишнинг оптимал усулини танлаш.» //Фармация ва фармакология.- Тошкент,- 2023,- №4- Б59-63

## **BROKKOLI KARAMI (BRASSICA OLERACEA VAR. ITALICA) ASOSIDA QURUQ EKSTRAKT TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**Muzaffarjanova D.M.,<sup>1</sup> Turayeva S.S.<sup>2</sup>**

1. Toshkent sh. Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti, farmatsiya fakulteti 3-kurs 305-guruh talabasi  
e-mail: muzaffarjanovadilzoda@gmail.com tel: +99881505747
2. Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti Farmatsevtik texnologiya kafedrasida assistenti.  
e-mail: loyaltysadoqat@gmail.com tel: +998930561293

**Annotatsiya.** Saraton inson salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan xavfli kasalliklardan biridir. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda bir millionga yaqin inson saraton kasalligi bilan kasallanadi. Ko'krak bezi saratoni eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Keyingi eng tarqalgan oshqozon, o'pka va bachadon bo'yni saratonidir. Saraton kasalligini davolash qiyin bo'lsa ham, ularning oldini olish mumkin.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, karamdoshlar oilasi vakillarini iste'mol qilish ko'krak, tuxumdonlar, prostata bezi, o'pka, oshqozon, yog'on ichak, oshqozon osti bezi, buyrak va siydik pufagi saratonini rivojlanish xavfini kamaytirishi mumkin [1].

Karamdoshlar oilasiga mansub brokkoli tarkibida indol 3-karbinol, sulforafan saqlaydi. Indol 3-karbinol ayollar jinsiy tizimining estrogeniga bog'liq bo'lgan turli xil kasalliklarida qo'llaniladi: bachadon miomasi, endometrioz, endometriyal giperplaziya, mastopatiya, hamda 16a-gidroksiestron ishlab chiqarishni kamaytiradi. Sulforafan saratonni keltirib chiqaradigan kanserogenlarni himoya qiluvchi antioksidant va detoksifikatsiya qiluvchi fermentlarni ishlab chiqarish orqali saraton hujayralarining o'sishini oldini oladi. Sulforafan turli xil kasalliklarda saraton, yurak kasalliklari, qandli diabet va ovqaz hazm qilish uchun foydali ta'sir ko'rsatadi [2].

**Kalit so'zlar:** perkolyatsiya, reperkolyatsiya, brokkoli karami, quruq ekstrakt, texnologiya.

**Ilmiy ishning maqsadi.** Ushbu ilmiy ishning maqsadi- brokkoli karami (*Brassica oleracea* var. *Italica*) asosida quruq ekstrakt olishning optimal texnologiyasin ishlab chiqish.

**Natija.** Brokkoli karami 0,5 mm maydalikda maydalandi. So'ngra 30 gr tortib olingan mahsulot perkolyatorga joylashtirildi, so'ngra 40%, 60% li etil spirti oynasimon yuza hosil bo'lguncha quyildi. Jarayon ikki xil usulda perkolyatsiya va reperkolyatsiya usullarida olib borildi. So'ngra ajratma qurutildi. Qurigan kukunsimon modda idishdan qirib olinib, miqdoriy tahlil uchun olib qo'yildi [3].

**Xulosa.** Tadqiqot natijasida to'q yashil rangli, o'ziga xos hidga va ta'mga ega bo'lgan quruq ekstrakt olindi. Ekstrakt olish uchun ajratuvchi sifatida 60 % li etil spirtidan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Le TN, Chiu CH, Hsieh PC. Bioactive Compounds and Bioactivities of *Brassica oleracea* L. var. *Italica* Sprouts and Microgreens: An Updated Overview from a Nutraceutical Perspective. *Plants* (Basel). 2020 Jul 27;9(8):946. doi: 10.3390/plants9080946. PMID: 32727144; PMCID: PMC7465980.
2. Zhang Z, Tao M, Shan X, Pan Y, Sun C, Song L, Pei X, Jing Z, Dai Z. Characterization of the complete chloroplast genome of *Brassica oleracea* var. *italica* and phylogenetic relationships in Brassicaceae. *PLoS One*. 2022 Feb 24;17(2):e0263310. doi: 10.1371/journal.pone.0263310. PMID: 35202392; PMCID: PMC8870505.
3. M.M. Mirolimov, X.Q. Abdullayeva, Z.Ya. Mamatmusayeva, N.A. Azimova. Farmatsevtik texnologiya asoslari fanidan amaliy qo'llanma. Toshkent.:Abu Ali ibn Sino, 2004.

## **GOJI (LYSIUM BARBARIUM) QURUQ EKSTRAKTIDAN GRANULA OLIH TEXNOLOGIYASI**

**Xoshimjonova S.Sh.<sup>1</sup>, Foziljonova M.Sh.<sup>2</sup>**

1. Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti 1 kurs talabasi, [xoshimjonovasevinch2@gmail.com](mailto:xoshimjonovasevinch2@gmail.com)

2. Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti dotsenti, farm.f.d.

**Annotatsiya:** hozirda shiddat bilan rivojlanayotga davlatlar qatorida O'zbekiston ham hamma sohada olg'a intilmoqda. Yangidan yangi inovatsiyon yangiliklar yangidan yangi o'zgarishlar bo'lmoqda shular qatori ilm fan sohasida ham yangi g'oyalar va yangiliklar yaratilmoqda. Bundan tashqari interaduksiya ham shular qatori rivojlanib yangidan yangi o'simlik navlari va turlari bizning mintaqamizga moslashtirilmoqda. Bizning mintaqamizda 4500 dan ortiq o'simlik turlari tarqalgan bo'lib 1150 turi xalq tabobatida foydalaniladi. Shiddat bilan rivojlangan AQSH, Yevropa mamlakatlari, Xitoy, va Rossiya kabi davlatlarda ozuq-ovqat, farmavsetika va parfmeriya sanoati uchun xom ashyo yetkazib bera olmayapti. Tabiiy holda tarqalgan o'simliklar qoplaminig juda ko'p qismi qisqarib ketdi. Shu sababli bizning mintaqamizda tarqalgan dorivor o'simliklarni (qizilmiya, kovar, kovrak, na'matak, sitanxe va boshqalar) bizda tabiiy holda tarqalgan dorivor o'simliklarni katta mablag' evaziga sotib ola boshladi. Shundayki bizning mintaqamizda keng tarqalgan dorivor o'simliklar plantatsiyasi yaratilmoqda.

Lycium turkumining 90 dan ortiq turi yer yuzida keng tarqalgan bo'lib, ularning ko'pchiligi galofitlardir. Tabiiy sharoitda bu turkum turlari Kavkazda, O'rta Osiyoda shuningdek Rossiyaning yevropa qismidagi quyi Volga mintaqasida ham uchratish mumkin. Bizning mintaqamizda Lycium turkumining tabiiy holda 3 ta turi tarqalgan bo'lib xalq tilida jing'il deb nomlanadi. Bular oq jing'il (L. turkomanicum Turez.) qora jing'il (L. ruthenicum Murr.), yovvoyi jing'il (L. dasystemum Pojark.) cho'l, chalacho'l hududlarida tabiiy holda tarqalgan. Lycium turkumiga kiruvchi vatani Xitoyning Tibet o'lkalarida tabiiy holda tarqalgan bo'lib mahalliy xalq tomonidan "Goji" deb nomlanadi. Xitoy xalq tabobatida bu juda ko'p miqdorda foydalaniladi va dunyoga mashhur o'simlik hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi:** mahalliyashtirilgan Goji (Lysium Barbarium) mevalaridan olingan quruq ekstrakt asosida immunitetni oshiruvchi granula tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqish.

**Kalit so'zlar:** Goji (Lysium Barbarium), immunitet, quruq ekstrakt, granula, texnologiya

**Materiallar va usullar:** dorivor o'simlik hom ashyolaridan olingan quruq ekstraktlar asosida dori shakllari ishlab chiqarishda asosiy e'tibor granula dori shakliga qaratiladi. Bu dori shakli bir qancha afzalliklarga ega. Oldimizga qo'ygan vazifalardan biri, mo'tadil yordamchi moddalar va ratsional texnologiyalarni tanlab XI DF talabiga javob beradigan parametrlar asosida Goji quruq ekstraktidan granula shaklidagi preparat olish. Substansiyaning texnologik xossalarini o'rganish, granulaning tarkibi uchun yordamchi moddalar turi va miqdorini ilmiy asosda tanlash, granulyatsiyalash jarayonini mo'tadilligini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Granulaning tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqish uchun substansiya zarrachalarining shakli va o'lchami, zichligi, fraksion tarkibi, sochiluvchanlik, sochiluvchanlik zichligi, qoldiq namligi kabi ko'rsatkichlar adabiyotlarda keltirilgan usullar va adabiyotlar yordamida o'rganildi. Granula tayyorlash asosan nam donadorlash usulida olib borildi. Quruq ekstrakt olinib uch xil quvvatdagi spirt bilan namlandi. Yordamchi modda sifatida qand upasidan foydalanildi. Granula olish talabiga 1:0.5 nisbatda qand upasi 40 % etil spirt bilan

namlantirilgan tarkib javob berdi. Tajribalardan kelib chiqib, Goji granulasi uchun yakuniy tarkib tanlandi. Unga ko'ra substansiya, qand upasi, 1:0.5:0.5 nisbatda bog'lovchi modda 40% li etil spirit tanlab olindi. Donadorlash usulini tanlashda, kukunlarni xossasi va xolatini, maydaligi yo'qotishlarni va tarkibiy qismlarning nisbati hisobga olindi. Donadorlash jarayoni quyidagicha olib borildi: 1000 mkm diametrli elakdan o'tkazilgan quruq ekstraktga kerakli miqdordagi to'ldiruvchi va namlash uchun bog'lovchi modda qo'shib aralashtirildi va nam optimal massa hosil bo'lguncha donadorlandi. Nam massa 1500 mkm diametrli elakdan o'tkazilib, pergament qog'oz ustiga yupqa qilib bir tekisda yoyildi. So'ngra 60-70°C gacha qurutish shikafida qoldiq namlik 3-5% qolguncha qurutildi. Olingan massaning fraksion tarkibi, sochiluvchan zichligi, sochiluvchanligi, tabiiy og'ish burchagi, namligi va parchalanish kabi texnologik xossalari aniqlandi.

**Natijalar:** granula tayyorlashning texnologik jarayonlari substansiyaning tabiatiga, fizik-kimyoviy xossalarini inobatga olib tayyorlandi. Tayyor mahsulot mikrobiologik tozalikni o'rganish uchun laboratoriyaga topshirildi.

**Xulosalar:** Goji granulasing sifati ko'rsatkichlari va granulalanadigan massaning texnologik xossalari addabiyotlarda keltirilgan usullarda o'rganildi. Bog'lovchi va g'ovaklovchi moddalar miqdori olib borilgan tajribalar natijasi orqali belgilandi. O'rganilgan texnologik ko'rsatkichlar asosida Goji granulasing mo'tadil tarkibi va texnologiyasi taklif etildi. Taklif etilgan Goji granulasing sifati ko'rsatkichlari tegishli me'yoriy hujjatlar va XI-DF bo'yicha o'rganildi. Farmatsevtik texnologiyalar asoslariga tayangan holda Granula tayyorlash texnologiyasi amalga oshirildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Губанов, И. А и др. 1133. *Lucium barbarum* L. – Дерева обыкновенная
2. Ўсимликлар интродукцияси фанидан илмий тадқиқот ишларини ўтказишга оид методик кўрсатмалар. - Гулистон, 2015. – 32 б. Бутник А.А., Тодерич К.Н., Матюнина Т.Е., Жапакова У.Н., Юсупова Д.М.
3. Nusratova N.N., Xaydarov V.R. Goji substansiyasining texnologik xossalarini o'rganish. 21 asr intellektual avlod asri. Ilmiy amaliy anjuman. Toshkent. 2015. 193-197 b.
4. Pazilbekova Z.T., Maxmudjonova K.S., G'ulomov A.K. Anjabor quruq ekstrakti asosida tabletka texnologiyasini ishlab chiqish. Farmatsevtika jurnali 2012 №2. 53-55 b.
5. Ziyayev Sh.Z., Yunusova X.M., Kamilov X.M., Zufarova Z.X. Izucheniye vlagosorbtsionnix svoystv suxogo ekstrakta «Tribulepil» Farmatsevticheskiy jurnal. 2011 №3. 47-50 s.
6. Djalilov X.K., Xaydarov V.R., Qodirov M.M. Dori vositalarini ishlab chiqarish. Cho'lon nashriyoti. Toshkent 2014. 201-212b.
7. Aliyev X.U., Allayeva M.J., Sagimbayeva G.O. Lagoxilus quruq ekstraktining qon ketishiga va uning miqdoriga ta'siri//Kimyo va farmatsiya.
8. [www.china-and-china.com](http://www.china-and-china.com)
9. [www.chinaboyi.com](http://www.chinaboyi.com)
10. [www.chinafuchang.com](http://www.chinafuchang.com)



## **HUSUNBUZARLARGA QARSHI FITOLOSYON TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

Sa'diyeva Sh.H Sharipova. I.Sh

1. Toshkent sh., Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti 3- kurs 307-guruh talabasi,  
e-mail: [sadiyevashaxnoza@gmail.com](mailto:sadiyevashaxnoza@gmail.com) tel:+99890-808 44 58

2. Toshkent Sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti Farmatsevtik texnologiya kafedrasida dotsenti, farm.f.d.

**Annotatsiya:** yog' bezlari faoliyatining buzilishi natijasida teriga turli xil toshmalar toshishi uchraydi. Ko'pincha yigit-qizlar balog'atga yetish davrida yuz, ko'krak va ensa terisida paydo bo'ladi. Bu davrda yog' bezlari zo'r berib ishlaydi. Yuz, ko'krak va yelkalarda yog'li seboreya alomatlari kuzatilib, teri yaltirab turadi, undagi mayda teshiklar kengayib, ko'zga tashlanadigan bo'lib qoladi, ba'zi yerlarda teri apelsin po'stiga o'xshab ko'rinadi. Shu teshiklarga va soch xaltachalariga yog' yig'ilib qolishi natijasida qora nuqtalar paydo bo'ladi, ular sitilsa, yig'ilib qolgan yog' chuvalchangga o'xshab buralib chiqadi. Agar shu yog'ga yiring paydo qiluvchi mikroblar tushsa, yallig'lanish jarayoni rivojlanadi. Teri qizarib, shishadi va ugrilar paydo bo'lib, kattalashadi, og'riydi, keyinchalik u yorilib, ichidan yiring chiqadi. Bora-bora o'rnida qoramtir dog' qoldirib, yo'qolib ketadi. Yuqoridagi holatlarni oldini olish uchun muammoli yuzlar uchun losyon texnologiyasini ishlab chiqishni ko'zladik va buning natijasida kosmetologiya faoliyati uchun o'z samarasini namoyon etadi.

**Kalit so'zlar:** glitserin, etil spirti, oltingugurt, levomitsitin, natriy tetraborat, losyon

**Maqsad:** muammoli yuzlar uchun kosmetik losyon texnologiyasini ishlab chiqish

**Natija:** Fitolosyon tayyorlashda glitserin, etil spirti 96%, oltingugurt (cera), levomitsitin, tozalangan suv, tirnoqgul nastoykasi va natriy tetraboratdan foydalanildi. Oltingugurt glitserin bilan xovonchada yahshilab dispergirlandi. Natriy tetraborat, levomitsitini xovonchada maydalanilib oz miqdorda tozalangan suv solinib idish hajmigacha etil spirti va tirnoqgul nastoykasi solib yahshilab chayqatildi. Olingan losyon sariq rangda hosil bo'ldi. O'zbekiston Davlat farmakopiyasi bo'yicha ph qiymati, dispersligi, turg'unligi aniqlanib tekshirildi.

**Xulosa:** Kosmetologiya amaliyotida qo'llaniladigan aknega qarshi losyon texnologiyasi ishlab chiqildi

**Adabiyotlar:**

1. Z. A. Nazarova., G.M. Tureeva., I.SH Sharipova., N.S. Fayzullaeva Parafarmatsevtik preparatlar texnologiyasi// O'quv qollanma 2021y

## **IMMUNOBALZAM TARKIBI VA TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

*Azizova S.<sup>1</sup>, Nuritdinova M.<sup>2</sup>, Foziljonova M.Sh.<sup>3</sup>*

1. Toshkent sh., Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti 1- kurs 102-guruh talabasi,  
e-mail: [azizovasevara06@gmail.com](mailto:azizovasevara06@gmail.com), tel:+998996419954

2. Toshkent sh., Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti 1- kurs 102-guruh talabasi
3. Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti Farmatsevtik texnologiya kafedrasida dotsenti, farm.f.d.

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida dorivor giyohlarga boy davlat hisoblanadi. Bu giyohlar zahirasini asrab avaylagan holda foydalanish, ulardan biofaol moddalarni ajratib olib o'rganish va amaliyotga tatbiq qilish mutaxassislar oldida turgan jiddiy masalalardan hisoblanadi. Shulardan kelib chiqqan holda mahalliy dorivor o'simlik xomashyolar aralashmasidan tabletka, kapsula dori turlarini yaratish, tayyor mahsulotning miqdoriy tahlil usulini ishlab chiqish, ularni biofarmatsevtik nuqtai nazaridan baholash farmatsevtik texnologiyaning ustuvor yo'nalishlaridandir.

**Maqsad:** mahalliy o'simliklar asosida Immunitetni oshiruvchi balzam tarkibi va texnologiyasini ni ishlab chiqish.

**Kalit so'zlar:** balzam, immunitet, o'simlik xomashyosi, texnologiya.

Tabiiy, dorivor, nojo'ya ta'siri bo'lmagan o'simliklar aralashmasidan immun tizimiga ijobiy ta'sirga ega bo'lgan balzam tarkibi ilmiy asosda birinchi marta tanlandi. Taklif etilgan balzam tarkibi mahalliy farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan bo'lib, yuqori samarador, nojo'ya ta'sirlardan xoli bo'lgan arzon dori vositasi bilan aholini ta'minlashga xizmat qiladi. Misol uchun biz tadqiq qilayotgan o'simliklar odam organizmi immun tizimini umumiy jihatdan yaxshilash uchun tanlab olingan. Buning uchun quyidagi o'simliklardan foydalanilgan:

- Vitamin va mikroelementlar uchun steviya va na'matak o'simliklari;
- Me'da-ichak faoliyatini yaxshilash uchun qizilmiya va topinambur o'simliklari;
- Dorivor efir moylari uchun ermon shuvog'i va bo'ymadaron o'simliklari;

Moddalarning terapevtik xususiyatlarini yaxshilash uchun quyidagi o'simliklarning qismlaridan tarkib tayyorlandi: steviya bargi, qizilmiya ildizi, bo'ymadaron yer ustki qismi, namatak mevasi, ermon, topinambur hamda 40% etil spirtidan foydalanildi.

Balzam texnologiyasi perkolyatsiya, aylanma sirkulyatsion matseratsiya usullarida olib borildi.

**Natija:** hosil bo'lgan balzam tiniq, qizil-qo'ng'ir rangli (quyosh nuri ta'sirida rangi to'qlashadi), o'ziga xos yoqimli hidli va shirin-taxir ta'mli suyuqlik. Tashqi ko'rinishi bo'yicha DF XI, 2 nashr, 154 b. talabiga javob berdi.

**Adabiyotlar:**

1. Государственная фармакопея XI выпуск 2.
2. Хожиматов К.Х., Хожиматов О.К., Собиров У.А. Сборник правил пользование объектами лекарственных, пищевых и технических растений. - Ташкент: Янги аср авлоди, 2009. С. 4-170.

## **IMMUNO-LUKUM TEXNOLOGIYASI**

**Jamoliddinova M.A<sup>1</sup>, Foziljonova M.Sh<sup>2</sup>**

1. Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti F-fakulteti 312-guruh, 3-bosqich talabasi, [muxtasarjamoliddinova6@gmail.com](mailto:muxtasarjamoliddinova6@gmail.com) +998950072154
2. Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti Farmatsevtik texnologiya fanlar kafedrasida farmatsevtika fanlari doktori, dotsent. e-mail: [malikapharmi@mail.ru](mailto:malikapharmi@mail.ru)

**Annotatsiya:** Dolchin o`simligining dorivor xususiyati beqiyos ekani sabab ham azaldan xalq tabobatida samarali foydalanib kelinmoqda. Mazkur mahsulotni chorak choy qoshiq is`temol qilishning o`zi organizmdagi metabolizmni yaxshilanishi, qondagi qand miqdorini oshib ketmasligini ta`minlaydi. Bundan tashqari, ovqat hazm bo`lishi, energiya ko`payishi va diqqatni oshirishda ahamiyatli bo`lgan dolchin terini yumshatishda, shamollash va grippda, soch to`kilishida, husnbuzarni ketgazishda, immunitet ko`tarish, artrit, xolesterin miqdorini kamaytirishda ham keng foydalaniladi.

**Kalit so`zlar:** dolchin o`simligi, immunitet, metobolizm, qand miqdori, xolesterin miqdori, yurak kasalliklari, artrit, antiseptik vosita, dorivor, energiya

**Maqsad:** umrni uzaytiruvchi, sog`lom bo`lishiga va go`zallikni saqlab qolishga yordam beradigan dorivor o`simlikni faqat ziravor sifatida emas qandolat mahsulotlari sifatida ham foydalanish uchun jele tarkibini ishlab chiqish.

**Natija:** dolchinning ozuqaviy profili: bir osh qoshiq maydalangan dolchinda 1,4g tolalar yetarli miqdorda kalsiy mavjud. Bundan tashqari A, B, K vitaminlari saqlaydi. Dolchin qo`shib tayyorlangan yeguliklar mazali va hushboy hidli hisoblanadi. Dolchin jigar va o`t pufagini tozalab, organizmda ortiqcha suyuqlikni chiqarib tashlaydi, diqqatni yig`ishda yordam berib xotira va ko`rish qobiliyatini yaxshilaydi, bosh og`rig`ini qoldirib, qondagi shakar miqdorini normallashtiradi.

**Xulosa:** olingan natijaga keladigan bo`lsak, dolchin o`simligidan tayyorlagan shirinligimiz hammaga baravar maqul bo`ldi. Shirinlik nojo`yi ta`siri topilmadi. U 7 yoshdan to 70 yoshgacha bo`lgan barcha insonlar is`temol qilsa bo`ladi. Shuni bemalol ayta olamizki, qandli diabete bor odamlar ham bemalol qabul qilsa bo`ladi, qandlilik darajasini oshirmasdan uni normallashtirib turadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. <https://zira.uz/uz/2018/12/06/dolchin-to-g-risida-qiziqarli-ma-lumotlar/>
2. <https://daryo.uz/2016/12/23/dolchin-va-asal-kasalliklar-dushmani>
3. <https://darakchi.uz/oz/19791>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Dolchin>

## **ILON ZAHARI ASOSIDA SURTMA NAMUNALARI OLISH VA ULARNI TAHLIL QILISH**

**Ramazonova Sh.Sh.<sup>1</sup>, Kamilov X.M.<sup>2</sup>, Foziljonova M.Sh<sup>3</sup>.**

1. Toshkent sh, Vaksina va zardoblar ilmiy-tadqiqot instituti 1-kurs tayanch doktoranti, e-mail: [rshahzoda@inbox.ru](mailto:rshahzoda@inbox.ru), tel: +998901331506
2. Toshkent sh, Vaksina va zardoblar ilmiy-tadqiqot instituti f.f.d., professor
3. Toshkent sh, Farmatsevtika ta`lim va tadqiqot instituti dotsenti, farm.f.d.

**Annotatsiya:** Bugungi kunda ilon zahari asosida tayyorlanadigan dori vositalariga nisbatan ehtiyoj ortib bormoqda. Bunga sabab ilon zaharining kimyoviy tarkibi, samarali davolash xususiyatlari chuqurroq o`rganilishi, xorijiy davlatlarda ko`plab kasalliklarni davolashda qo`llanilishi, chet elda uning asosida ko`plab biologik faol qo`shimchalar va kosmetologik vositalar yaratilayotganligidir. Tadqiqotlar davomida

ilon zahari asosida model surtmalar tarkibi va texnologiyasi ishlab chiqildi hamda tahlil usullari olib borilmoqda.

**Kalit so'zlar:** qora ko'lvor iloni zahari, model surtmalar, yordamchi moddalar, surtma texnologiyasi, tahlil usullari.

**Maqsad:** Ilon zahari tarkibli surtmalar assortimentini kengaytirish va mahalliy ishlab chiqarishga tatbiq etish.

**Natija:** Respublikamizda va xorijda mavjud ilon zahari tarkibli surtmalar hamda ilmiy adabiyotlardan olingan ma'lumotlarga asoslanib O'rta Osiyoda keng tarqalgan va hozirda Toshkent vaksina va zardoblar ilmiy-tadqiqot instituti serpentariyasida boqilayotgan qora ko'lvor iloni quruq zahari (*Vipera lebetinae venom siccum*) asosida 2 xil model surtmalar tarkibi va texnologiyasi ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval

### Ilon zahari asosida model surtmalar tarkibi

	Aloe ekstraktli vazelin	Moychechak ekstraktli vazelin	Ilanolin	Asalari mumi	Kamfora moyi	Evkalipt moyi	Ilon zahari
Model №1	5	7,8	4	7	0,5	0,5	15 SB
Model №2	5	7,8	4	7	-	1	15 SB

Surtmalar quyidagi texnologiya asosida olindi: dastlab surtma asosi tayyorlab olindi. Buning uchun suv hammomida 80-85<sup>0</sup>C haroratda asalari mumi eritildi. Suyuq holdagi aloe va moychechak ekstraktli vazelin qo'shib bir xil massa hosil bo'lguncha aralashirildi. Ustiga lanolin qo'shib emulgirlandi. Aralashma sovigach tozalangan suvda eritilgan quruq ilon zahari qo'shildi va aralashirish davom ettirildi. So'ng efir moylari solib surtma holigacha gomogenizatsiya qilindi.

Tadqiqotlar natijasida sarg'ish rangli, kuchsiz kamfora hidli Model №5 surtma va sarg'ish, o'tkir evkalipt hidli model №6 surtmalar olindi. Tayyorlangan 2 xil model surtmalar va dastlab tayyorlangan 4 xil model surtmalar ustida tahlillar olib borildi va natijalar 2-jadvalda aks ettirildi [2].

2-jadval

### Surtmalar tahlili

	Model №1	Model №2	Model №3	Model №4	Model №5	Model №6
Tashqi ko'rinish	Oqish-qaymoqran g, kuchsiz kamfora hidli	Oqish-sarg'ish rangli kuchsiz kamfora hidli	Oqish-qaymoqran g, kuchsiz kamfora hidli	Oqish-sarg'ish rangli kuchsiz kamfora hidli	sarg'ish rangli, kuchsiz kamfora hidli	sarg'ish, o'tkir evkalipt hidli

Kolloid barqarorligi	barqaror	barqaror	barqaror	barqaror	Qavatlar ga ajralish kuzatildi	Qavatlar ga ajralish kuzatildi
Konsistensiyasi	Bir tekis emas	Bir tekis	Bir tekis	Bir tekis	Bir tekis	Bir tekis

Surtmalar tashqi ko'rinishi vizual tarzda aniqlandi. Bunda surtmalardan namuna olinib, buyum oynachasiga yupqa qatlam qilib surtildi va qurollanmagan oddiy ko'z bilan vizual tekshirildi.

Surtmalarining kolloid barqarorligini aniqlash uchun 3,0 g dan surtma namunalari olindi 5 daqiqa 2000 ayl/min tezlikda sentrifugalandi. Bunda qavatlar ga ajralish hodisasi kuzatilmadi.

Surtmalar konsistensiyasi bir xilligi quyidagicha aniqlandi: buyum oynachasiga 0,02 dan surtma namunalari qo'yib, usti shisha oynacha bilan qoplandi va diametri 2 sm li dog'lar hosil bo'lguncha mahkam bosildi. Ko'zdan 30 sm masofada tutib ko'rilganda ko'rinadigan zarrachalar bo'lmasligi kerak.

**Xulosa:** Ilon zahari asosida 6 xil model surtmalar tayyorlandi va tegishli me'yoriy hujjatlarga asosan tahlil usullari olib borilmoqda.

#### **Adabiyotlar:**

3. Государственная фармакопея XI выпуск 2.
4. Ramazonova Sh.Sh. "Ilon zahari asosida surtma tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqish" // Abu Ali Ibn Sino va zamonaviy farmatsevtikada innovatsiyalar VII xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to'plami // Toshkent: 2024.70-71 b.
5. Ashurov A.A., Ramazonova Sh.Sh., Saidrasulova M.A. "Ilon zaharining tibbiyot amaliyotidagi ahamiyati va ilon zahari asosida tayyorlanadigan dori vositalarining kontent tahlili" // Farmatsiya, immunitet va vaksina jurnali. – Toshkent. 2023. - №2. 101-110 b.
6. Назарова З.А. "Современное состояние и перспективы развития мягких лекарственных средств для местного применения" // Фармацевтика журналы - Тошкент: 2007. № 4. 78-81 б.

## **KALTSIY TANQISLIGIGA QARSHI GRANULA TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQUISH**

**Ziyadullayeva M.,<sup>1</sup> Turayeva S.S.<sup>2</sup>**

3. Toshkent sh. Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti, farmatsiya fakulteti 3-kurs 309-guruh talabasi  
e-mail: [marjonziyo3871@gmail.com](mailto:marjonziyo3871@gmail.com) tel: +998888713871
4. Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti Farmatsevtik texnologiya kafedrasida assistenti.  
e-mail: [loyaltsadoqat@gmail.com](mailto:loyaltsadoqat@gmail.com) tel: +998930561293

**Annotatsiya.** Inson salomatligi uchun organizmda vitamin va mineral moddalar yetarli miqdorda bo'lishi zarur. Aks holda tanada salbiy o'zgarishlar kuzatilib, jiddiy asoratlarni kelib chiqishi mumkin. Kaltsiy ana shunday element. U nerv tomirlarida

impuls o'tkazuvchanligini, mushaklar qisqarishini boshqarishda ishtirok etadi va qon ivish tizimining asosiy komponenti hisoblanadi.

So'nggi vaqtlarda dunyoda koronavirusning og'ir shakli bilan kasallanib sog'aygan aksariyat bemorlarda tayanch-harakat tizimi xastaliklari ko'p uchrayapti. Bunga esa aynan kaltsiy yetishmasligi sabab sifatida ko'rsatilmoqda [1].

Aslida ushbu moddaning kamligi bilan tanada boshqa metabolik jarayonlar ham izdan chiqadi. Suyaklar, tishlar, soch va tirnoqlar holatiga salbiy ta'sir etadi. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari rivojlanadi, immunitet zaiflashadi [2].

Tuxum po'chog'i asosan kaltsiydan, shuningdek, fosfor, temir, kaliy, magniy va kremniy moddalaridan iborat bo'ladi.

Tuxum po'chog'i tarkibidagi kaltsiy organizm tomonidan tez o'zlashtiriladi. Kanada, AQSh va vengriyalik olimlarning tadqiqotlari tuxum po'chog'i tarkibiga ko'ra inson suyaklari va tishlariga juda o'xshash ekanligini isbotlagan. Tuxum po'chog'idan tayyorlangan kukun kaltsiy yetishmovchiligi simptomi aniqlangan homilador ayollar, bolalar va erkaklarga hamda suyak singanida tavsiya etiladi [3].

**Kalit so'zlar.** Granula, tuxum po'chog'i, kaltsiy yetishmovchiligi, suyaklar, tishlar, simptom, temir, texnologiya, Islamgulov apparati.

**Ilmiy ishning maqsadi.** Ushbu ilmiy ishning maqsadi kaltsiy tanqisligiga qarshi tuxum po'stlog'i asosida granula texnologiyasini ishlab chiqish.

**Natija.** Tuxum po'stlog'i yuvilib, 100<sup>0</sup> C da 2 soat davomida qurutildi. So'ng olingan po'stloq mayda kukun holiga keltirildi. Ustiga o'lchab olingan saxaroza va limon kislotasi solinib, massalar yaxshilab bir jinsli kukun holiga keltirildi. Massa chinni kosachaga o'tkazilib, kerakli miqdordagi suv bilan yaxshilab namlandi. Nam massa 300 mkm li elakdan pergament qog'ozga o'tkazilib yoyiladi.

3% namlik qolguncha 30-40<sup>0</sup> C da quritiladi. Qurutilgan massa 200 mkm li elakdan o'tqazilib, sifati baholanadi [4].

**Xulosa.** Tadqiqot natijasida oq rangli, o'ziga xos ta'mga ega bo'lgan vishillovchi granula hosil bo'ldi. Granula olishda tuxum po'chog'idan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mccaffery A, Simpson S, m. A gregarizing factor present in the egg pod foam of the desert locust *Schistocerca gregaria*. *J Exp Biol.* 1998;201(3):347-63. doi: 10.1242/jeb.201.3.347. PMID: 9427669.
2. Saini, R. K., Rai, M. M., Hassanali, A., Wawiye, J. and Odongo, H. (1995). Semiochemicals from froth of egg pods attract ovipositing female *Schistocerca gregaria*. *J. Insect Physiol.* 41, 711–716
3. <https://kun.uz/news/2015/10/02/xabardoruz-tuhum-pochogi---kalciy-manbai?q=%2Fuz%2Fnews%2F2015%2F10%2F02%2Fxabardoruz-tuhum-pochogi---kalciy-manbai>
4. M.M. Mirolimov, X.Q. Abdullayeva, Z.Ya. Mamatmusayeva, N.A. Azimova. *Farmatsevtik texnologiya asoslari fanidan amaliy qo'llanma.* Toshkent.: Abu Ali ibn Sino, 2004.

## MAHALLIY XOM ASHYOLARDAN GELMENTLARGA QARSHI BFQ TARKIBINI ISHLAB CHIQISH

Qodirov A.B.,<sup>1</sup> Nurmuhamedova N.A.<sup>2</sup>

1. Toshkent sh, Farmasevtika ta'lim va tadqiqot instituti 3-kurs 306 -guruh talabasi,  
e-mail: [asadbekq792@mail.ru](mailto:asadbekq792@mail.ru), tel:+998933556100

2. Toshkent sh, Farmasevtika ta'lim va tadqiqot instituti, Farmatsevtik texnologiya  
kafedrası o'qituvchisi Nurmuhamedova N.  
e-mail: [Nurmuhamedovana@gmail.com](mailto:Nurmuhamedovana@gmail.com) tel: +998946535969

**Annotatsiya:** farmatsevtika sohasida kattalar va bolalar uchun vitaminlar va oshqozon ichak kasalligini davolashga tavsiya etilayotgan yangi biologok faol qo'shimcha mo'tadil tarkibi va texnologiyasi ishlab chiqildi. Jele tarkibidagi ta'sir etuvchi va yordamchi moddalar o'rtasidagi mutanosiblik, sifat ko'rsatkichlari o'rganildi.

**Kalit so'zlar;** antioksidant, sedana, immunitet, zaytun, vitamin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda yangi, yuqori terapevtik samaradorlikka ega bo'lgan, bezarar, tabletka o'rmini bosuvchi biologok faol qo'shimcha texnologiyasini ishlab chiqish va ularning sifatini Jahon standartlari talablari darajasiga ko'tarish alohida dolzarblikni kasb etadi. Tabiiy dori ishlab chiqarishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri – O'zbekiston miqyosida mahalliy dorivor o'simliklar zahiralari saqlab, biologik faol moddalardan unumli foydalangan holda samarali biologok faol qo'shimcha yaratishdan iborat. Bizning izlanishlarimiz ob'ekti bo'lgan mahalliy o'simlik xom ashyolari – qovoq urug'i va sedana mavjud. Qovoq urug'i tarkibida A, C, E, K, T, PP, shuningdek, hazm qilishni yaxshilaydigan va immunitetni mustahkamlaydigan B1, B2, B5 va B6 vitaminlari mavjud. Sedana jigar, ichak, o't qopi va me'da kasalliklarida yordam beradi [1].

O'simlik xom ashyosi ekstraksiyasi murakkab diffuzion jarayondir, uning samarasiga qator omillar ta'sir qiladi: xom ashyo maydalik darajasi, ajratuvchi konsentratsiyasi, olish usuli va ekstraksiya boshqa jarayonlari. Texnologik omillar ichida muhim va qator hollarda yetakchi rolni uning tayyorlash usuli katta ahamiyatga ega [3].

**Maqsad:** farmatsevtika sohasida mahalliy dorivor o'simliklar xom ashyolari asosida biologok faol qo'shimcha ishlab chiqish.

**Natijalar:** bu biologok faol qo'shimcha olish uchun avvaliga o'simlik xom ashyolari: qovoq urug'i, qora sedana, zaytun yog'i, asal, olcha va sabzi sharbati olindi. Qovoq urug'i va sedana quritib olindi va maydalandi. Barcha mahsulotlar bir jinsli bo'lguncha aralastirilib, jelatina asosiga kiritildi va qadoqlandi [2].

**Xulosa:** Tayyorlangan biologok faol qo'shimcha kasallikni tabiiy yo'llar bilan davolash va oldini olish maqsadida tayyorladik

**Adabiyotlar:**

1. Usmonova, Z., Boyturaev, S., Soadatov, A., G'oyipov, A., & Dehkanov, Z. (2018). G'oyipov, A. (2022). TERMOPLASTIK POLIEFIRLAR ISHRIKIDA

MODIFIKATSIYALASHNING AFZALLIKLARI. Абдухакимов, Т. Т. У., Шеркузиев, Д. Ш., & Арипов, Х. Ш

2. Shermatov, A., & Maulyanov, S . ЎСИМЛИК ТАРКИБИДАН КОЛХИЦИН ВА КОЛХАМИН АЛКАЛОИДЛАРИНИ АЖРАТИБ ОЛИШ КИНЕТИКАСИ.

[sedana-chyornyj-tmin.html](http://sedana-chyornyj-tmin.html), [avitsenna.uz/qora-sedana](http://avitsenna.uz/qora-sedana), [wikipedia.org/wiki/Qora\\_sedana\\_yo'gi](http://wikipedia.org/wiki/Qora_sedana_yo'gi)

3. <https://biotus.uz/uz/semena-tykvy-natural-green-150-g.html>,

4. <https://muxlis.uz/uz/pages/zaytun-mevasi-va-yogining-foydalari>

## ***MOYCHECHAK (CHAMOMILLA MATRICARIA L.) QURUQ EKSTRAKTINING TERI KASALLIKLARIDAGI AHAMIYATI***

***Muhidinova S.M<sup>1</sup>, Foziljonova M.SH<sup>2</sup>***

1. Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti 1-bosqich magistratura talabasi, e-mail: [fttisojidadxon@mail.ru](mailto:fttisojidadxon@mail.ru), tel:+998971100204.

2. Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti Farmatsevtik texnologiya kafedrasida dotsenti.

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda dermatozlar bilan kasallanish darajasi, kasbiy allergodermatozlarning rivojlanishi uchun ekzogen va endogen xavf omillari keltirilgan. Kasbiy dermatozlarning bemorlarning kundalik va kasbiy faoliyatiga salbiy ta'siri tasvirlangan, ularning hayot sifatini pasaytiradi va mehnat unumdorligi. Atopik va allergik dermatitning patogenezi va klinik va laboratoriya ko'rsatkichlari ko'rib chiqiladi [1]. Dermatitlarni davolashda mahalliy dorivor o'simliklardan foydalanish keng samara bermoqda.

**Kalit so'zlar.** Dermatit, moychechak, efir moyi, damlama, atopik dermatit.

**Maqsad.** Ushbu tadqiqotning maqsadi teri kasalliklarida keng qo'llaniladigan mahalliy dorivor o'simliklarning PubMed, GoogleScholar va Springerda keltirilgan maqolalarni taqqoslash hamda adabiyotlar tahlilini o'rganish. Bunda ilmiy ishning obyekt sifatida, moychechak o'simligi belgilab olindi hamda uning tarkibi va dorivor xossalari to'g'risida ma'lumotlar to'plandi.

**Natija.** Moychechak turlari astradoshlar (Murakkabguldoshlar) Asteraceae (*Compositae*) oilasiga kiradi. Geografik tarqalishi Kavkaz, Yevropa janubi, Krim, Ukrainada, begona o't sifatida ekinzorlarda o'sadi.

Tibbiyotda moychechak turlarining guli ishlatiladi. Moychechak turlarining guli tarkibida 0,12-0,8% efir moyi, flavon, glikozidlar (apiin, kvertsimeritrin va boshqalar, matrikarin, proxamazulen, kumarinlar (umbelliferon, gerniarin), karotin, vitamin C, shilliq, achchiq va boshqa moddalar bor. Efir moyi 1,64—8,99 % xamazulen, 20 % gacha seskviterpen spirtlar, kadinen va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan.

Gulining damlamasi me'da-ichak (ichak yopishib qolganda va ich ketganida) va ginekologik kasalliklarni davolashda hamda teri kasalliklarida va yel xaydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Moychechak guli yana ichni yumshatuvchi, antiseptik va yallig'lanishga qarshi (og'iz, tomoq chayishda hamda shifobaxsh vanna) dori sifatida



ishlatiladi. Moychechak guli me'da kasalliklarida, tomoq chayishda ishlatiladigan va ich yumshatuvchi yig'malar -choylar tarkibiga kiradi [2].

Misr Respublikasi Aleksandriya Paros universiteti olimlari Noxa Salamuni va uning hamkasblari tomonidan moychechak yog'idan olingan nanoemulsiya ko'rinishidagi gel sichqonlarda atopik dermatitni davolashda tekshirilgan va ijobiy natijalar keltirilgan [3].

Farmatsiya bo'limi, Farmasevtika kolleji, Shensi Xitoy tibbiyot unversiteti, Syanyan, Xitoy va boshqa farmaseftik tashkilotlar bilan birgalikda moychechak o'simligi ekzema kasalligini davolashda yangi farmokologok usullardan foydalangan holda o'rganilgan [4].

### **Adabiyotlar**

1. Измерова Н. И. и др. Профессиональные заболевания кожи как социально-экономическая проблема //Медицина труда и промышленная экология. – 2013. – №. 7. – С. 28-33.
2. X. X. Xolmatov, A. I. Qosimov, Toshkent Ibn Sino nashiryoti 1994, 130-131 betlar.
3. El-Salamouni, N. S., Ali, M. M., Abd El-Hady, S. A., Kandil, L. S., El Batouti, G. A., & Farid, R. M. (2019). Evaluation of chamomile oil and nanoemulgels as a promising treatment option for atopic dermatitis induced in rats. Expert Opinion on Drug Delivery. doi:10.1080/17425247.2020.1699054
4. Grimme H, Augustin M. Phytotherapie bei chronischen Dermatosen und Wunden: Was ist gesichert. [Phytotherapy in chronic dermatoses and wounds: what is the evidence]. Forsch Komplementarmed. 1999 Apr;6 Suppl 2:5-8. German. doi: 10.1159/000057139. PMID: 10352374.

## **O'G'IZ BO'SHLIG'I YALLIG'LANISHIGA QARSHI SPREY TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**Nishonova S.,<sup>1</sup> Turayeva S.S.<sup>2</sup>**

5. Toshkent sh. Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti, farmatsiya fakulteti 3-kurs 309-guruh talabasi  
e-mail:nishonova2020@gmail.com tel:+998938920704
6. Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti Farmatsevtik texnologiya kafedrasida assistenti.  
e-mail: loyaltysadoqat@gmail.com tel: +998930561293

**Annotatsiya.** Gingivit - milk shilliq qavatining yallig'lanishi. Me'da-ichak, nafas a'zolari, yurak-tomir, [nerv sistemasi](#), periodontit, paradontoz, qon kasalliklari, [infekcion kasalliklar](#), avitaminozlar, og'ir metallar (simob, qo'rg'oshin va b.)ning tuzlaridan zaharlanish, tish toshi gingivitga sabab bo'ladi. Ba'zan antibiotiklar yoki boshqa dorilar qabul qilinganda ham gingivit yuzaga keladi. Hayz sikli buzilganda, homiladorlik va balog'atga yetish davrida ko'p uchraydi. Chirigan tish qirrasini, noto'g'ri qo'yilgan tish yoki yasama tish, shuningdek, dag'al tish cho'tkasining milkni chaqalashi, kimyoviy moddalar va issiqdan kuyish ham gingivitga sabab bo'lishi mumkin.

Gingivitda milk qizarib shishadi, bezillab turadi va salga qonaydi (kataral gingivit), milk cheti kulrang karash bilan qoplanadi, ostidan yara chiqadi, og'izdan

sassiqlik hid keladi. Soʻlak oqadi, temperatura koʻtariladi, jagʻ ostidagi limfa bezlari kattalashadi (yarali gingivit); milk oʻsib, butun tishni qoplaydi, ogʻriqli sezilmaydi (gipertrofik gingivit) yoki aksincha tish ildizi ochilib qoladi (atrofik gingivit).

**Kalit soʻzlar:** Gingivit, peganum harmala, grek yongʻogʻi, yalligʻlanish, spreylar, texnologiya.

Isiriqlikning xalqlar tabobatida asosan yer ustki qismidan foydalaniladi. Shonalash davrida olinadigan oʻti va urugʻlari davolash uchun ancha samarali hisoblanadi. Urugʻlari harmalin, gul va poyasida peganin mavjud. Isiriqlik tarkibida asosan garmin, peganin, vazitsin, garman, dezoksipeganin va boshqa alkaloidlar turli yogʻ va oshlovchi moddalar mavjud.

Abu Ali ibn Sino ham isiriqlikning shifobaxsh xususiyatlarini aniqlab bemorlarni davolashda foydalanган. Abu Rayxon Beruniy ham oʻzining “Kitob as -saydana fit tibb” asarida ushbu oʻsimlikning shifobaxsh xususiyatlarini aytib oʻtganlar [1]. Yongʻoqlik barglarining inson uchun shifobaxsh xususiyatlari magʻziga qaraganda kam emas. Uning barglarida boshqa shifobaxsh tabiiy vositalarda uchramaydigan askorbin kislotasi, flavonoidlar, karotin va glikozidlar bor. Bargining qaynatmasi tomoqlik shomollaganda, milklarni mustahkamlashda va peshob haydashda hamda peshob yoʻllari kasalliklarini davolashda foydalanish mumkinligini koʻrsatadi [2].

**Ilmiy ishning maqsadi.** Ushbu ilmiy ishning maqsadi grek yongʻogʻi (*Juglans regia.*), va isiriqlik (Peganum harmala) asosida gingivitga qarshi spreylar texnologiyasini ishlab chiqish.

**Natija.** Grek yongʻogʻi bargi (5 mm) va isiriqlik yer ustki qismi (3 mm) kattalikda maydalandi va ushbu ajratma turli xil konsentratsiyadagi 40-50 % li etil spirtlarida perkolyatsiya va reperkolyatsiya usullarida (1:1) nisbatdagi tozalangan suv aralashmasi yordamida ajratib olindi [3].

**Xulosa.** Tadqiqot natijasida toʻqlik yashil rangli, oʻziga xos hidga va taʼmga ega boʻlgan suyuqlik ajratma olindi.

Ogʻiz boʻshligʻi yalligʻlanishiga qarshi spreylar texnologiyasini ishlab chiqishda tabiiy manbalardan foydalanish maqsadga muvofiq deb belgilandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

- 1.Asqarov I. Tabobat qomusi. Toshkent. Mumtoz soʻz. 2019, 325-341 betlar.
2. Bhat AA, Shakeel A, Rafiq S, Farooq I, Malik AQ, Alghuthami ME, Alharthi S, Qanash H, Alharthy SA. *Juglans regia* Linn.: A Natural Repository of Vital Phytochemical and Pharmacological Compounds. Life (Basel). 2023 Jan 30;13(2):380. doi: 10.3390/life13020380. PMID: 36836737; PMCID: PMC9962597.
- 3.M.M. Mirolimov, X.Q. Abdullayeva, Z.Ya. Mamatmusayeva, N.A. Azimova. Farmatsevtik texnologiya asoslari fanidan amaliy qoʻllanma. Toshkent.:Abu Ali ibn Sino, 2004

## **OG'IZ BO'SHLIG'I KASALLIKLARIGA QARSHI SUYUQLI EKSTRAKT TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**Otabekova L.A.,<sup>1</sup> Sharipova I.Sh.<sup>2</sup>**

1.Toshkent sh, Farmasevtika taʼlim va tadqiqot instituti 1-bosqich magistratura talabasi, e-mail: [lazizaotabekova@mail.ru](mailto:lazizaotabekova@mail.ru), <tel:+998931050990>.

2. Toshkent sh, Farmasevtika talim va tadqiqot instituti, farmatsevtik texnologiya kafedrası dotsenti, f.f.d. tel:+998946227696.

**Annotatsiya.** Bugungi kunda Respublika aholisining dori darmonga bo‘lgan ehtiyojini to‘laroq qondirish, yuqori biosamaradorlikka ega bo‘lgan mahalliy o‘simliklar xom ashyosi asosida arzon, kam harajatli va yuqori samarali dori vositalarini yaratish, farmatsevtika sohasining dolzarb vazifalaridan bo‘lib hisoblanadi. Izlanishlarimiz ob'ekti sifatida eman po‘stlog‘i (Cortex Quersus), tirnoqgul guli (Calendula officinalis L), dalachoy yer ustki qismi (Herda hyperici) ning biologik faolligi va uning zahirasi yetarliligini hisobga olgan holda, suyuq ekstrakt texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib, uning yechimi tibbiyot amaliyotida og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklariga qarshi mahalliy dori vositalarining turini oshirishga imkon beradi [1,2].

**Kalit so‘zlari:** suyuq ekstrakt, texnologiya, eman po‘stlog‘i, tirnoqgul guli, dalachoy, etil spirti

**Maqsad:** og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklariga qarshi suyuq ekstrakt texnologiyasini ishlab chiqish, ishning maqsadi etib belgilandi.

**Natija:** tajriba uchun eman po‘stlog‘i, tirnoqgul guli, dalachoy yer ustki qismi xom ashyolaridan foydalanildi. Xom ashyolar tarkibidagi biologik faol moddalarning eruvchanligi xususiyatlarini hisobga olgan holda ekstragent konsentratsiyasi ta'sirini o'rganish maqsadida ekstragent sifatida turli quvvatdagi 40%, 50% va 70% li etil spirtidan foydalanildi. Ajratmalar tashqi ko'rinishi tiniq bo'lishini ta'minlash maqsadida xom ashyolar 1-3 mm; 2-3 mm; 3-5mm maydalik darajasigacha maydalandi. Saralangan xom ashyolardan 40%, 50%, 70% li etil spirti yordamida perkolyatsiya va reperkolyatsiya usullarida ajratmalar olindi. Ularni tashqi ko'rinishi va ogir metallar miqdori bo'yicha aniqlandi.

**Xulosa:** ilk marotaba og'iz bo'shlig'i kasalliklariga qarshi suyuq ekstrakt texnologiyasi ishlab chiqildi va tashqi ko'rinishi, og'ir metallar miqdori bo'yicha aniqlandi.

#### **Adabiyotlar.**

1. Sh. Sharipova, M.A. Rahimova Gelmintlarga qarshi suyuq ekstrakt texnologiyasini ishlab chiqish va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash// Farmatsiya va farmakologiya jurnali-Toshkent. 2023. - № 4. (6)- B. 59-64
2. X.M.Yunusova, Z.X.Abdujalilova. Yo'talga qarshi «Bronxotus forte" eliksirining tarkibi va texnologiyasi borasidagi tadqiqotlar// Farmatsiya va farmakologiya jurnali.- Toshkent. 2023. - № 3 (5) – B. 115-121

## **QABZIYAT VA PARAZITLARGA QARSHI ELIKSIR**

**Ismatullayeva R.M.,<sup>1</sup> Turayeva X.K.<sup>2</sup>**

1. Toshkent sh, Farmasevtika ta'lim va tadqiqot instituti Sanoat farmatsiya yo'nalishi 2-kurs 201-guruh talabasi, e-mail [robiya0818@gmail.com](mailto:robiya0818@gmail.com), tel; +998999008556
2. Toshkent sh, Farmasevtika ta'lim va tadqiqot institute, Organik va biologik kimyo kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

**Annotatsiya:** Insonlarda qabziyat tufayli kelib chiqadigan turli xil kasalliklarni oldini olishga, metabolizmini yaxshilashga asoslangan eliksir ishlab chiqildi. Qonda gemoglobinni miqdorini oshirishi, immunitetni yaxshilashi kuzatildi.

**Kalit so'zlar:** lavlagi pektini, ukrop suvi, kumarin, kukurbitatsin, eliksir.

**Kirish:** Ich qotishi, qabziyat — oshqozon-ichak tizimi a'zolarining asosiy belgi: defakatsiya (hojat chiqarish) tartibining buzilishi yoki ichakning to'liq bo'shatilmasligi bilan bog'liq holat. Ich qotishi mustaqil kasallik emas, balki organizm faoliyatining buzilishi, kasalliklar va turli xil tizimlar funksiyasining ishdan chiqqanligi alomatidir.

Hozirgi kunda qabziyat bilan bog'liq muammolar shundan iboratki, O'zbekistonning barcha hududlarida qabziyat va parazitlar bilan bog'liq kasalliklar mavjudligi, kasallik yosh, jins tanlamasligi, kattayu-kichik qabziyatdan birdek azob chekishi. Qabziyat va parazitlar uchun ishlab chiqarilgan preparatlar kutilgan natija bermasligi, narxlar qimmatligi, surunkali iste'mol qilinganda o'ziga o'rgatib qo'yish xavfi borligidir.

**Maqsad.** Insonlarda qabziyatdan kelib chiqadigan turli xil noqulayliklarni bartaraf etish. Ularning organizmlarini sog'lom turmush tarziga mos tarzda rag'batlantirish asosida 100% tabiiy mahsulot eliksir ishlab chiqish.

**Natija:** biologik faol ingredientlar: Ushbu eliksirning o'zagida qabziyatni yumshatishni qo'llab-quvvatlaydigan o'ziga xos xususiyatlarga ega bioaktiv ingredientlar mavjud. Ular sog'lomlashtirish uchun zarur bo'lgan hujayra faoliyatini oziqlantirish, himoya qilish va rag'batlantirish qobiliyati uchun ehtiyotkorlik bilan tanlangan tabiiy ekstraktlar, peptidlar, antioksidantlar va vitaminlarni o'z ichiga oladi.


Mahsulot tarkibida tabiiy ingredientlar organizmda hech qanday nojo'ya ta'sirlarni keltirib chiqarmaydi. Elikisirning tarkibiga kiritilgan bir nechta o'simlik ekstraktlari ichak mikroflorasini yangilashi va shifo berishi o'rganilgan. Qabziyatni bartaraf qilish vositalarida regenerativ va shifobaxsh xususiyatlari uchun tez-tez ishlatiladigan o'simlik ekstraktlari qo'shilgan: Lavlagi pektini, ukrop suvi, qovoq yog'i.

Lavlagida uchraydigan pektin – ichak mikroflorasini yaxshilaydi, surgu ta'siri mavjud. Organizmni og'ir metallar, radionukleidlardan tozalaydi.

Ukrop suvi tarkibidagi kumarin - qon tozalovchi, yel haydovchi, og'riq qoldiruvchi, tinchlantiruvchi hususiyatga ega.

Qovoq yog'idagi kukurbitatsin - gijjalarga ta'sir qiladi, shuningdek ozdirish xususiyatiga ega va antioksidantdir.

Elikisir xususiyatlari: Qabziyatni davolaydi va oldini oladi. Qorin dam bo'lishi va turli og'riqlarni qoldiradi. Qonni tozalaydi va suyultirish xususiyatiga ega.



## 1-Rasm. Qabziyat va parazitlar qarshi eliksir

Bolalar va kattalarda ko'p uchraydigan qabziyat va turli xil parazitli kasalliklarga qarshi samarali biologik faol qo'shimcha ishlab chiqildi.

Insonlar hayotiga yangillik kiritish maqsadida, qabziyatni davolovchi samarali vositalarni ishlab chiqarish biologiya, kimyo va tibbiyot sohalarining birlashtirgan puxta tashkil etilgan jarayondir.

**Hulosa:** Ushbu vosita 100% tabiiy toza mahsulot bo'lib, qo'llanilganda kutilgan natijani bera oldi. Kelgusida uni ishlab chiqarishga tatbiq qilish rejaga kiritildi. Mahsulot hali O'zbekiston farmatsevtika bozorida sotuvda mavjud emasligi alohida ta'kidlab o'tildi. Yana kutilayotgan natijalardan biri farmatsevtik dori preparatlari ishlab chiqaruvchi kompaniya bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish rejasida turibmiz.

### **Adabiyotlar:**

1. "Qabziyat". O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000-yil.
2. Приворотский В. Ф., Луппова Н. Е. Современные подходы к лечению функциональных запоров у детей //РЖГГК.-2009. – 2009. – Т. 19. – №. 1. – С. 59-65.
3. Махов В. М., Береснева Л. А. Системные факторы при хроническом запоре //Лечащий врач. – 2005. – Т. 2. – С. 40-4.
4. Парфенов А. И. Запор: от симптома к болезни //Consilium Medicum. – 2003. – Т. 5. – №. 12. – С. 695-699.
5. <https://www.trt.net.tr/uzbek/xalq-tabobati/2022/05/17/12345678910-1828318>

## **QANDLI DIABET KASALLIGINING II TIPINI DAVOLASH UCHUN QO'LLANILADIGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR SHARHI**

**Soliyeva Sh.A.<sup>1</sup> Foziljonova M.Sh.**<sup>2</sup>

1. Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti 1-kurs magistratura talabasi, e-mail: [shaxnozasoliyevaftti27@gmail.com](mailto:shaxnozasoliyevaftti27@gmail.com), tel: +998974558668.

2. Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti, Farmatsevtik texnologiya kafedrasida dotsenti, f.f.d.

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda qandli diabet kasalligi butun dunyo miqyosidagi global muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Dunyo miqyosida 20-79 yoshdagi taxminan 537 million kattalar qandli diabet bilan aziyat chekadi va bu ko'rsatkich 2045 yilga kelib 55 mln ya'ni 129% ni tashkil etadi [1]. Qandli diabetning II tipini nafaqat sintetik dori vositalari yordamida, balki kundalik turmushda keng foydalaniladigan foydali va dorivor xususiyatli o'simliklar bilan davolash ham alohida ahamiyatga ega. Diabetni davolash amaliyoti uchun biologik faol birikmalar sifatida inulinni o'z ichiga olgan dorivor o'simliklarni o'rganish hozirgi kunda katta qiziqish uyg'otadi.

**Kalit so'zlar:** qandli diabet, galega, oddiy sachratqi, metformin.

**Maqsad.** Ushbu tadqiqotning maqsadi qandli diabetning II tipida keng qo'llaniladigan mahalliy dorivor o'simliklarning PubMed, GoogleScholar va

Springerda keltirilgan maqolalarni taqqoslash hamda adabiyotlar tahlilini o'rganish. Bunda ilmiy ishning obyekti sifatida galega, oddiy sachratqi o'simliklari belgilab olindi hamda ularning tarkibi va dorivor xossalari to'g'risida ma'lumotlar to'plandi.

**Natija:** *Galega officinalis L* (Козлятник) gipoglikemik ta'sirga ega istiqbolli dorivor o'simlik. *Galega officinalis L* ning qandli diabetning patologik jarayoning turli qismlariga ijobiy ta'siri o'simlikdan ajratilgan biologik faol moddalar majmuasining tarkibi bilan izohlanadi. Guanidin alkaloid galegin karbamid biosintezining oraliq mahsuloti bo'lib, qandli diabet bilan og'rikan bemorlarni davolashda ishlatiladigan sintetik gipoglikemik dorilar guruhi (masalan, metformin), biguanidlarga o'xshash ta'sir ko'rsatishi mumkin. Galegin va metforminning farmakologik faolligining o'xshashligi ushbu moddalarning kimyoviy tarkibining o'xshashligi bilan bog'liq. Adabiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, *galega officinalis L* va metformin preparatini o'z ichiga olgan guanidin gipoglikemik faollikka ega, insulinni peptidazalar tomonidan yo'q qilishdan himoya qiladi, glyukozaning hujayralarga o'tkazilishini va uning metabolizmini yaxshilaydi, yog'lardan oqsil sintezini rag'batlantiradi va glyukoneogenezni bostiradi [2].

**Oddiy sachratqi (*Cichrium inthybus L*)** ko'p yillik o't o'simlikdir. Bo'yi 90-110 (125) sm gacha yetadi. Poyasi tik tukchalar bilan qoplangan, shoxlangan. Uning ildiz osti barglari teskari tuxumsimon cho'ziq, cheti qirqilgan, to'p barglari bandle. Poyada barglari lansetsimon yirik tishsimon qirrali (yuqori qismdagilari tekis qirrali) bo'lib poyada bandsiz. Ketma-ket o'rnashgan asosan poyani o'rab turadi. Poyaning yuqori qismidagi barglar yaxlit qirqilmagan. Savatchalari poya va yon novda uchlarida to'p bo'lib yoki bittadan joylashgan qisqa gul bandlidir. Gullari ko'k havo ranglidir. Sachratqi o'sish sharoitiga qarab iyundan to oktyabrgacha gullaydi va urug'i yetiladi. Mevasi sarg'ish qo'ng'ir rangli uchmali pista[3]. Sachratqi ildizi tarkibida qimmatli modda 60% gacha inulin mavjud bo'lib, metabolizmni yaxshilaydi va ovqat hazm qilish tizimining faoliyatini normallashtiradi shu bilan bir qatorda tinchlantiruvchi, shakar miqdorini pasaytiruvchi, o't va siydik haydovchi, isitma tushuruvchi, yallig'lanishga qarshi vosita sifatida ham keng foydalanib kelinmoqda [4].

**Xulosa.** Adabiyotlar tahlili natijasida xalq va ilmiy tabobatda keng qo'llaniladigan mahalliy dorivor o'simliklar hozirgi kunda muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinayotganligi aniqlandi. Qandli diabet kasalligini davolashda *Galega officinalis L* va *Cichrium inthybus L* o'simliklarining samaradorligining olimlar tomonidan o'rganilayotganligi tahlil qilindi. Ushbu o'simliklar asosida samarali yig'ma choy texnologiyasi ishlab chiqish tadqiqotlari olib borilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. <https://www.afro.who.int/health-topics/diabetes>
2. Мартынчик И. А., Трумпе Т. Е. ГАЛЕГА ЛЕКАРСТВЕННАЯ (*GALEGA OFFICINALIS L.*)-ПЕРСПЕКТИВНОЕ РАСТЕНИЕ ГИПОГЛИКЕМИЧЕСКОГО ДЕЙСТВИЯ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ) //Перспективы лекарственного растениеводства. – 2018. – С. 679-683.

3. Muxtaram A., Guli G., Shaxnoza D. QOQIO ‘TDOSHLAR OILASIGA MANSUB AYRIM DORIVOR O ‘SIMLIKLARNING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 37. – №. 5. – С. 67-69.
4. Botirovna S. M. et al. SACHRATQI-CICHORIUM INTYBUS L. NING DORIVORLIK XUSUSIYATI VA YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASI //INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 369-374.

## **SOCHNI OZIQLANTIRUVCHI VA O‘STIRUVCHI SPREY TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQUISH**

**Nasirova M.,<sup>1</sup> Ne‘matjonova D.,<sup>2</sup> Turayeva S.S.<sup>3</sup>**

7. Toshkent sh. Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot instituti, farmatsiya fakulteti 3-kurs 305-guruh talabasi. Tel:+998992255050
8. Toshkent sh. Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot instituti, farmatsiya fakulteti 3-kurs 305-guruh talabasi.
9. Toshkent sh, Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot instituti Farmatsevtik texnologiya kafedraasi assistenti.  
e-mail: loyaltysadoqat@gmail.com tel: +998930561293

**Annotatsiya. Soch to‘kilishi** - sochlarning fiziologik yoki patologik to‘kilish jarayonidir. Patologik soch to‘kilishi sochning bir tekisda siyraklashishiga, ba’zi sohalarda qisman yoki umumiy siyraklik yoki to‘liq kallikka olib keladi. Soch to‘kilishining sabablari vitaminlar va mikroelementlar yetishmasligi, dorilarning nojo‘ya ta’siri, gormonal va yuqumli kasalliklar, stress, irsiyat, noto‘g‘ri soch parvarishi bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha, bu sabablarni bartaraf etish sochning tiklanishiga olib keladi.

Kallik va soch to‘kilishining sabablari har xil bo‘lsa ham, har ikki holatda ham insonning sochlari katta miqdorda yo‘qotiladi. Soch to‘kilishining eng ko‘p uchraydigan sabablaridan biri tanadagi temir mikroelementining yetishmasligidir. Ayollar hayz paytida tabiiy oylik qon yo‘qotishlari tufayli ko‘pincha [temir tanqisligi anemiyasi](#)dan aziyat chekishadi va uning birinchi klinik ko‘rinishi aynan tirnoq, teri va sochlarda seziladi [1].

Soch tolalarining kuniga 60, 100 dona to‘kilishi normal holat hisoblanadi. Ya’ni, bunda soch tolalari yangilanadi. Ammo soch tolalarining bundan ko‘p to‘kilishi soch bilan bog‘liq qandaydir muammolarning mavjudligini ko‘rsatadi va tezda sochlarni davolash, oziqlantirish, choralarni ko‘rishni talab qiladi.

**Kalit so‘zlar:** ajratuvchi, sprej, suv-spirt, texnologiya, soch to‘kilishi.

Rozmarin- bosh terisining shikastlanishi va tiralish xususiyatini kamaytiradi hamda sochlarning tez va sog'lom o'sishini ta'minlaydi. Sochlarni namlaydi va elektrlanishini kamaytiradi, sochlarga yorqin ko‘rinish berib, soch sifatini oshiradi. Bosh terisini tozalash orqali qazg'oq muammosini oldini oladi [2].

Qalampirmunchoq kurtaklari nafaqat betakror mazasi va xush bo'yi, balki dorivor xususiyatlari bilan ham mashhur. Ushbu ziravor uzoq vaqtlardan buyon xalq tabobatida kasalliklarning oldini olish va davolash uchun ishlatib kelingan.

Ziravor K, B6 (piridoksin), B-1 (tiamin), C va riboflavin vitaminlari manbai bo'lib sochlar parvarishi uchun ishlatiladi.

Qichitqio't (chayono't, gazanda, chaqong'ich) o'simligi yondiruvchi tuklari borligi sabab xalq orasida mashhur. Gazanda tarkibida glikozidlar, oqsil moddalari, vitaminlar (yangi xom ashyoda 0,15-0,17 % gacha askorbin kislotasi va quruq tarkibida 0,6% gacha), K vitamini, pantotenik kislota mavjud; karotenoidlar (yangi barglarda 13-14% gacha va quruq barglarda 50 mg/ g gacha); xlorofill (2-5%), sitosterol, gistamin, violaksantin mavjud.

Barglari o'ziga xos multivitamin konsentratidir. Shuning uchun barglaridan tibbiyotda sochni parvarish qilishda ham qo'llaniladi [3].

**Ilmiy ishning maqsadi.** Ushbu ilmiy ishning maqsadi- soch to'kilishiga qarshi va sochni oziqlantirish xususiyatiga ega bo'lgan sprej texnologiyasini ishlab chiqish.

**Natija.** Rozmarin, qalampirmunchoq, gazanda, vitamin B<sub>12</sub>, nikotin kislota sprejning tarkibiy qismi hisoblanadi. O'simliklar tarkibidagi asosiy ta'sir etuvchi moddalar suv-spirt ya'ni 40% li (1:1) nisbatdagi aralashmasi bilan perkolyatsiya usulida ajratib olindi. Olingan suv-spirtli ajratmaga yuqorida ko'rsatilgan vitaminlar qo'shilib, tarkib va texnologiyasi ishlab chiqildi [4].

**Xulosa.** Tadqiqot natijasida o'ziga xos hidga, qizil-qo'ng'ir rangga ega bo'lgan tiniq ajratma hosil bo'ldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://med360.uz/kasalliklar/soch-tokilishi/>
2. Abdug'affor Jabborov, *biologiya fanlari nomzodi, dotsent. "Sihat-salomatlik" jurnali.* <https://avitsenna.uz/>
3. Urtica (angl.) haqida Xalqaro assotsiatsiyaning o'simliklar taksonomiyasi Index Nominum Genericorum ma'lumotlar bazasidan olindi (IAPT).
4. M.M. Mirolimov, X.Q. Abdullayeva, Z.Ya. Mamatmusayeva, N.A. Azimova. Farmatsevtik texnologiya asoslari fanidan amaliy qo'llanma. Toshkent.:Abu Ali ibn Sino, 2004.

## **SOXTA KASHTAN (AESCVLVS HIPPOCASTANVM) DARAXTI MEVASIDAN QURUQ EKSTRAKT OLISH.**

**Quvvatova Z. Sh.,<sup>1</sup> Nurmuhamedova N.A.<sup>2</sup>**

1. Toshkent sh., Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti 3-kurs talabasi,

e-mail: [quvvatovazarinabonu@mail.com](mailto:quvvatovazarinabonu@mail.com), tel: [+998973031110](tel:+998973031110)

2. Toshkent sh., Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti Texnolog va farmatsevtik texnologiya kafedrasida o'qituvchisi,

e-mail: [Nurmuhamedovana@gmail.com](mailto:Nurmuhamedovana@gmail.com) tel:[+998946535969](tel:+998946535969)



**Annotatsiya:** tabiiy xomashyolarni qayta ishlab yuqori samaradorlikka ega, quruq ekstrakt olish tendensiyasi yil sayin ortib bormoqda. Ushbu ishda soxta kashtan yong'og'i tarkibidagi ta'sir etuvchi moddasini ajratib olib, undagi qo'shimcha ballast moddalarni chiqarib tashlab, quruq ekstrakt sintez qilish [1].

O'simlik kelib chiqishi bo'lgan ko'p qirrali triterpen glikozidlarning bir guruhi - essin. Bular odatda soxta kashtan urug'laridan ajratilgan triterpenoid saponinlardir. 30 dan ortiq essin izomerlari ajratilgan va o'rganilgan. Dastlab, essin yallig'lanish, surunkali venoz yetishmovchilik va gastroproteksiyaga qarshi samarali ekanligi isbotlangan. Ammo so'nggi 20 yil ichida essinning ko'plab yangi faoliyati nashr etildi. So'nggi yillarda ko'plab tadqiqotlar essinning saratonga qarshi ta'siri haqida xabar berdi. Bundan tashqari, yangi tendentsiya - essin va boshqa APClarning kompozit preparatlari - o'sib bormoqda. Adabiyotlarda ikki xil "aessin" yoki "essin" atamalarini ko'p saponinlar aralashmasiga ishlatishni yoqlaymiz, ularning aglikon tuzilishi yoki protoascigenin yoki barrigenol C [2].

**Kalit so'zlari:** essin, inklyuziv, saponin, gastroproteksiya, aglikon.

**Maqsad:** soxta kashtan urug'idan quruq ekstrakt texnologiyasini ishlab chiqish.

**Natija:** soxta kashtan urug'lari tozalab olinib, maydalandi. So'ngra turli xil erituvchilar suv, spirt (60-70%li) yordamida suyuq ajratma olindi. Quruq ekstrakt olishda "Ultratovushli apparat" va "Sox 406 fat analyzer" apparatlaridan foydalanildi [3].

**Xulosa:** Tadqiqot natijasida o'ziga xos hidga ega bo'lgan qo'ng'ir rangli quruq ekstrakt hosil bo'ldi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Masayuki Yoshikawa TM, Johji Yamahara, Hisashi Matsuda (1998) Bioactive saponins and glycosides. XII. Horse chestnut. (2): Structures of escins IIIb, IV, V, and VI and isoescins Ia, Ib, and V, acylated polyhydroxyoleanene triterpene oligoglycosides, from the seeds of horse chestnut tree (*Aesculus hippocastanum* L., Hippocastanaceae). *Chem Pharm Bull* **46**:1764-1769.
2. Fazliev S, Tursunov K, Razzokov J and Sharipov A (2023) Escin's Multifaceted Therapeutic Profile in Treatment and Post-Treatment of Various Cancers: A Comprehensive Review. *Biomolecules* doi: 10.3390/biom13020315.
3. Gallelli L (2019) Escin: a review of its anti-edematous, anti-inflammatory, and venotonic properties. *Drug Des Devel Ther* **13**:3425-3437.

## **SULI AVENA ASOSIDA NASTOYKA TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQUISH**

Hasanova H.M.<sup>1</sup> Sharipova I.SH.<sup>2</sup>

1.Toshkent sh, Farmasevtika ta'lim va tadqiqot instituti 1-bosqich magistratura talabasi, e-mail:hilolahasanova494@gmail.com. tel:+998900924247.

2.Toshkent sh, Farmasevtika ta'lim va tadqiqot instituti Farmasevtik texnologiya kafedrasida dotsenti f.f.d.

**Annotatsiya.** Mahalliy o'simlik xom ashyolaridan dori vositalarini yaratish hozirgi kun dolzarb muommalardan biri bo'lib hisoblanadi. Zamonaviy tibbiyotda suli

mevasidan dori vositasi sifatida keng foydalaniladi. Bunga sabab suli mevasida vitaminlar, aminokislotalar va mikroelementlarning yuqori miqdordaligi va shu bilan birga suli mevasining dorivor xususiyatlari, ya'ni tozalovchi, qovuqning yallig'lanishi peshob yo'llarida tosh yig'ilishi jigar kasalliklariga qarshi qo'llanilishi moddalar almashinuvini yaxshilovchi davolovchi vositalarini ishlab chiqarishda foydalanish imkonini beradi [1.2].

**Kalit so'z:** Suli mevasi, yallig'lanish, nastoyka, etil spirt, VNIIF usuli.

**Maqsad:** Ushbu ilmiy ishning maqsadi suli (*Avena Sativa L*) mevalari asosida nastoyka olishning optimal texnologiyasini ishlab chiqish.

**Natija:** tindirma olish texnologiyasini ishlab chiqishda perkolyasiya, VNIIF usullarida 1:5 nisbatda olib borildi. Ekstragent sifatida turli quvvatli 40%, 50% va 70% li etil spirtidan foydalanildi. Hom ashyoning maydalik darajasi katta ahamiyatga ega ekanligi shu bilan bir qatorda tegib turish yuzasi qanchalik katta bo'lsa ekstraktsiya shunchalik tezroq ajratmaga o'tadi. Ammo, amaliyot shuni ko'rsatdiki, juda mayda o'simlik kukunlarini ekstraktsiya jarayoniga ishlatish, bir qancha sabablar tufayli mumkin emas, chunki mayda dispersli kukunlarda juda ko'p yemirilgan hujayralar bo'ladi, ulardan ajratmaga ko'p miqdorda begona moddalar, erimaydigan zarra va kolloidlar o'tib, natijada xira suyuqlik paydo bo'lib, uni esa tozalash qiyin bo'ladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holatda xom ashyolar 0,1; 0,25; 0,5; va 1,0 mm maydalik darajasigacha maydalanilib saralandi. Saralangan xom ashyodan turli quvvatdagi etil spirti yordamida ajratmalar olindi. Olingan nastoyka moddalar almashinuvida va buyrak tosh kasalliklarida davo hisoblanadi.

**Xulosa.** Ilk marotaba moddalar almashinuvida va buyrak tosh kasalliklariga ega bo'lgan suli mevasidan nastoyka texnologiyasi ishlab chiqildi, tashqi ko'rinishi, og'ir metallar miqdori bo'yicha aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tashpulatova, N., Tashmuhamedova, M., Mirzakamalova, D., & Aliqulova, A. (2023). SULI MEVASIDAN OLINGAN SUYUQ EKSTRAKT ASOSIDA GIDROGEL TARKIBINI TANLASH VA TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQUISH. Евразийский журнал академических исследований, 3(6 Part 2), 7–10. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/17006>
2. M.M.Mirolimov, H.Q.Abdullayeva, Z.Ya.Mamatmusayeva, H.A.Azimova, Farmatsevtik texnologiya asoslari fanidan amaliy qo'llanma 89 bet.

## **ZIZIPHUS JUJUBA MILL. ЎСИМЛИГИДАН ЭКСТРАКТ ОЛИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ**

**С.Г.Куранбоева<sup>1</sup>, Н.С.Абдухалилова<sup>2</sup>**

1. Тошкент ш., Фармацевтика таълим ва тадқиқот институти, 1-курс магистратура талабаси. email: [kuranboevasohiba@gmail.com](mailto:kuranboevasohiba@gmail.com), тел: 90 7255502
2. Тошкент ш., Фармацевтика таълим ва тадқиқот институти, Малака ошириш ва қайта тайёрлаш маркази катта ўқитувчиси, PhD.

**Аннотация.** Маҳаллий фармацевтика саноатини ривожлантиришнинг устувор йўналишларидан бири, доривор ўсимликлар хом-ашёсидан замонавий дори воситаларини ишлаб чиқаришни ташкил этишдир. Мамлакатимизда, кўпгина дори воситаларини ишлаб чиқаришда фойдаланиладиган асосий фармацевтика субстанцияларининг саноат синтезининг мавжуд эмаслиги, табиий хом-ашёдан тайёрланган субстанцияларни ишлаб чиқаришни, кўпгина касалликларни даволашда фойдаланиладиган замонавий, юқори технологияли ва арзон дори воситаларининг кенг ассортиментини яратишни тақозо этади.

Жаҳон Соғлиқни Сақлаш ташкилоти маълумотларига кўра 2016-йилда 5ёшгача бўлган 155 млн га яқин болаларнинг бўй ўсишида секинлашиш кузатилган, 41 млн болаларда эса ортиқча вазн ёки семириш касалликлари ташхиси қўйилган. Улар орасида 5 ёшгача бўлган болалар ўлимининг тахминан 45% и тўйиб овқатланмаслик билан боғлиқ. Бу кўриниш асосан паст ва ўрта даромадли мамлакатларда кузатилади. Болалар ўртасида нотўғри овқатланиш қуйидаги салбий оқибатларни келтириб чиқаради: холсизлик, бўй ўсмаслиги, вазннинг камлиги, витамин ва минералларнинг етишмаслиги. Хусусан, етарлича озуқа моддаларига бой овқатларни истеъмол қилмаслик натижасида болалар касалликларга кўпроқ мойил бўлиб хатто айрим ҳолларда ўлимга олиб келади. Бу сурункали ёки даврий озик моддалар етишмовчилиги ижтимоий-иқтисодий шароитлар, онанинг заиф ва нотўғри овқатланиши, тез-тез касалланиб туриш ва бошқалар билан ҳам боғлиқ. Афсуски, бўйнинг яхши ўсмаслиги болаларнинг жисмоний ва ақлий қобилиятларини тўлиқ намоён қилишларига тўсқинлик қилади.

Чилонжийда узок ўтмишдан халқ табобатининг ишончли дори-дармони бўлиб келмоқда. Халқ табобатида чилонжийда буйрак, қовуқ касалликларида, юқори нафас йўлларида яллиғланиш касалликлари, ревматизм, иситмада, ичак касалликларида қадимдан ишлатилиб келинади. Чилонжийда мевалари пиелит, цистит касалликлари, диарея ҳолатларида ёрдам беради, меъдани мустаҳкамлайди. Ўрта Осиё халқ табобатида чилонжийда мевалари, баргларида қайнатмалар тайёрланиб, кўкрак оғриғи, бронхиал астма, юрак қисиши, камқонлик давосига ишлатилади, жигар, буйрак, қовуқ, ичак касалликларида оғриқни қолдирадиган восита тариқасида буюрилади, улардан ични юмшатадиган, сийдик хайдайдиган дори сифатида ҳам фойдаланилган. Абу Али ибн Сино умумий қувватсизлик, ичкетарда, қон кетадиган касалликларда чилонжийда истеъмол қилишни тавсия қилган [1].

**Калит сўзлари:** *Ziziphus jujuba* Mill., қуюқ экстракт, ажратувчи, перколяция.

**Мақсад:** юқоридаги фикрларни инобатга олган ҳолда чилонжийда ўсимлигидан қуюқ экстракт олишнинг оптимал технологиясини ишлаб чиқиш мақсад қилиб олинди.

Тадқиқот объекти сифатида Тошкент вилояти Бўстонлик туманида етиштирилган ўсимликдан фойдаланилди. *Ziziphus Jujuba* Mill.– оддий чилонжийда (унаби обыкновенная) – *Жумрутдошлар (Rhamnaceae)* оиласига

киради. Бўйи 3 м гача ўсади, шохлари ёйиқ-тиканли бута ёки кичикроқ бўйи 8-12 м, танасининг йўғонлиги эса 60 см га етадиган дарахт. Шохлари қизғиш-қўнғир, ёш новдалари тукдор бўлади. Барглари тўқ яшил, терисимон, тухумсимон, калта бандли, сербар ёки чўзинчоқ ва кенг наштарсимон, четлари майда тишли, устки томони яланғоч. Гуллари майда, икки жинсли, кўримсиз, лекин жуда хушбўй. Меваси жийданикига ўхшаш думалоқ ёки чўзинчоқ шаклдаги данакли мева. Унинг атрофини ўраб олган қизғиш-жигарранг тусли ялтироқ, қурукроқ ёки ширали этдан иборат [1,2].

Чилонжийда мевалари кузда яхши пишиб етилади. *Ziziphus jujuba Mill* ўсимлигидан қуюқ экстракт олиш учун ўсимлик тўлиқ етилиши кутилди. Тайёр махсулот йиғиб олинди ва 3-5 см катталиқда майдаланади. *Ziziphus Jujuba Mill.*, ўсимлигидан қуюқ экстракт олишда ажратувчи сифатида 70% қувватли этил спирти танлаб олинди. Тажриба йўли билан хом ашёни 3-5 мм майдалиқ даражасида, 70% концентрациядаги этил спиртини қўллаб перколяция усулида қуюқ экстракт олинди [3,4]. 3-5 мм гача майдаланган хомашё алохида идишда 200 мл ажратувчи билан бўкиш учун 4 соатга қолдирилади. Сўнг перколяторга ўтказилиб, ажратувчи билан "ойнасимон юза" ҳосил қилиб 1-2 кунга қолдирилади. Кейин алохида идишга умумий махсулотнинг 85% қисмини перколяция қилиб олинди. Иккинчи идишга эса хомашё таркибидаги таъсир этувчи модда тугагунча перколяция давом эттирилади ажратма сув хаммомида 70° хароратда қуюқ холга келтирилиб, биринчи идишдаги ажратма билан бирлаштирилади ва тоза ажратувчи билан керакли хажмгача етказилди.

**Натижа:** Тажрибалар натижасида оддий чилонжийда мевасидан перколяция усулида 1:10 нисбатда қуюқ экстракт олинди. Олинган экстракт қўнғир-жигарранг рангли, ўзига хос ҳидли, ширин таъмли, асалсимон суюқлик.

#### **Адабиётлар:**

1. Xolisbekov J. K., Abduxomidov I. M., To'Ychiyev M. M. DORIVOR CHILONJIYDANING O 'ZIGA XOS SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARINING XALQ TABOVATIDAGI TA 'SIRI VA QO'LLANILISHI //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-1 (81). – С. 390-394.
2. Ш.Ф.Искандарова, Н.С.Абдухалилова. Технология получения сухого экстракта из корневищ куркумы длинной (*Curcuma longa L.*) циркуляционном экстрагированием//Фармацевтика журналы №4/2018.- 71-75 б.
3. Минина С.А., Каухова И.Е. Химия и технология фитопрепаратов –Москва, 2004. -С.28-35

## **АВТОМАТИЗАЦИЯ ОСНОВНОГО АППАРАТА ДРУК ФИЛЬТР С ПАРОВОЙ РУБАШКОЙ, ПРИМЕНЯЕМОГО ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕ ГЛАЗНОЙ МАЗИ ТЕТРАКЦИКЛИН 1%**

**Жолшы А. К.<sup>1</sup>, Мусабекова Л. М<sup>2</sup>**

1. г. Шымкент, РК. Южно-Казахстанская медицинская академия, студент 4 курса, e-mail: [ayaulimk02@mail.ru](mailto:ayaulimk02@mail.ru) , тел: +7778 665 24 53
2. г. Шымкент, РК. Южно-Казахстанская медицинская академия, доктор технических наук кафедры «Технология фармацевтического

производства», e-mail: [mleyla@bk.ru](mailto:mleyla@bk.ru), тел: +7708 585 42 80

**Аннотация:** в данной статье рассматривается автоматизация и расчет аппарата по производству глазных мазей на производстве. Программа mathcad для инженерных расчетов, позволяющая как проводить вычисления, так и документировать их. Ниже приведена стандартная методика расчета оборудования с применением программы mathcad [1].

**Ключевые слова:** автоматизация, друк фильтр с паровой рубашкой, программа Labview, система Matchad, технологический расчет.

**Цель:** создание имитационной модели с использованием программы labview с друк фильтров с паровой рубашкой, в качестве основного аппарата. Расчет друк фильтров с паровой рубашкой является сложной задачей, требующей значительного объема математических вычислений.

**Результат:** процесс производства представлен в технологическом регламенте. Для приготовления мазей нужно подготовить основы мази. Друк фильтр с паровой рубашкой используется для фильтрование основы мазей.

Основные параметры друк фильтра с паровой рубашкой- температура, давление, плотность, уровень осадка. Автоматизация аппарата осуществляется с учётом всех этих параметров. С помощью программы Labview была проведена регулировка параметров друк-фильтр с паровой рубашкой [2,3].




Рисунок-1 Блок схема автоматизация друк фильтр с паровой рубашкой с помощью программы labview

Рассмотрим расчет аппарата. Для расчёта друк фильтр с паровой рубашкой используются плотность, масса продукты [4,5,6]. Показаностандартная расчет аппарата в рисунке 2.

Расчет аппарата друк фильтр с паровой рубашкой для основы Плотность вещества (вазелин, безводного ланолин)	Расчет паровой рубашки
$\rho = X_1\rho_1 + X_2\rho_2$ $\rho_1 = 815 \quad \rho_2 = 940$ $m_1 = 181.82 \quad m_2 = 72.728$ $m_{обц} = 254.548$ $x_1 = m_1 \div m_{обц} \quad x_1 = 0.714$ $x_2 = m_2 \div m_{обц} \quad x_2 = 0.286$ $\rho = x_1 \cdot \rho_1 + x_2 \cdot \rho_2 \quad \rho = 850.714$	Количество тепла, необходимое для нагрева устройства: $C = 500 \quad M = 570$ $t_2 = 20 \quad t_1 = 70$ $Q_a = C \cdot M \cdot (t_1 - t_2) \quad Q_a = 1.425 \cdot 10^7$
Суточный объем фильтруемой суспензии: $V_{сум} = \frac{m_{обц}}{\rho + 1000} \quad V_{сум} = 299.217$	Количество тепла, затраченное на производство продукта: $C_p = 2100 \quad M_p = 254.548$ $Q_p = C_p \cdot M_p \cdot (t_1 - t_2) \quad Q_p = 2.673 \cdot 10^7$
Принимаем объемную скорость фильтрации $W = 800 \text{ л/м}^2 \cdot \text{ч}$ Рассчитываем необходимую поверхность фильтрации по формуле: $B = 1 \cdot 800 \cdot \frac{V_{сум}}{60} \quad \sigma = 15 \quad V_{сум} = 299.217$ $B = 800$ $F\phi = \frac{V_{сум}}{B} \left( 1 + \frac{\sigma}{100} \right) \quad F\phi = \frac{299.217}{800} \left( 1 + \frac{15}{100} \right) \quad F\phi = 0.43$	Количество тепла, выделяемого в окружающую среду: Коэффициент теплоотдачи в окружающую среду: $aF = 9.74 + 0.07 (t_1 - t_2) \quad aF = 13.24$ $Q_0 = aF \cdot (t_1 - t_2) \cdot (2 \cdot 60 \cdot 60) \quad Q_0 = 4.766 \cdot 10^6$
Проверим высоту слоя осадка по формуле: $\rho_0 = 1 \quad B = 850.75$ $C = 254.548 \quad F = 0.4$ $H = \frac{C}{\rho_0 \cdot B \cdot F} \quad H = 0.062$	Общая тепловая мощность: $Q = Q_a + Q_p + Q_0 \quad Q = 4.574 \cdot 10^7$
	Расход пара: $r = 2158 \cdot 10^3$ $G = \frac{Q}{r} \quad G = 21.197$

Рисунок-2 Расчет аппарата с помощью системы matchad

**Вывод:** использование программы Labview в сочетании с Matchad дает возможность создать комплексную систему автоматизации производства, которая объединяет функции сбора данных, управления процессами и анализа результатов. Это не только увеличивает производительность производственного оборудования, но и позволяет оперативно реагировать на изменяющиеся условия производства и повышает качество выпускаемой продукции. Таким образом, использование Labview с Matchad открывает новые возможности в автоматизации производства, способствуя улучшению эффективности, точности и управляемости производственных процессов.

### Литература:

1. Озерова Г.П. Информационные технологии: Mathcad: для студентов инженерных специальностей очной и заочных форм обучения: учебно-методическое пособие Владивосток: 2020. – ISBN 978-5-7444-4776-2.
2. Схиртладзе, А.Г. Автоматизация технологических процессов и производств: Учебник / А.Г. Схиртладзе, А.В. Федотов, В.Г. Хомченко. — М.: Абрис, 2018. — 565 с.
3. Суранов А. Я. LabVIEW 8.20: Справочник по функциям. – М.: ДМК Пресс, 2007 – 536 с. ISBN 5 94074 207 6
4. <https://pharmacopoeia.ru/fs-2-2-0003-15-vazelin/>
5. <https://www.terra-aromatica.ru/lanolin-bezvodnyi-p-366.html>
6. Расчет и выбор оборудования химико-фармацевтической промышленности. Часть 2. Расчет и выбор оборудования для выделения продуктов реакций, хранения и дозирования жидкостей [Щенникова О.Б.](#) 2005 год

## АЧЧИҚ ШУВОҚ (ARTEMISIA ABSINTHIUM L.) ЭКСТРАКТИ ТАРКИБИДАГИ МАКРО – ВА МИКРОЭЛЕМЕНТЛАР ТАҲЛИЛИ

Жалилов Д. М.<sup>1</sup>, Искандарова Ш.Ф.<sup>2</sup>

1. Фармацевтика таълим ва тадқиқот институти, Тошкент ш., Ўзбекистон Республикаси, **e-mail:** [dostonbek.jalilov@inbox.ru](mailto:dostonbek.jalilov@inbox.ru), **тел:** +998999400202

2. Фармацевтика таълим ва тадқиқот институти, Тошкент ш., Ўзбекистон Республикаси, **e-mail:** [iskandarova.shakhista@mail.ru](mailto:iskandarova.shakhista@mail.ru), **тел:** +998977335754

**Аннотация.** Мақолада аччиқ шувоқ (*Artemisia absinthium* L) ўсимлигининг ер устки қисмидан олинган қуруқ экстракт таркибидаги микро- ва макроэлементлар таҳлил натижалари келтирилди.

**Калит сўзлари:** аччиқ шувоқ, саратон, қуруқ экстракт, микро- ва макроэлементлар.

Аччиқ шувоқ мураккабгулдошлар оиласи, шувоқдошлар туркумига мансуб кўп йиллик ўт ўсимлик булиб, у Кавказ, Сибирь ва Ўрта Осиёда тарқалган. Охирги йилларда олиб борилган бир нечта илмий тадқиқотлар натижасига кўра ўсимликнинг саратонга қарши хусусиятлари борлиги аниқланди. Олимлар унинг саратонга қарши таъсири, таркибидаги артемисинининг мавжудлиги билан изоҳлаган [1,2,3,4].

**Мақсад:** тадқиқот мақсади *Artemisia absinthium* L. асосида олинган қуруқ экстракти таркибидаги макро- ва микроэлементлар таҳлили ўтказиш ҳисобланади.

**Натижа:** аччиқ шувоқ ер устки қисмидан қуруқ экстракти таркибидаги биологик фаолликни таъминлашда муҳим аҳамиятга эга бўлган макро- ва микроэлементларнинг таҳлили олиб борилди. Тажрибалар ISP «Agilent Technologies» ( АҚШ, Series Sr № 7500) масс-спектрометрида бажаралиб, натижалар жадвалда келтирилди.

#### 1-жадвал

#### Аччиқ шувоқ (*artemisia absinthium* L.) Қуруқ экстракти таркибидаги макро- ва микроэлементларнинг таҳлили

Макро- ва микроэлементларнинг номи	Микдор и, gr/kg	Макро- ва микроэлементларнинг номи	Микдори, gr/kg
Li	24,1	Sr	19,4
Na	2579	Ba	14,1
Mg	2611	P	951
K	39750	Fe	208
Ca	3043	Cu	32,5

Намуналарда катта микдорларда калий – 39750 мг/кг, кальций - 3043 мг/кг, натрий - 2579 мг/кг, магний – 2611 мг/кг, фосфор – 951 мг/кг мавжудлиги аниқланди.

**Хулоса:** юқорида келтирилган натижалар асосида аччиқ шuvoқ курук экстракт биологик фаол қўшимчалар ва дори воситалари учун фаол сифатида қўлланилиш имконлари мавжудлиги асосланди.

#### **Адабиётлар.**

1. Muhammad H Sultan, Alanazi A Zuwaiel. Bioactive Principles and Potentiality of Hot Methanolic Extract of the Leaves from *Artemisia absinthium* L "in vitro Cytotoxicity Against Human MCF-7 Breast Cancer Cells, Antibacterial Study and Wound Healing Activity" Curr Pharm Biotechnol. 2020;21(15):1711-1721. doi: 10.2174/1389201021666200928150519

2. Muhammad Ali, Rida Iqbal Antioxidant and antibacterial activities of Artemisia absinthium and Citrus paradisi extracts repress viability of aggressive liver cancer cell line Mol Biol Rep. 2021 Dec;48(12):7703-7710. doi: 10.1007/s11033-021-06777-0. Epub 2021 Nov 9.

3. Ismoil Koyuncu. Artemisia absinthium L. ekstraktining saratonga qarshi, antioksidant faolligi va fenolik birikmalarini baholash Cell Mol Biol (Noisy-le-grand).2018 yil 28 fevral;64(3):25-34. doi: 10.14715/cmb/2018.64.3.5.

4. Jinkyung Lee, Quynh Nhu Nguyen . Protective Effect of Shikimic Acid against Cisplatin-Induced Renal Injury: In Vitro and In Vivo Studies Plants (Basel). 2020 Dec 1;9(12):1681. doi: 10.3390/plants9121681.

## **ДОРИВОР АЛОЭ ВЕРА САҚЛАГАН ДЕРМАТОЛОГИЯДА ИШЛАТИЛАДИГАН СУРТМА ТЕХНОЛОГИЯСИ**

**А.Н. Юсуфжонов<sup>1</sup>, М.Ш. Фозилжонова<sup>2</sup>**

**1.Фармацевтика таълим ва тадқиқот институти 2 курс талабаси,  
[yusufjonovbdurashid@gmail.com](mailto:yusufjonovbdurashid@gmail.com)**

**2.Фармацевтика таълим ва тадқиқот институти доценти, фарм.ф.д.**

**Тадқиқотнинг мақсади.** Маҳаллий хом ашёлардан Алоэ вера ва мўмиё сақлаган дерматология амалиётида тери касалликларини даволашга мўлжалланган суртма таркиби ва технологиясини ишлаб чиқиш.

**Материаллар ва усуллар.** Тадқиқот давомида Алоэ (*Aloe vera*) ўсимлиги ва мўмиёдан иборат яраларни битказиш хоссасига эга янги суртма таркибини тажриба йўли билан танлаш, суртма тайёрлашнинг оптимал технологиясини ишлаб чиқиш, суртманинг физик-кимёвий хоссаларини ўрганиш, суртманинг технологик хоссаларини ўрганиш, суртманинг сифат кўрсаткичларини белгилаш, сақлаш муддатларини аниқлаш ҳамда суртма дори воситасини ўткир заҳарлилигини ўрганишдан иборат тажрибалар амалга оширилди.

Маҳаллий хомашёлардан олинган янги суртма шаклидаги дори воситаларининг ҳар хил микдорларда (%) суртма олиш технологияси ишлаб чиқилди. Суртмалар олиш жараёнида Алоэ (*Aloe vera*) ўсимлигидан олинган шарбат ҳамда мўмиёнинг сувли эритмаси, глицерин билан аралаштирилиб,



гидрофоб асосда эритилди, оз-оздан массани муттасил аралаштириб турган ҳолда, бир жинсли масса ҳосил қилинди. Олинган суртмаларнинг ташқи кўриниши визуал кузатиш асносида баҳоланди. Олинган суртмалар оч қўнғир рангдан тўқ қўнғир ранггача кўринишда бўлди. Тайёрланган суртмаларнинг физик-кимёвий хоссалари, жумладан, дисперслиги, рН муҳити, коллоид турғунлиги, кислота сони, йод сони ва қовушқоқлиги ХI Давлат фармакопеяси талаблари бўйича аниқланди. Суртмаларга қўйилган асосий талаблардан яна бири уларни тайёрлаш, сақлаш ва қўллаш давомида бир жинслилигини (дори ва ёрдамчи моддаларни бегона қўшимчаларсиз бир хил аралашганлиги ва физик жиҳатдан турғунлиги) таъминлашдир. Агар технологик жараён давомида суртмаларни бир жинслилиги бузилган бўлса махсус намуна олиш усули орқали танланган суртмалар таркибидаги асосий таъсир этувчи модда миқдори аниқланади

**Натижалар.** Суртма тайёрлашнинг технологик жараёнлари дори модда ва асоснинг табиатига, физик – кимёвий хоссаларини инобатга олиб тайёрланди. Таркиблар технологияси эмульсион типдаги суртма технологиясига асосланган ҳолда амалга оширилди. Тайёр маҳсулот сифатини баҳолаш учун бир суткага салқин шароитда қолдирилди.

**Хулосалар.** Янги дори воситасини яратишда дастлабки хомашё ва ёрдамчи моддаларнинг физик-кимёвий ва технологик хоссаларини ўрганиш муҳим аҳамиятга эга. Таклиф этилаётган суртма таркибига кирувчи бошланғич ва ёрдамчи моддаларнинг ўрганилган хоссаларига таянган ҳолда эмульсион табиатли суртманинг таркиби танланди. Фармацевтик технология асосларига таянган ҳолда Эмульсия типдаги суртмаларни тайёрлаш технологияси амалга оширилди.

#### **Адабиётлар:**

1. Использование натуральных растительных ингредиентов при лечении больных сахарным диабетом / К.А. Корейба [и др.] // Медицина. Социология. Философия. Прикладные исследования. 2020. N 3. С. 49-51.
2. Государственная фармакопея ХI изд.
3. Определение флавоноидов и исследование влияния условий хранения на их содержание в плодах облепихи методов ТСХ / О.В. Тринеева [и др.] // Сорбционные и хроматографические процессы. 2012. N 5. С. 806-813.

### **ДОРИВОР РОЗМАРИН (*ROSMARINUS OFFICINALIS L*) ҚУРУҚ ЭКСТРАКТИНИ СТАНДАРТЛАШ**

**Чуллиева Ш. Р.<sup>1</sup>, Ходжаева И.А.<sup>2</sup>**

1. Фармацевтика таълим ва тадқиқот институти, Тошкент ш., Ўзбекистон Республикаси, e-mail: [cholliyeva0608@mail.ru](mailto:cholliyeva0608@mail.ru) <tel:+998992272727>

2. Фармацевтика таълим ва тадқиқот институти, Тошкент ш., Ўзбекистон Республикаси, e-mail: [zilola.pharm@mail.ru](mailto:zilola.pharm@mail.ru) [тел:+998977295882](tel:+998977295882)

**Аннотация:** материалларда доривор розмарин (*Rosmarinus officinalis L*) баргларидан олинган курук экстракт таркибидаги розмарин кислотасининг миқдорий тахлил ва унинг метрологик тавсиф натижалари келтирилди.

**Калит сўзлари:** доривор розмарин (*Rosmarinus officinalis L*), курук экстракт, юқори самарали суюқлик хроматографияси, розмарин кислотаси.

Доривор розмарин (Бибария) ўсимлиги қон айланиши билан боғлиқ патологиялар, жумладан сурункали заифлик, асаб касалликлари, мияда қон айланишини бузилишида, соч тўкилиши, периферик қон томир касалликлари, юрак қон томир системаси фаолиятида ва қон босимини оширувчи ҳамда коронар қон оқимини яхшилашда қўлланилади [2,3,4].

Доривор розмарин (*Rosmarinus officinalis L*) ўсимлигининг фармакологик таъсири унинг кимёвий таркиби билан узвий боғлиқ. Юқоридагиларни инобатга олиб, тадқиқотларда доривор розмарин барглари асосида курук экстракт олиш технологияси ишлаб чиқилди [1].

**Мақсад:** ушбу изланишлар мақсади доривор розмарин (*Rosmarinus officinalis L*) ўсимлиги барги ва гуллари асосида олинган курук экстрактнинг таркибидаги розмарин кислотасини аниқлашдан иборат.

**Натижа:** олинган курук экстрактнинг таркибидаги биологик фаол моддаси розмарин кислотасининг миқдорий тахлили юқори самарали суюқлик хроматографияси усулида олиб борилди. Хроматография шароитлари: диод-матрицалар билан жихозланган LC-20 Prominence суюқлик хроматографи; стандартлар – розмарин кислотаси; эритувчи тозаланган сув: этанол 96% =1:1; кўзгалувчан фаза – А: тозаланган сув: ацетонитрил; 85% фосфор кислотаси 80:19:1; кўзгалувчан фаза-В: метанол: ацетонитрил: 85% фосфор кислотаси = 40:59:1; колонка: С18, 5 мкм, 250 x 4,6 мм (Luna C18(2)); ҳарорат: 30°C; оқими тезлиги: 1,2 мл/мин; тўлқин узунлиги: 330 нм; намуна киритиш ҳажми: 20 мкл. Олинган натижалар 1- жадвалда келтирилди.

**Хулосалар:** доривор розмарин (*Rosmarinus officinalis L*) курук экстракти таркибидаги розмарин кислота миқдори бўйича стандартланиб, унинг миқдори 1,8 % дан кам бўлиши керак эмас, деб белгиланди.

#### 1-жадвал

#### Курук экстракт таркибидаги розмарин кислотасининг миқдорини аниқлаш ва унинг метрологик тавсифи

Курук экстракт миқдори, г	Розмарин кислотасининг миқдори, %	Метрологик тавсифи
0,4738	1,893	$X_{cp} = 1,889$ $S^2 = 0,000096$ $S = 0,00983$ $S_x = 0,004397$ $e_{cp} = 0,646$
0,4737	1,883	
0,4730	1,880	
0,4740	1,905	
0,4738	1,888	

## Адабиётлар.

1. В.И.Петров, А.А.Спасов. Российская энциклопедия биологически активных добавок. –М.:, Гэотар-Медиа, 2007.- С. 699-701с.
2. Sayorwan W, Ruangrunsi N, Piriyanunporn T, Hongratanaworakit T, Kotchabhakdi N, Siripornpanich V. Effects of inhaled rosemary oil on subjective feelings and activities of the nervous system. *Sci Pharm*. 2013 Apr-Jun;81(2):531-42. doi: 10.3797/scipharm.1209-05. Epub 2012 Dec 23. PMID: 23833718; PMCID: PMC3700080.
3. Lawrence B. Rosemary oil. *Perfum Flavor*. 1986;11:75–76
4. Faixova Z, Faix S. Biological effect of Rosemary (*Rosmarinus officinalis* L.) essential oil (A review) *Folia Vet*. 2008;52:135–139.

## ИЗГОТОВЛЕНИЕ ПАСТИЛКИ ОТ КАШЛЯ, ИЗ ЭКСТРАКТА ЖИДКОГО ТИМЬЯНА ПОЛЗУЧЕГО (THYMUS SERPYLLUM)

Асылхан А.Б., 1 Бакытжанова А.Б., 2 Сапакбай М.М.

1. г.Шымкент, Южно-Казахстанская медицинская академия, студент 4-курса В-ТФПК-01-20 группы, e-mail: [arafat.asylkhan@mail.ru](mailto:arafat.asylkhan@mail.ru),  
[тел:+77078204498](tel:+77078204498)

2. г.Шымкент, Южно-Казахстанская медицинская академия, старший преподаватель кафедры Технология фармацевтического производства

3. г.Шымкент, Южно-Казахстанская медицинская академия, доцент кафедры Организация и управление фармацевтического дело.

**Аннотация:** В настоящее время грипп и заболевания горла распространены в повседневной жизни любой страны мира. Поэтому пастилки от кашля, содержащие тимьян из жидкого экстракта, эффективны при гриппе и заболеваниях горла. Согласно исследованиям, растения семейства тимьяна (*Thymus Serpyllum*) выделяются рядом преимуществ, в том числе при пищевых и гриппозных заболеваниях. В то же время он выделяется применением в качестве симптоматического средства при лечении вирусных заболеваний, а также при кашле, простуде, гриппе, бронхитах.

**Ключевые слово:** семейства тимьяна (*Thymus Serpyllum*), пастилки от кашля, флавоноид, эфирных масел, фенольных веществ.

**Цель:** Качественно извлечь из растения пастилки от кашля путем изучения жидкого экстракта тимьяна при фармацевтическом производстве. Основное значение производства пастилок от кашля заключается в многочисленных преимуществах их применения.

**Результаты:** Изготовление пастилки от кашля проводилось в обычном стиле: сначала 20 г экстрактам тимьяна ползучего добавила вспомогательные вещества: ментол 0.0057 г; цинеол 0.00163 г; повидон 0.094 г; камедь акации 0.02103 г; вода очищенная 0.1175 г; сахароза 1.89028 г; стеарат магния 0.00118 г; диоксид кремния коллоидный, безводный 0.1175 г; стеариновая кислота 0.00118 г.

Полученный пастилки оценивали по внешнему виду, плотности. Единицы дозированного лекарственного препарата. Испытание проводяно в соответствии с требованиями ОФС «Одно-родность массы единицы дозированного лекарственного препарата».

Диаметр пастилки – от 15.8 до 16.2 мм и толщина от 4.9 до 5.3 мм.

**Выводы:** Таким образом, предположительный состав пастилки тимьяна ползучего с использованием экстракта тимьяна ползучего жидкого, полученного в соотношении 1:10.

Проведено определение флавоноидов, эфирных масел и фенольных веществ сиропов тимьяна ползучего. Предложена оптимальная технология получения пастилки и выявлены основные критические точки технологического процесса.

### Оценка органолептических свойств пастилки от кашля из тимьяна ползучего.

Таблица 1

Оценка органолептических свойств сиропа						Общая оценка восприятия
Внешний вид	Оценка	Цвет	Оценка	Вкус и запах	Оценка	
Круглые, слегка выпуклые	5	Кремового цвета	10	Сладкого вкуса с характерным запахом	10	25

#### Литература:

1. И.И. Краснюк, Н.Б. Демина, М.Н. Анурова, Е.О. Бахрушина «Фармацевтическая технология», Москва 2022, Том 2 403 стр.
2. Бубенчикова В. Н. Изучение дубильных веществ растений рода тимьян флоры Средней полосы Европейской части России / Научные ведомости Бел.ГУ. Серия Медицина. //Фармация. – 2015.-Вып. 31. – № 16 (213). – С. 174-179.
3. Гарник Т. П. [и др.] Тимьян ползучий (*Thymus serpyllum* L.) и тимьян обыкновенный (*Thymus vulgaris* L.): ботаническая характеристика и фармакологические свойства (обор литературы) // Український медичний альманах.-2009.-Т.12.-№ 5.-с. 215-218. 10. Старчак Ю. А.
4. [Электронный ресурс] URL: <https://d-apteka.ru/blog/pastilki-ot-kashlya/>
5. [Электронный ресурс] URL: <http://bolnoegorlo.ru/lechenie-i-diagnostika/pastilki-ot-kashlya-kak-vybrat-effektivnoe-sredstvo.html>

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОГРАММЫ ИМИТАЦИОННОГО МАТЕМАТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ CHEMCAD ПРИ ПРОЕКТИРОВАНИИ ПРОИЗВОДСТВА 10% СУСПЕНЗИОННОЙ ЭМУЛЬСИИ СИНТОМИЦИНА

Азимбаева М. Р.<sup>1</sup>, Арыстанбаев К. Е<sup>2</sup>

<sup>3</sup>. г. Шымкент, РК. Южно-Казахстанская медицинская академия, студент 4 курса, e-mail: [Azimbayevameruyert.02@mail.ru](mailto:Azimbayevameruyert.02@mail.ru) , тел: +7775 773 82 02

<sup>4</sup>. г. Шымкент, РК. Южно-Казахстанская медицинская академия, и.о.профессор, кандидат технических наук кафедры «Технология фармацевтического производства», e-mail: [201ukgu@mail.ru](mailto:201ukgu@mail.ru), тел: +7701 553 08 89

1. Республика Казахстан, г. Шымкент, АО Южно-Казахстанская медицинская академия, бакалавриат, студент 4-курса, e-mail: [gulfarida03@mail.ru](mailto:gulfarida03@mail.ru), тел: 8 776 167 2701.
2. Республика Казахстан, г. Шымкент, АО Южно-Казахстанская медицинская академия, к.ф.н., доцент кафедры «Технология фармацевтического производства» - Торланова Б.О;
3. Республика Казахстан, г. Шымкент, АО Южно-Казахстанская медицинская академия, магистр технических наук, старший преподаватель кафедры «Технология фармацевтического производства» - Умирзакова У.Н.

**Аннотация:** в статье рассматривается использование фито-чая из клевера лугового в репродуктивной медицине и особенности его приготовления, описываются полезные свойства этого напитка и богатый фитохимический состав травы клевера лугового.

**Ключевые слова:** клеверный фито-чай, лабораторные эксперименты, терапевтическое действие чая, фитохимический состав клевера лугового, репродуктивная медицина.

**Цели:** Большинство видов растений, произрастающих в Казахстане, широко используются в народной медицине, но их фитохимический состав всё ещё мало изучен. Одним из таких растений является клевер луговой (*Trifolium pratense* L.). В данное время, один из актуальных болезней это – климактерический синдром. Многие женщины сталкиваются с данной болезнью. Потому что репродуктивная способность сохраняется не на всю жизнь. Со временем организм стареет и работа яичников замедляется. Сначала они плавно снижают выработку половых гормонов — прогестерона и эстрогенов, которые регулируют менструальный цикл. В среднем после 40 лет у женщин начинается период «торможения» репродуктивной системы. Более 50% пациенток в менопаузе сталкивается с климактерическим синдромом. Предстоящие цели: определить содержание биологически активных веществ травы клевера лугового и сделать из данной травы лечебного фито-чая.

**Результат:** при выполнении работы использованы технологические методы исследований в соответствии с требованиями, указанными в ГФ РК [1]. Исследования проводились в лабораториях: кафедры «Технология фармацевтического производства» «АО ЮКМА» и в лабораториях Фармацевтический институт образования и исследований (ФИОИ, г. Ташкент). В качестве объектом исследования использована травы *Trifolium pratense* L, собранный в селе Каскасу в Туркестанской области.

Клевер луговой находит применение в медицине как противосклеротическое и антиканцерогенное средство, обладает эстрогеноподобным и иммуномодулирующим действием [2]. Для оценки качества лекарственного растительного сырья проведен товароведический и фитохимический анализ по стандартным методикам, в соответствии с требованиями ГФ РК [1]. Проведенный анализ образцов показал, что числовые показатели сырья соответствуют требованиям нормативной документации.

Методами ВЭЖХ из исследуемых образцов идентифицированы флавоноиды: апигенин, лютеолин, байкалин, байкалеин, вогонин, даидзеин, формонетин, прунетин, биоханин А [3].

Для улучшения вкуса фито-чая было использовано лимон, мята, малина.

Непревзойденный вкус чая, утонченный аромат и воздействие на организм объясняются содержанием в чае большого количества биологически активных веществ. В цветках клевера лугового содержится большое количество изофлавонов (фитоэстрогены), за счет которого чай оказывает тонизирующие, целебное действие на организм женщин, положительно влияет на работу матки в климактерическом синдроме. Для обеспечения человека суточной дозой изофлавонов необходимо выпить всего 2-3 чашки в течение дня [4]. В чае содержится также другие виды флавоноидов, стимулирующий сердечную деятельность. В состав чая входят также эфирные масла, придающие напитку характерный аромат чая [5].

**Выводы:** подводя итоги, хочется еще раз отметить, что фито-чай из клевера лугового – прекрасный напиток для тех женщин, которые страдают в период климактерического синдрома. Благодаря богатому фитохимическому составу травы клевера лугового, можно назвать эликсиром бодрости и здоровья.

В результате исследований было найдено группа изофлавоноидов, которые считается как ценными для здоровье женщин.

#### **Литература:**

1. ГФ РК I том
2. Марьин, А.А. Лекарственные растения в коррекции климактерических расстройств / А.А. Марьин, И.Г. Танцерева, В.В. Большаков, Н.Э. Коломиец // *Фундаментальная и клиническая медицина*. – Кемерово, 2019.Т. 4. №1. С. 80-90.
3. Белашова, О.В. Количественное определение суммы флавоноидов в траве рода *Trifolium* L. на территории Кемеровской области / О.В. Белашова, О.В. Дорогина, Д.Н. Шпанько // *Международный научно-исследовательский журнал*. - Екатеринбург, 2015. -№11 (42) часть 3. – С. 74-78.
4. Каротатов И. Д., Файзуллаева Ф. У. Чай – лечебно-профилактическое средство
5. Цзун Мао Чэнь, Джи Лин. Чай и здоровье человека: биомедицинские функции активных компонентов чая и актуальные вопросы

# ЮҚОРИ НАФАС ЙЎЛЛАРИ ЯЛЛИҒЛАНИШ КАСАЛЛИКЛАРИДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ЭЛИКСИР ДОРИ ВОСИТАСИНИНГ ТЕХНОЛОГИЯСИ БЎЙИЧА ТАДҚИҚОТЛАР

Д.З.Эргашева 1, З.Х. Абдижалилова 2

1, Тошкент ш, Фармацевтика таълим ва тадқиқот институти, 2-курс магистратура талабаси, e-mail:ergashevadilafruz0511@gmail.com, <tel:+998901237170>

2, Тошкент, Фармацевтика таълим ва тадқиқот институти, малака ошириш ва қайта таёрлаш Маркази доцент, ф.ф.д.

Ушбу тезисда юқори нафас йўллари яллиғланиш оқибатида келиб чиқадиган касалликлар ринит, синусит, гайморит касалликларида қўлланиладиган эликсир дори воситасини мўътадил таркиб ва технологиясини ишлаб чиқиш борасида изланишлар олиб борилди. Суюқ экстракт олишда мацерация-циркуляция усулларида фойдаланилди. Олинган экстракт асосида эликсир таркиби танланди ва сифат кўрсаткичлари баҳоланди.

**Калит сўзлар:** мацерация-циркуляция, турғунлик, потенциометрик усул, куруқ қолдиқ, оғир металллар.

**Аннотация** Фармацевтика фани ва саноатини ривожлантиришнинг асосий устувор йўналишларидан бири бу маҳаллий дори воситалари турини кенгайтиришдир. Бугунги кунда нафас олиш йўлларининг шамоллаши дунёда энг кўп учрайдиган касалликлардан биридир. Бу касалликлар натижасида бир қатор ўткир ва сурункали яллиғланиш касалликлари келиб чиқиб, тана ҳолсиз бўлиб иммунитетни тушиб кетиши, нафас йўллари касалликларининг асоратлари натижасида вируслар ҳосил бўлиши билан келиб чиқадиган касалликлар ҳам кузатилиши мумкин. Ҳозирги вақтда юқори нафас йўллари яллиғланиш касалликлари ва вирусли касалликларнинг ривожланиши кучайиши билан боғлиқ бўлган иккиламчи иммунитет танқислиги кенг тарқалган бўлиб, иммунитет тизими фаолиятининг бузилишига олиб келмоқда. Бундай шароитлар иммунокоррекцияни талаб қилади. Аммо баъзида дориларнинг юқори нархи ва уларнинг юзага келиши мумкин бўлган ён таъсири туфайли бунга эришиш қийин. Шу муносабат билан иммуномодуляцион, вирусларга қарши ва юқори нафас йўллари яллиғланишга қарши таъсирга эга маҳаллий доривор ўсимлик хом ашёларидан тайёрланган дори воситаларини тиббиёт амалиётида жорий этиш, уларнинг кимёвий таркибини ўрганиш ва улар асосида арзон дори воситалари олишнинг оптимал технологиясини ишлаб чиқиш замонавий фармацевтика саноатининг долзарб муаммоларидан биридир. Ўзбекистонда етиштирилаётган маҳаллий ўсимликлардан қизилмия илдизи, мойчечак гуллари, қора андиз илдизи, мускат маврак барглари, тўқ қизил эхинация куруқ экстракти ва ёрдамчи моддалардан иборат қилиб олинди. Ушбу комбинирланган эликсир комплекс таъсир кўрсатади, дастлабки табиий хом ашёлар биргаликда таъсири бир-бирини кучини янада оширади. Бу препаратларни технологиясини ва

стандартлаш усулини ишлаб чиқиш фармацевтик технологияни долзарб вазифаларидан биридир [2,3,4].

**Тадқиқотнинг мақсади:** Маҳаллий ўсимликлар хом ашёлари қизилмия илдизи, мойчечак гулларидан суюқ экстракт олиш технологиясини ишлаб чиқиш, сифатини баҳолаш, суюқ экстрактлар асосида олинган эликсир дори воситасини таҳлил қилиш. Қизилмия илдизи, мойчечак гуллари мацерация-циркуляция, потенциометрик усулда аниқлаш.

**Натижа ва хулосалар:** *Мацерация-циркуляция усулида ажратма олиш.* 1-3мм майдаликда майдаланган хом ашёдан 10.0 тортиб олиниб, оғзи зич беркитиладиган идишларга солинди ва устига ажратувчи қуйилиб 4-6 соатга бўктириш учун хона ҳароратида қолдирилди. Белгиланган вақт ўтгандан сўнг идишлардаги бўккан хом ашё олдиндан тайёрланган перколяторга солинди, фильтр қоғози қўйилиб устидан фарфор бўлакчалари билан ёпилди ва перколятор девори бўйлаб ажратувчи “ойнасимон юза” ҳосил бўлгунча қуйилди. Ажратма қуйиб олинди, қуйиб олинган ажратма перколяторга қайтадан қуйилди, Ҳар 6 соатда ажратувчи қайта-қайта сўрғич билан сўриб олиниб, яна юқоридаги идишга қайтариб солинди. Бу жараён 6 кун давомида амалга оширилди. Сўнгра ажратма қуйиб олиниб 10<sup>0</sup> С дан юқори бўлмаган ҳароратда 2 кунга қолдирилди, тиндирилди ва сузилди. Олинган суюқ экстракт ташқи кўриниши, рН кўрсаткичи, спирт қуввати, қуруқ қолдиқ кўрсаткичлари бўйича баҳоланди. Таҳлил қилинган суюқ экстрактларимизга тўқ қизил эхинация қуруқ экстракти, ёрдамчи моддалардан натрий бензоат, лимон кислота қўшиб эликсир дори воситасининг технологияси ишлаб чиқилди. Тайёр эликсир таркибидаги биологик фаол моддаларининг чинлиги ва миқдори ЮССХда Shimadzu LC -20 AD (Yaropіya) ускунасида таҳлил қилинди. Эликсир дори воситаси меъёрий ҳужжатлар асосида ташқи кўриниши, спирт миқдори, зичлик, оғир металл тузлари, рН кўрсаткичи, микробиологик тозаллиги, турғунлик кўрсаткичлари бўйича баҳоланди. Ташқи кўриниши тиниқ тўқ жигар рангли ўзига хос ҳидли ва мазали суюқлик бўлиб, рН кўрсаткичи потенциометрик усулда 5.82 , оғир металллар миқдори 0,001% дан кўп бўлмаган миқдорда, спирт қуввати эса ҳайдаш усули билан аниқланганда 16,5 % ни, зичлик-1,24 г/см<sup>3</sup> ни, микробиологик тозаллиги ДФ бўйича категори 3Б талабларига мос келди. Турғунлиги бир йил давомида ташқи кўриниши, рН кўрсаткичи, қуруқ қолдиқ миқдори, оғир металллар бўйича таҳлил қилинганда ўзгариш кузатилмади.

**Хулоса:** Қизилмия илдизи ва мойчечак гуллари асосида суюқ экстракт мацерация-циркуляция усулида олинди ва сифати баҳоланди. Сифати баҳоланган суюқ экстракт, тўқ қизил эхинация қуруқ экстракти ва ёрдамчи моддалар асосида эликсир технологияси ишлаб чиқилди ва сифати баҳоланди. Маҳаллий ўсимлик хом ашёлари асосида олинган эликсир дори воситаси меъёрий ҳужжатлар талабларига тўлиқ жавоб берди.

## АДАБИЁТЛАР

1. Технология лекарств промышленного производства / В.И.Чуешов, Е.В.Гладух, И.В. Сайко и др.– Винница. Новая книга, 2014.

2. Юнусова Х.М., Абдижалилова З.Х., Исследование специфической активности элексира «Бронхотус форте» // Инфекция, иммунитет и фармакология.-Тошкент-2021.-№2.-Б.453- 458.
3. И.Ш.Шарипова, Н.Х.Ташпулатова, А.Файзуллаев, А.Д.Таджиева «Махаллий усимлик хом ашёларидан тиндирма олишнинг оптимал усулини танлаш.» //Фармация ва фармакология.- Тошкент,- 2023,- №4- Б59-63
4. Ш.Ф.Искандарова, Н.С.Абдухалилова «Технология получения сухого экстракта из корневищ куркумы длинной (*Curcuma longa* L.) циркуляционном экстрагированием» // Фармацевтика журналы.-Тошкент.-2018,- №4.-Б.71-75.

## **TERI REGINERATSIYASINI TIKLOVCHI VA DAVOLOVCHI SPREY ISHLAB CHIQRISH UCHUN MUQOBIL TARKIB TANLASH**

**K.N.Maxamadjonov, D.F.Abdullayeva**

Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti Sanoat farmatsiya yo'nalishi 3-kurs talabasi, e-mail: [kozimjonmaxamadjonov01@gmail.com](mailto:kozimjonmaxamadjonov01@gmail.com), tel:+998974106041

Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti assistenti

[e-mail: salixova4748@mail.ru](mailto:salixova4748@mail.ru) tel.+998977094748

**Dolzarbliqi:** Teri organizm bilan tashqi muxit o'rtasida to'siq vazifasini o'taydi. Teri osti yog' qavati yog' bilan to'la katakchalardan iborat, ular biriktiruvchi to'qimadan vujudga keladi. Organizmni tashqi muhitning noxush omillaridan himoya qiladi. Bu omillarga kimyoviy, fizik va biologik ta'sirlarni misol qilishimiz mumkin. So'nggi vaqtlarda teri shikastlanish darajalari statistik ma'lumotlarga ko'ra bir necha barobar ortdi. Shuning uchun teri regeneratsiyasini tiklovchi va davolovchi dori vositalariga ham talab oshib bormoqda. Bir qator mamlakatlar terini qayta tiklash texnologiyalarini ishlab chiqarishmoqda. Bunda tadqiqot institutlari, biotexnologiya kompaniyalari va sog'liqni saqlash sohasi katta yutuqlarga ega bo'lmoqda. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Shveysariya. Bu davlatlar shu jumladan, sog'liqni saqlash sohasidagi innovatsiyalarning ushbu muhim sohasida taraqqiyotni tezlashtirish uchun chegaralar bo'ylab hamkorlik va bilim almashinuvi orqali terining yangilanishi va shifobaxsh sprey texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha global sa'y-harakatlarga hissa qo'shadi. Ilg'or tibbiy yordam, tegishli muolajalar va jarohatni davolash uchun resurslardan foydalanish imkoniyati cheklangan mintaqalar yoki mamlakatlarda terining tiklanishi qiyin bo'lishi mumkin. Ba'zi hududlarda terining tiklanishida qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin bo'lgan bir qancha omillar, jumladan: kam daromadli mamlakatlar, qishloq joylari, texnologiya va innovatsiyalarga kirishning cheklanganligi, sog'liqni saqlash tizimining muammolari va atrof-muhit omillari sabab bo'ladi.

**Tadqiqot maqsadi:** Shikastlangan teri regeneratsiyasini tiklash va davolash uchun dorivor o'simliklar va faol moddalarni o'z ichiga olgan farmatsevtik kompozitsiya tarkibini ishlab chiqish, shuningdek, yordamchi terapiya imkoniyatini ta'minlaydigan vositalarni tadbiq etishdir.

**Material usullari:** Qon to'xtatuvchi va shikastlangan teri a'zolari haqida ma'lumotlarni *PubMed, EBSCO, Elsevier, Springer* ma'lumotlar bazasida yoritilgan ilmiy maqolalardan foydalangan holda tahlil qilindi.

**Natija va hulosalar:** Tadqiqot natijalariga ko'ra, taklif qilinayotgan kompozitsiya o'ziga xos faolligi tirik organizmlarning vaqt o'tishi bilan shikastlangan to'qimalarni, ba'zan esa butun yo'qolgan a'zolarini tiklash aniqlandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Долматов И. Ю., Машанов В. С. [Регенерация у голотурий](#). — Владивосток: Дальнаука, 2007. — 208 с.
2. Tanaka EM. Cell differentiation and cell fate during urodele tail and limb regeneration. *Curr Opin Genet Dev.* 2003 Oct;13(5):497-501. [PMID 14550415](#)
3. Nye HL, Cameron JA, Chernoff EA, Stocum DL. Regeneration of the urodele limb: a review. *Dev Dyn.* 2003 Feb;226(2):280-94. [PMID 12557206](#)
4. Gardiner DM, Blumberg B, Komine Y, Bryant SV. Regulation of HoxA expression in developing and regenerating axolotl limbs. *Development.* 1995 Jun;121(6):1731-41. [PMID 7600989](#)

### КОЛИЧЕСТВЕННОЕ ОПРЕДЕЛЕНИЕ ГИНГЕРОЛА В ЭКСТРАКТЕ ИМБИРЯ ЛЕКАРСТВЕННОГО

Б.А.Абдужалилов, Ш.Ф.Искандарова

1. Фармацевтический институт образования и исследований, студент магистратуры второго курса e-mail: [bekzodabdujalilov27@mail.ru](mailto:bekzodabdujalilov27@mail.ru), телефон:+998909958283

2. Фармацевтический институт образования и исследований, директор центр повышения квалификации и переподготовки проф, фарм ф.д Ш.Ф.Искандарова

**Аннотация.** В работе представлены результаты количественного определения гингерола в сухом экстракте имбиря лекарственного. Также приведена метрологическая характеристика полученных результатов.

**Ключевые слова:** имбирь лекарственный (*Zingiber officinale* Roscoe), гингерол, метод реперколяции, лекарственное растительное сырье, сухой экстракт, высокоэффективная жидкостная хроматография.

Имбирь лекарственный (*Zingiber officinale* Roscoe) — многолетнее травянистое растение, принадлежащее семейству Zingiberaceae [1]. Он является эффективным противовирусным средством благодаря содержанию в нем гингерола, эфирных масел, а также витаминов группы В и С [2,3].

Нами была разработана технология получения сухого экстракта из корневищ имбиря лекарственного.

**Цель:** Целью настоящих исследований являлось определение биологического активного вещества гингерола, который содержится в полученном сухом экстракте *Zingiber officinale* Roscoe.

**Результат:** Количественное определение проводили методом высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ). Для анализа отбирали 250 мг исследуемой пробы и помещали в колбу емкостью 50 мл, заливали 25 мл метилового спирта и помещали в ультразвуковую ванну на 15 минут. Затем доводили до метки метиловым спиртом и хорошо перемешивали. Полученный



раствор фильтровали через мембранный фильтр размером отверстия пор 0,45 микрон [4].

Условия хроматографии:

- жидкостный хроматограф LC-20 Prominence, оснащенный диодными матрицами
- колонка: PERFECTSIL 100 ODS-3, внутренний диаметр 250 мм x 4,6 мм, размер частиц 5 мкм, октадецилсиликагель;
- подвижная фаза: ацетонитрил : вода (65:35)
- скорость потока: 1,0 мл/мин.
- обнаружение: 282 нм
- температура колонки: 30 °С
- размер образца: 10 мкл.

Содержание гингерол в рассчитывали по следующей формуле:

$$X = \frac{A_u \times D_s \times P \times 1000}{A_s \times D_u \times 100}$$

$$A_s \times D_u \times 100$$

где,

$A_u$  – площадь пика гингерола на хроматограмме испытуемого раствора;

$A_s$  – наибольшая площадь на хроматограмме раствора рабочего стандартного образца;

$D_s$  – объем разведения стандартного раствора;

$D_u$  - объем разведения испытуемого раствора;

$P$  – чистота гингерола в рабочем стандартном образце.

### Определение количества гингерола в сухом экстракте имбиря лекарственного и его метрологическая характеристика

Таблица 1

Количество сухого экстракта, г	Содержание гингерола, %	Метрологическое описание
0,250	12,5	$X_{cp}=12,38$ $S^2=0,0070$ $S=0,08366$ $e_{cp}=0,084$
0,251	12,4	
0,251	12,3	
0,249	12,4	
0,248	12,3	

Из приведенной таблицы видно, что количество гингерола в сухом экстракте имбиря лекарственного составило 12,3-12,5%. Метрологическая характеристика результатов, полученных в экспериментах, показывает, что использованный метод количественного анализа характеризуется достаточным уровнем чувствительности и специфичности.

### Литературы:

1. Nantaporn Promdam, Pharkphoom Panichayupakaranant. [6-Gingerol: A narrative review of its beneficial effect on human health] (англ.) // *Food Chemistry Advances*. — 2022-10-01. — Vol. 1. — P. 100043. — ISSN 2772 753X. — doi:10.1016/j.focha.2022.100043.
2. Qian-Qian Mao, Xiao-Yu Xu, Shi-Yu Cao, Ren-You Gan, Harold Corke. Bioactive Compounds and Bioactivities of Ginger (Zingiber officinale Roscoe) (англ.) // *Foods*. — 2019-06. — Vol. 8, iss. 6. — P. 185. — ISSN 23048158. — doi:10.3390/foods8060185.
3. Abdollah Jafarzadeh, Sara Jafarzadeh, Maryam Nemati. Therapeutic potential of ginger against COVID-19: Is there enough evidence? (англ.) // *Journal of Traditional Chinese Medical Sciences*. — 2021-10-01. — Vol. 8, iss. 4. — P. 267–279. — ISSN 20957548. — doi:10.1016/j.jtcms.2021.10.001.
4. Щепочкина О.Ю., Демина Н.Б., Жогова А.А., Анурова М.Н., Вальчихина О.Ю., Надер А. Определение биологически активных веществ в сухом экстракте имбиря лекарственного (*Zingiber officinale Roscoe*). Разработка и регистрация лекарственных средств, 2015; 2 (3): 86–90.

**ОПТИМИЗАЦИЯ ФИТОТЕРАПИИ ДЛЯ ПАЦИЕНТОВ С  
НАРУШЕНИЯМИ СИСТЕМЫ КРОВООБРАЩЕНИЯ В УСЛОВИЯХ  
САНАТОРНО-КУРОРТНОГО ЛЕЧЕНИЯ**

**Кулбаева М.М.<sup>1</sup>, Токсанбаева Ж.С.<sup>2</sup>, Ибрагимова А.Г.<sup>3</sup>**

4. г. Шымкент, Южно-Казахстанская медицинская академия, магистрант 1 курса МФК-03-23 группы, e-mail: [mkulbayeva@mail.ru](mailto:mkulbayeva@mail.ru)

5. г. Шымкент, Южно-Казахстанская медицинская академия, заведующая кафедрой «Фармакологии, фармакотерапии и клинической фармакологии», кандидат фармацевтических наук, асс.профессор, e-mail: [zhanat\\_2701@mail.ru](mailto:zhanat_2701@mail.ru)

6. г. Шымкент, Южно-Казахстанская медицинская академия, к.фарм. н., e-mail: [aygul\\_ibr@mail.ru](mailto:aygul_ibr@mail.ru)

**Аннотация:** На конец 2022 года в республике насчитывалось 172 санаторно-курортных организаций и лидером по количеству является Туркестанская область расположенное на юге Республики Казахстан [1]. По данным gov.kz на 2023 год на территории региона площадью 117,3 тыс. кв. км проживает около 2,1 млн. человек. Это крупнейший и уникальный курортный регион Казахстана, который может обеспечивать существенное улучшение здоровья более 1 млн. человек в год, что крайне важно в условиях демографического спада и снижения качества здоровья населения Республики Казахстан.

Санаторий предоставляет 170 мест и функционирует в течение всего года. В комплекс лечения входят разнообразные процедуры, такие как водолечение, гидротерапия, кишечные процедуры, бальнеотерапия, термотерапия, физиотерапия, биорезонансная терапия, гирудотерапия, мануальная терапия, рефлексотерапия, фитотерапия, аэрозольная и аромафитотерапия, галотерапия, психотерапия, посещение грязелечебницы, массаж, ингаляторная терапия, процедурный кабинет, лечебная физкультура, лечение парафином и озокеритом [2].

**Ключевые слова:** фитотерапия, программа лечения, санаторий, артериальная гипертензия.

**Цели:** главной целью является разработка программы санаторно-курортного лечения для больных с болезнями системы кровообращения.

**Результат:** В рамках реализации программы проводится анализ данных пациентов и определить сравнительные достоинства и слабые стороны фитобара и разработка программы санаторно-курортного лечения для больных с болезнями системы кровообращения.

Нами были проведены тщательный анализ медико-социальных особенностей пациентов санаторно-курортного учреждения, опираясь на компьютерную базу данных, собранную на основе медицинских записей пациентов за период 2022-2023 годов. Общий объем совокупности выборки составил 380 карт.

Среди всех изученных пациентов женщины превысили число мужчин в два раза: 258 женщин против 122 мужчин (соответственно 67,8% и 32,1%). Средний

возраст мужчин составил 66,53 лет, а средний возраст женщин - 68,03 года. В структуре сопутствующих заболеваний, выявленных среди пациентов, обратившихся в санаторий, большинство составляли заболевания системы кровообращения, что составило 48,6% от общей численности исследуемой группы. Среди них первое место заняли пациенты с артериальной гипертензией (85,9%), второе место - пациенты с ишемической болезнью сердца (8,2%), а третье место - пациенты с стенокардией (5,9%).

А также были изучены состояние фитобара. В фитобаре санатория для лечения больных используются 5 фитосборов компании Ева-Белла: почечный, успокоительный, желудочный, желчегонный и грудной. По данным медицинской карты пациентов, из 380 карт фитотерапию получали 232 больных что составило 61% от общего количество. Среди указанных фиточаев наиболее часто употребляемые были «Почечный» фиточай -115 (51,11%), второе место «Успокаивающий» фиточай – 22 ( 9,78%), третье место – «Желудочный» фиточай -13 (5,78%) и «Желчегонный» фиточай - 13 (5,78%), четвертое место «Грудной» фиточай - 9 (4%).

В программе санаторно-курортного лечения для больных рассматривается для пациентов с основным клиническим диагнозом артериальная гипертензия; артериальная гипертензия с сахарным диабетом; артериальная гипертензия с остеохондрозом. Программа предусматривается на 10 дней. Туда входит как диагностический так и лечебный блок. В диагностическом блоке будут проведены осмотр врача-терапевта 3 раза и врача узкого специалиста 1 раз за период пребывания пациента. В первый и последний день терапии проведется опрос с целью определения психоэмоционального состояния пациентов с помощью шкалы личностной и реактивной тревожности Спилбергера -Ханина (Ханин Ю.Л., 1976) и самоопросника САН (самочувствие-активность-настроение) согласно рекомендациям Е.А.Дружининой (1994). А также ежедневное измерение артериального давления пациента 2 раза в день с записями показателей.

В лечебном блоке предусматривается ежедневное диетическое питание, прием минеральных вод, лечебные ванны и ароматерапия, фитотерапия и физиотерапия.

**Выводы:** Данное исследование показало, что среди пациентов санаторно-курортного учреждения основную группу составляют пациенты с заболеваниями системы кровообращения, в частности, артериальной гипертензией. На основе полученных данных разработана программа санаторно-курортного лечения для пациентов с артериальной гипертензией, включающая диагностический и лечебный блоки. Данная программа направлена на улучшение физического и психоэмоционального состояния пациентов, снижение артериального давления и профилактику осложнений.

#### **Литература:**

1. Бюро Национальной Статистики, 2022 URL: <https://stat.gov.kz/ru/industries/social-statistics/stat-medicine/publications/6409/>
2. Татьяна Бурдель, «ДЕНСАУЛЫК» - ТЕРРИТОРИЯ ЗДОРОВЬЯ. 2020

## “QURUQ KO’Z” SINDROMINI EKSPERIMENTAL MODELLASHTIRISH USULLARI

Sh.Z.Qodirova

Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot instituti, Eksperimental va sport farmakologiyasi  
yo’nalishi 1-bosqich magistranti  
Tel.:+998972990905

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda axborot texnologiyalari rivojlanishi va atrof-muhitning ifloslanishi aholi orasida ko’z kasalliklari ortib borishiga olib kelmoqda. Xususan, “Quruq ko’z” sindromi kasalligi ham bolalardan tortib jamiyatning barcha bo’g’inlari orasida kuzatilmoqda. Ushbu tezisda aynan mazkur sindromni modellashtirish usullari keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** “Quruq ko’z” sindromi, axborot texnologiyalari, 1% li atropin sulfat eritmasi

“Quruq ko’z” sindromi - shox parda va kon’yunktivaning yallig’lanishi sifatida namoyon bo’ladigan oftalmologik patologiya. So’nggi yillarda kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli kasallik kuzatilish darajasi ortmoqda.<sup>[1]</sup>

**Dolzarbli:** Turli oftalmologik jarrohlik amaliyotlari, atrof-muhitning ifloslanishi va axborot texnologiyalarining shiddat bilan kirib kelishi jamiyatda “Quruq ko’z” sindromining tarqalishiga sabab bo’lmoqda. Muhim jihati shuki, inson bu sindromni sezmaydi va natijada turli og’ir kasalliklarga olib keladi.

**Material va usullar:** S.Burgalassi va boshqalar[2] taqdim etgan modellashtirish usulidan foydalanib laboratoriya quyonda sindrom chaqirildi. Bunda quyon ko’ziga 1% li atropin sulfat eritmasi pipetka yordamida har kuni tomizildi. Tomizishdan oldin har ikkala ko’z o’lchami aniqlandi, so’ngra ko’zning dastlabki holatini taqqoslash maqsadida rasmga olindi. Ko’zdagi kundalik o’zgarishlar qayd etilib, tegishli usullar yordamida taqqoslandi. Model 14 kun davomida chaqirilib ko’zlangan maqsadga erishildi[3].

**Natija:** Atropin sulfat eritmasi bilan chaqirilgan model bir kunda ko’z yoshi ishlab chiqarishni sezilarli darajada kamaytirdi, 14 kunda esa sindrom aniq namoyon bo’ldi. Tahlillar orqali tekshirilganda model chaqirilgani aniqlandi.

**Xulosa:** “Quruq ko’z” sindromini eksperimental modellashtirish maqsadida adabiyotlar o’rganilganda bir qancha usullar orasidan aynan 1% li atropin sulfat eritmasi bilan chaqirilgan model o’zgarishning sezilarli darajada namoyon bo’lishi va qisqa muddatda chaqirish mumkinligi bilan ajralib turdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Qodirova, S. Z. (2023). TOBORA YOSHARIB BORAYOTGAN KO’Z KASALLIKLARI. Conferencea, 29-30.
2. Burgalassi S., Panichi L., Chetoni P., Saettone MF, Boldrini E. Albinos quyonda oddiy quruq ko’z modelini ishlab chiqish va ba’zi ko’z yoshi o’rnini bosuvchi moddalarni baholash. Oftalm. Res. 1999; 31: 229-35.
3. Sh.Z.Qodirova, S.A.Saidov, R.R.Qo’chqorova “QURUQ KO’Z” SINDROMINI EKSPERIMENTAL MODELLASHTIRISH USULLARI. ILM-FAN VA INNOVATSIYA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI.2024; 97-100

4. Sh.Z.Qodirova, S.A.Saidov, R.R.Qo'chqorova «QURUQ KO'Z»SINDROMI: PROFILAKTIKA VA DIAGNOSTIKA» ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI BEKE.2023;49-52

5. <https://medikom.ua/ru/sindrom-suhogo-glaza-simptomu-lechenie/>

## SHIKASTLANGAN TERINI TIKLOVCHI *REGENE-PLAST* PLASTIRLARI

Maxamadjonov K.N.,<sup>1</sup> Turayeva X.K.<sup>2</sup>

1. Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti

Sanoat farmatsiya yo'nalishi 3-kurs 301-guruh talabasi, e-mail; [kozimjonmaxamadjonov01@gmail.com](mailto:kozimjonmaxamadjonov01@gmail.com), tel; +998974106041

2. Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti, Organik va biologik kimyo kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

**Annotatsiya:** shikaslangan terini tiklovchi Regena-plast plastirlari yallig'lanish va terining regeneratsiya qilish xususiyati bilan samarali ta'sir qilishi, terida chandiq qoldirmasligi va normallantirishi ko'rildi. Antibakterial va bakteritsid ta'sirga ega, yangi yallig'lanishlar paydo bo'lishining oldini olishi shuningdek, qichishishni yumshatishi va engillashtirishi asoslandi. Kislotasimon muvozanatni tiklaydi, hujayra ichidagi regeneratsiya jarayonlarini boshlaydi. Plaster terini intensiv ravishda namlaydi va suvsizlanishdan, tashqi omillardan (chaglardan) himoya qiladi.

**Kalit so'zlar:** *REGENE-PLAST* plasterlar, shikaslangan teri, biologik faol moddalar, aloe vera geli, moychechak ekstrakti, arnika ekstrakti.

**Kirish:** Terini tiklovchi va davolovchi turli vositalar bir qancha sohalarda, jumladan, tibbiy, kosmetika va terapevtik dasturlarda katta ahamiyatga ega. O'tkir yaralar va kuyishlarni davolashdan tortib surunkali teri kasalliklarini davolash va qarishga qarshi ta'sirni kuchaytirishgacha, bunday vositalarning sharti esa maksimal va tez samaradorlik bilan ko'p qirrali echimlarni talab qiladi. Sohadagi kelajakdagi ishlar terining individual turlariga va o'ziga xos terapevtik ehtiyojlarga moslashtirilgan vositalarni, shuningdek, yuqori samaradorlik va aniqlik uchun sun'iy intellekt va biomateriallar kabi rivojlanayotgan texnologiyalarni birlashtirishni talab qilishi mumkin. Terini tiklovchi va davolovchi samarali vositalarni ishlab chiqarish biologiya, kimyo va tibbiyot sohaslarini birlashtirgan puxta tashkil etilgan jarayondir.

**Maqsad:** Shikaslangan terini tiklash va davolash uchun innovatsion yechim sifatida *REGENE-PLAST* plasterlar asosida to'qimalarni tiklash va yoshartirishni rag'batlantirishdagi samaradorligini oshirish.

**Natija:** Biologik faol ingredientlar: Ushbu plasterlarning o'zagida shikaslangan terining yangilanishiga va tiklanishini qo'llab-quvvatlaydigan o'ziga xos xususiyatlarga ega bioaktiv ingredientlar mavjud. Ular sog'lomlashtirish uchun zarur bo'lgan hujayra faoliyatini oziqlantirish, himoya qilish va rag'batlantirish qobiliyati uchun ehtiyotkorlik bilan tanlangan tabiiy ekstraktlar, peptidlar, antioksidantlar va vitaminlarni o'z ichiga oladi.

Plasterlar asosida shikastlangan terini tiklash va davolash samaradorligi shundan iboratki, terini tiklovchi biologik faol moddalarning kirib borishi va teriga chuqurroq so'rilishini osonlashtiradi shuningdek, shikastlangan terini mehanik tashqi omillardan himoyalaydi, bu esa optimal terapevtik effektlarni va maqsadli biologik faol moddalarni to'qimalarda uzoq vaqt ushlab turish imkonini beradi.

Bunday plasterlarni ishlab chiqarish jarayonida terini tiklovchi va davolovchi plaster ishlab chiqarish tizimli yondashuvga amal qiladi, bunda faol moddalarni terapevtik xususiyatlari va mosligi asosida tanlash va tavsiflashdan boshlanadi.

Plasterlarni ishlab chiqarishning dastlabki texnik jarayoni kerakli moddalar konsentratsiyasining aniq o'lchovlari va ingredientlarning mutanosibligini o'z ichiga oladi. Shikastlangan terini tiklovchi plasterlarning xavfsizligi, samaradorligi va mustahkamligini ta'minlash uchun barcha ishlab chiqarish jarayonida sifat nazorati katta ahamiyatga ega. Bunda xomashyo, zarur mahsulotlar kerak va gigienaga amal qilish muhim bo'ladi. Plasterlarning biologik faolligini va samaradorligini baholash uchun *in vitro* va *in vivo* tadqiqotlar o'tkaziladi, bu ularning teridagi yarani davolashni rag'batlantirish, yallig'lanishni kamaytirish va terining yaxlitligini yaxshilash qobiliyatini tasdiqlaydi. Yakuniy mahsulot xavfsizlik, samaradorlik va me'yoriy standartlarga javob berishini ta'minlash uchun sifat nazorati muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish jarayonida sifat nazorati testlari, tekshiruvlar va so'rovnomalar o'tkaziladi.

Plasterlarning tarkibiga kiritilgan bir nechta o'simlik ekstraktlari terining yangilanishida shifo berishi o'rganilgan. Terini parvarish qilish vositalarida regenerativ va shifobaxsh xususiyatlari uchun tez-tez ishlatiladigan o'simlik ekstraktlari qo'shilgan: Aloe vera geli, Moychechak ekstrakti, Kurkuma, Mavrak

**Hulosa:** Terini qayta tiklashning asosiy yondashuvlari va muhokamasini umumlashtirsak, ayniqsa teri plasterlari texnologiyasidagi so'nggi yutuqlarga, shu jumladan tadqiqotda va hozirda mavjud bo'lgan tijoratlashtirilgan mahalliy mahsulotlarga, shuningdek turli xil teri shikastlanishidan kelib chiqadigan jarohatlarni davolash uchun plasterlar yordamida klinik sinovlar bo'yicha qidiruvni o'z ichiga olamiz va klinik qo'llanilishi mumkin bo'lgan teri plasterlarining biotexnologiyasining kelajakdagi tendentsiyalarini taklif qilamiz. Shikastlangan terini parvarish qilish uchun mahalliy ishlab chiqarish imkoniyatlarining mavjudligi mamlakatning importga qaramligiga ta'sir qilishi asnosida, kosmetika sanoati va mahalliy ishlab chiqarish korxonalari yaxshi rivojlangan mamlakatlar terini parvarish qilish uchun import qilinadigan mahsulotlarga, shu jumladan terini tiklovchi boshqa vositalarga kamroq qaram bo'lishi mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ziyayeva M.F., Khodjasheva M.D., Kasimova D.I., Khamedova M.A., Ochilov O.B. Nursing care in adults. Part 1. - T.: Niso Polygraph Publishing House, 2014.
2. Yusupova L.Yu., Burikhodjayeva H.S., Shadiyeva Sh. Nursing care in adults. Section 3. - T.: "Science and Technology" Publishing House, 2012.
3. Barykina N.V., Zaryanskaya V.G. Nursing in surgery. - RostovnaDon: "Phoenix", 2010.

4. Yunusjonova Z.S., Mirzayeva S.A., Basitxonova E.I. Psychological care. "National Society of Philosophers of Uzbekistan", T., 2010.
5. Нарзикулов Р. М. и др. Новый подход в лечении витилиго //НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ. – 2019. – С. 60

## **EKSTRUZIYA TEXNIKASINI FARMATSEFTIKADA QO‘LLASH**

**Asqarov M.M 1, Karimova M. M. 2.**

**1. Talaba:** Asqarov Miraziz Muhammadjon o‘g‘li EMU UNIVERSITY Farmatsevtika fakulteti, Toshkent sh. 1 - kurs, 102 A - guruh.

e-mail: [askarovmiraziz777@gmail.com](mailto:askarovmiraziz777@gmail.com), Tel: +998 33 417 10 06

**2. Ilmiy raxbar:** Karimova Muxabbat Maratovna EMU UNIVERSITY Ijtimoiy fanlar kafedrasida Lotin tili katta o'qituvchisi.

**Izoh:** Biz ushbu izlanishlarimiz bilan vatanimizning farmatsevtika sanoatini rivojlanishini, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining rivojlangan davlatlarning farm sanoatlarida ishlab chiqarilgan dori vositalari bilan bimalol raqobat qila olishini istaymiz.

**Kalit so‘zlar:** Ekstruziya, Qattiq dori vositalarida Ekstruziya, Dorilarning Achchiqligini yo‘qotish.

**Maqsad:** Qattiq dori vositalarini qisqa vaqt mobaynida to'la so‘rilishi hamda organizmga bo‘lgan salbiy ta'sirini kamaytirish.

**Natija:** Ekstruziya - bu dunyo miqyosida tan olingan, mustahkam va samarali texnologiya bo'lib, yomon eriydigan faol farmatsevtik ingredientlarning biologik mavjudligini oshiradi va samarali uzluksiz ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

**Xulosa:** Ekstruziya texnologiyasi plastmassa sanoatidan farmatsevtika ishlab chiqarishiga butunlay aylandi. U farmatsevtika sanoatida katta qiziqish uyg'otdi, chunki u bir nechta uskunalari va jarayon modifikatsiyalari bilan turli xil ilovalar uchun dozalash shakllarini doimiy ravishda ishlab chiqishga imkon beradi.

### **Adabiyotlar:**

- 1.Koutsamanis I, Roblegg E, Spoerk M. Controlled delivery via hot-melt extrusion.
- 2.Crowley MM, Zhang F, Repka MA, Thumma S, Upadhye SB, Battu SK, et al. Pharmaceutical applications of hot-melt extrusion.
- 3.Repka MA, Battu SK, Upadhye SB, Thumma S, Crowley MM, Zhang F, et al. Pharmaceutical applications of hot-melt extrusion.
- 4.Kallakunta VR, Sarabu S, Bandari S, Tiwari R, Patil H, Repka MA. An update on the contribution of hot-melt extrusion technology to novel drug delivery in the twenty-first century

## **ACNE VULGARISNI DAVOLASHDA DORIVOR O‘SIMLIKLARNING AHAMIYATI**

**Mahamadjonov K<sup>1</sup>, Sagdullayeva B.O.<sup>2</sup>**

1. Toshkent sh., Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti 21SF-2 guruhi talabasi, [mahamadjonov@gmail.com](mailto:mahamadjonov@gmail.com), tel: +998900612804



2. Toshkent sh., Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti, Tibbiy-biologik fanlar kafedrası assistenti, PhD

**Annotatsiya.** Akne - bu terining yog' bezlarining aktivlashishi, yog' bezlarining kattalashishi va tiqilib qolishi bilan bog'liq kasallik. Teridagi yog' bezi tiqilib qolgan joyda bakteriyalar ko'payishni boshlaydi. Bakteriyalar bu joyda yallig'lanish va husnbuzarlarini keltirib chiqaradi. Acne vulgaris - yuz, orqa, tananing turli joylarida lokalizatsiyalangan yog' follikulyar apparatining eng keng tarqalgan yallig'lanishli, surunkali, qaytalanuvchi kasallik. Turli darajadagi akne 12 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan odamlarning 80-85% da va 25 yoshdan kattalarning 11% da uchraydi.

**Kalit so'zlar:** Acne vulgaris, Propionibacterium acnes, Staphylococcus epidermidis, teri kasalliklari, dorivor o'simliklar

**Maqsad:** Adabiyotlar ma'lumotlari asosida Acne vulgarisni davolashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan dorivor o'simliklarni o'rganish.

**Natijalar:** Acne vulgaris teri kasalliklari orasida dunyodagi eng keng tarqalgan dermatologik kasalliklardan biridir [1; 5]. Odatda inson hayoti davomida deyarli har bir kishida uchraydi. Akne patogenezi murakkab bo'lib, quyidagi asosiy to'rtta omilga bog'liq: yog' bezlari faoliyatining androgen gormonlar ta'sirida faolligining oshishi, follikulyar giperkeratinizatsiya, Propionibacterium acnes bakteriyasining (teri mikroflorasining normal tarkibiy qismi bo'lgan anaerob bakteriya) kolonizatsiyasi va yallig'lanish [6]. Androgen gormonlar ta'siri tufayli yog' bezlari tomonidan ishlab chiqarilgan yog' miqdorining yuqoriligi Propionibacterium acnes bakteriyasining teri bezlari kanallarida ko'payishiga olib keladi va bu proliferatsiya yallig'lanishga qarshi sitokinlar, interleykin-1b (IL-1 b), IL-8, granulotsit-makrofag koloniya stimulyatsiyalovchi omilning (GM-CSF), o'simta nekrozi omili  $\alpha$  (TNF- $\alpha$ ) va komplement hosil bo'lishiga olib keladi. Propionibacterium acnes bakteriyasi bilan bir qatorda, asosiy kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar sifatida, aknelarda Pityrosporum ovale va Staphylococcus epidermidis ham mavjud. Akning 3 turi mavjud: komedonal, nodulyar va papulopustulyar. Komedonal turdagi akne yallig'lanishsiz, nodulyar va papulopustulyar turdagi akne esa yallig'lanish bilan kechadi [2]. Akne vulgarisni davolash uchun turli xil dori-darmonlar mavjud, shu jumladan antibiotiklar, retinoidlar va gormonal terapiya.

Tabiiy dori vositalaridan, xususan, o'simliklardan foydalanish ming yillar oldin boshlangan. So'nggi o'n yil ichida mavjud mikroblarga qarshi vositalarga ularning chidamliligining oshishi, nojo'ya ta'sirlar va ba'zan davolashning yuqori narxini hisobga olgan holda, dorivor o'simliklarga qiziqish tobora ortib bormoqda.

Abies koreana efir moyi dorilarga sezgir va chidamli Propionibacterium acnes va Staphylococcus epidermidisga qarshi kuchli antibakterial ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, Abies koreana efir moyi TNF- $\alpha$ , IL-1 $\beta$ , IL-6, azot oksidi (NO) va prostaglandin E2 (PGE2)ning lipopolisaxarid tomonidan induksiya qilingan sekretsiasini kamaytiradi, bu Abies koreana efir moyining yallig'lanishga qarshi ta'sirini ko'rsatadi [7]. Ammonia baccifera, Hibiscus syriacus, Quercus infectoria, Berberis aristata, Couroupita guianensis, Symplocos racemosa va Mucuna pruriens kabi ba'zi hind dorivor o'simliklari mukammal antibakterial ingibirlovchi ta'sirga ega.

Бундан ташқари, *Symplocos racemosana*ning etanol ekstrakti antibakterial alkaloidlari mavjudligi tufayli eng yuqori faollikka ega. *Hemidesmus indicus*, *Coscinium fenestratum*, *Tephrosia purpurea*, *Euphorbia hirta*, *Symplocos racemosa*, *Curcubito pepo* va *Eclipta alba* *Propionibacterium acnega* qarshi kuchli ingibitiv ta'sirga ega ekanligi aniqlandi [3; 4].

**Xulosa:** O'rganilgan adabiyotlar turli darajadagi akne 12 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan odamlarning 80-85% da uchrashi va kasallikning asosiy sabablaridan biri mikroorganizmlar ekanligini ko'rsatdi. *Acne vulgaris*ni davolashda *Abies koreana* efir moyi, *Ammonia baccifera*, *Hibiscus syriacus*, *Quercus infectoria*, *Berberis aristata*, *Couroupita guianensis*, *Symplocos racemosa*, *Mucuna pruriens*, *Hemidesmus indicus*, *Coscinium fenestratum*, *Tephrosia purpurea*, *Euphorbia hirta*, *Curcubito pepo* va *Eclipta alba* kabi dorivor o'simliklar samarali ekanligi aniqlandi.

#### Adabiyotlar:

1. Анисимова М. Ю. Акне (acne vulgaris) с позиции доказательной медицины // Вестн. репр.. 2010. №3-4. С 14-23.
2. Feldman S., Careccia R.E., Barham K.L., Hancox J. Diagnosis and treatment of acne // *Am Fam Physician*, 69 (2004), pp. 2123-2130
3. Hanieh Azimi, Mehrnaz Fallah-Tafti, Ali Asghar Khakshur, Mohammad Abdollahi. A review of phytotherapy of acne vulgaris: Perspective of new pharmacological treatments // *Fitoterapia*. Volume 83, Issue 8, 2012, Pages 1306-1317. ISSN 0367-326X. <https://doi.org/10.1016/j.fitote.2012.03.026>.
4. Kumar G.S., Jayaveera K.N., Ashok C.K., Sanjay P.U., Swamy B.M.V., KishoreKumar D.V. Antimicrobial effects of Indian medicinal plants against acne-inducing bacteria // *Trop J Pharm Res*, 6 (2007), pp. 717-723
5. Scheinfeld N.S. Acne: a review of diagnosis and treatment // *P & T*, 32 (2007), pp. 340-347
6. Toyoda M., Morohashi M. Pathogenesis of acne // *Med Electron Microsc*, 34 (2001), pp. 29-40
7. Yoon W.J., Kim S.S., Oh T.H., Lee N.H., Hyun C.G. *Abies koreana* essential oil inhibits drug-resistant skin pathogen growth and LPS-induced inflammatory effects of murine macrophage // *Lipids*, 44 (2009), pp. 471-476
8. ВОЗ. Рост числа случаев скарлатины и инвазивной стрептококковой инфекции группы А – данные по нескольким странам. 15.12.2022. <https://www.who.int/ru/emergencies/disease-outbreak-news/item/2022-DON429>
9. Санталова Г.В., Лебедев П.А., Гаранин А.А., Лямин А.В., Кузин М.Э. Кардиальные и некардиальные проявления инфекции, вызванной  $\beta$ -гемолитическим стрептококком группы А. *РМЖ. Мать и дитя*. 2022;5(1):63-71. DOI: 10.32364/2618-8430-2022-5-1-63-71.
10. Матиевская Н.В. Инвазивная инфекция, вызванная  $\beta$ -гемолитическим стрептококком группы а: этиология, эпидемиология, клиника, диагностика, лечение // *Медицинские новости*. 2017. №9. С. 21-25.

## **ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИНИНГ ЁПИҚ ХОНАЛАРИ ҲАВОСИНИНГ МИКРОБИОЛОГИК ҲОЛАТИ**

**Кенжаев Қ.Ю.<sup>1</sup>, Расулова В.Б.<sup>2</sup>, Сагдуллаева Б.О.<sup>3</sup>**

1. Тошкент ш., Фармацевтика таълим ва тадқиқот институти, 310-гуруҳ талабаси, e-mail: [kenjayevquvonchbek66@gmail.com](mailto:kenjayevquvonchbek66@gmail.com), тел.: +998942765006
2. Тошкент ш., Фармацевтика таълим ва тадқиқот институти, Тиббий-биологик фанлар кафедраси мудири, доцент
3. Тошкент ш., Фармацевтика таълим ва тадқиқот институти, Тиббий-биологик фанлар кафедраси ассистенти, PhD

**Аннотация:** Ҳаво микроорганизмларнинг ривожланиши учун ноқулай муҳит ҳисобланади. Ҳавонинг ифлосланиш даражаси кўп сонли турли омилларга боғлиқ. Йилнинг иссиқ вақтида, қуруқ ва намлиги паст ҳавода микроблар сони совуқ ва нам ҳавога нисбатан кўп бўлади. Шунингдек, қишлоқ ҳавосига нисбатан шаҳар ҳавосида, тоғларга нисбатан текисликларда ҳамда очиқ жойларга нисбатан ёпиқ хоналар ҳавоси таркибида микроорганизмлар сони кўп бўлади [1; 5].

Ҳаво микрофлораси таркибида асосан кокклар (стафилококклар, стрептококклар, сарциналар), сапрофит бактериялар ва замбуруғлар учрайди. Инсон организми нормал микрофлораси, асосан ёпиқ бинолар ҳавосида тўпланади. Патоген микрофлора йўталаётганда ёки аксирганда ҳавога ажралади. Ҳавода аэрозоллар шаклида ўткир респираторли инфекциялар, грипп, дифтерия, кўк йўтал, сил, қизамиқ ва бошқа кўзгатувчилар бўлиши мумкин. Патоген микроорганизмлар асосан ҳажми 1-100 микронгача бўлган чангда қуритилган заррачалар шаклида учрайди [4].

Ҳаво микрофлораси таркибидаги патоген микроорганизмларнинг салбий таъсири аввало педагог-ўқитувчиларга кўпроқ таъсир қилади, чунки талабалар олий таълим муассасаларида 6-7 соатдан ортиқ вақт давомида бўлсалар, педагоглар ҳар куни 8 соат ва ундан кўп вақтларини иш жойларида ўтказадилар. Шунингдек талабаларда аудиториялар кун давомида мунтазам алмашиб туради, лекин педагоглар кўп вақтини айнан бир аудиторияда ўтказди. Шундай қилиб, олий таълим муассасаларида аудиториялар ва ёрдамчи хоналарнинг ҳаво микрофлорасини ўрганиш долзарб ҳисобланади.

**Калит сўзлари:** ҳаво микрофлораси, седиментацион усул, стафилококклар, сарциналар, замбуруғлар.

**Мақсад.** Тадқиқот мақсади – Фармацевтика таълим ва тадқиқот институти (ФТТИ) ёпиқ хоналари ҳавосининг микробиал таркибини седиментация усули ёрдамида ўрганиш.

**Натижалар.** Тадқиқотда ФТТИ Тиббий-биологик фанлар кафедраси ўқув аудиторияларининг, ошхона, 1- ва 2-қаватлар коридорларининг, кутубхона, гардероб, талабалар турар жойи хонаси ва ФТТИга кўчадан кириш жойи ҳавосининг микрофлораси гўшт-пептон агар озуқа муҳитига седиментация қилиш усули билан ўрганилди [2; 3]. Олинган натижаларга кўра ошхона, 2-қават коридори, кутубхона ҳамда микробиология хонаси аудиториясида ҳавонинг

умумий микроблар сони 250 КХҚБ/м<sup>3</sup> дан кам эканлиги, ҳаво сифати тозаллиги аниқланди. ФТТИга кўчадан кириш жойи, гардероб, 1-қават коридори, талабалар турар жойи хонаси ва анатомия хонаси аудиториясида ҳаво микрофлорасининг умумий сони 500 КХҚБ/м<sup>3</sup> дан ортиқлиги, ҳаво сифатига кўра ифлосланган эканлиги аниқланди.

Шундан сўнг ундирилган колониялар Грам усулида бўйб, микроскопда кўрилди. Текширилган хоналарнинг ҳавоси микрофлораси таркибида энг кўп учровчи микроорганизмлар стафилококклар, сарциналар, ачитқи ва моғор замбуруғлари эканлиги аниқланди.

**Хулоса:** Олинган натижаларга кўра ФТТИ ошхонаси, 2-қават коридори, кутубхона ҳамда микробиология хонаси аудиториясида ҳаво сифати тозаллиги, ФТТИга кўчадан кириш жойи, гардероб, 1-қават коридори, талабалар турар жойи хонаси ва анатомия хонаси аудиториясининг ҳавоси эса микроблар билан ифлосланганлиги аниқланди. Ундирилган микроорганизмларнинг энг кўп қисмини стафилококклар, сарциналар, ачитқи ва моғор замбуруғлари ташкил қилди. Ҳаво сифатини яхшилаш учун танаффусларда хоналарни шамоллатиш, дезинфекцияловчи эритмалар билан хоналарни намли тозалаш тавсия этилади.

#### **Адабиётлар.**

1. Бакулина Н.А., Краева Э.Л. Микробиология.- М.: Медицина, 1980.- 338 с.
2. Лабинская А.С. и др. Общая и санитарная микробиология с техникой микробиологических исследований /Учебное пособие /под ред. А.С. Лабинской, Л.П. Блинковой, А.С. Ещиной. – М.: «Медицина». – 2004. – 576 с. – ISBN 5-225-04654-1.
3. Лабинская А.С. и др. Руководство по медицинской микробиологии. Общая и санитарная микробиология. /Книга 1 /под ред. А.С. Лабинской, У.Г. Волиной. – М.: «Бином». – 2008. – 1080 с. – ISBN 978-5-9518-0264-4.
4. Лаптандер М. А. Определить степень загрязнения воздуха в учебных помещениях методом Коха /М. А. Лаптандер, Ж. У. Касенова. — Текст : непосредственный //Юный ученый. — 2017. — № 3.1 (12.1). — С. 47-50.
5. Федоров М.В. Микробиология. – М.: Гос. Изд-во сельхозлитературы, 1960.– 350 с.

### **QANDLI DIABET MODELIDA TERI SHIKASTLARINING REGENIRASIYASIGA TA’SIR ETUVCHI SURTMANI TEKSHIRISH**

Abdullayev Abror Mirzoanvar o`g`li, Rasulova Vasila Botirovna, Mirsultonov  
Jahongir Azadovich

1. Toshkent sh, Farmatsevtika ta`lim va tadqiqot instituti 1-kurs talabasi  
e-mail;abrorjon.abdullayev@bk.ru tel;+998970036112Toshkent sh,  
Farmatsevtika ta`lim va tadqiqot instituti dotsenti (ilmiy rahbar).
2. Toshkent sh, Farmatsevtika ta`lim va tadqiqot instituti katta ilmiy hodimi.

**Аnotасија:** Hozirgi kunda qandli diabetga chalingan bemorlarda har xil jarohatlar natijasida kelib chiqqan yallig`lanish yara bitish jarayoni normal organizmga nisbatan kech bitishi yoki uni ayanchli holatlarga olib kelib, holat gongrena bilan tugashi barchamizga ma`lum. Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma`lumotlarga ko`ra qonda qand miqdorini yuqori bo`lishi natijasida xujayralarda jarayon doimiy ravishda sust kechadi. Shu omillari ta`sirida bo`lgan organizmlar kasalliklarga chalinuvchan va davolanish chora tadbirlarining samarasi past bo`lishi ta`kidlanmoqda.

**Shu ma`lumotlarga asoslangan xolda ishning maqsadi:** Alloksan yordamida Qandli diabet modellashtirilgan organizmlarning kasallikni kechishini aniqlash va unga ta`sir etuvchi samarali preparatlarni qo`llashda individual yondashuv choralari qo`llash maqsad qilib olindi.

**Kalit so`zlar:** yallig`lanish, gongrena glyukoza, klinik oldi tadqiqotlar, farmakologiya.

Ayrim axborotlar aniq shaxs uchun qiziqarli bo‘lsa, muayyan ijtimoiy qatlam yoki guruh uchun ahamiyatsiz. Shuningdek, axborot makon va zamon xususiyatlariga ham ega. G‘arbda o‘ta ommabop bo‘lgan axborotlar Sharq xalqlari tomonidan kam iste’mol qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ma’lum bir davrda katta qiziqish bilan kutib olingan ma’lumotlar vaqt o‘tishi bilan odatiy holga aylanadi. Lekin axborot kim tomonidan iste’mol qilinishidan qat’iy nazar, axborot iste’moli madaniyatiga rioya qilinishi va u insoniyat ma’naviy hayotining tarkibiy qismiga aylanishi zarur. Axborot iste’moli madaniyati globallashuv jarayonlarining xarakterli xususiyatlaridan biri bo‘lgan, Internet tarmog‘i jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Zarur axborotlarga ega bo‘lishga intilish – davr talabi. Biroq, axborotlarga ko‘r-ko‘rona ergashish, ularni noto‘g‘ri talqin etish, G‘arbdan kirib kelayotgan “ommaviy madaniyat”ga taqlid qilish aslo mumkin emas. Internet orqali juda ko‘p ijobiy ma’lumotlar bilan birga, Sharq madaniyatiga, xususan, yoshlarning axloq-odobiga salbiy ta’sir etuvchi axborotlar ham kirib keladi. Bularning oldini olish uchun, kishilarda, ayniqsa, yoshlarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirib borish lozim. Buning uchun tarmoqdan illat qidirish emas, balki uning imkoniyatlaridan yurtimiz shon-shuhratini dunyo miqyosida keng yoyish yo‘lida foydalanish zarur. Yoshlar ongida miliy g‘oya, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, turli yot g‘oyalarga ko‘r-ko‘rona ergashishning salbiy oqibatlari haqida tushunchalar berib borish maqsadga muvofiqdir. Biz farzandlarimizni ma’lumotdan, axborotdan cheklay olmaymiz, balki uni tahlil qilishni o‘rgata olish imkoniyatiga egamiz. Buning uchun ota-ona sifatida bizning o‘zimizda axborot madaniyati, ma’lumotlarni saralash uquvi bo‘lishi zarur. Qachonki, ota-onalar o‘z farzandlariga axborotni ijobiy saviyada, salomatligini tiklashga, ruhiyatini sog‘lomlashtirishga, ma’naviy kamolotini e’tiborga olib murojaat qilishga o‘rgatar ekanlar, ularni ko‘r-ko‘rona turli ma’lumotlar ta’siriga tushib qolish, unga taqlid qilish xavfidan himoyalay olgan bo‘ladilar va ijtimoiy immunitetni shakllantirgan bo‘ladilar. Axborot iste’moli kim tomonidan iste’mol qilinishidan qat’iy nazar, qabul qilish, tushunish, talqin etish kabi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bosqichlarda amalga oshadi. Ayniqsa, inson yosh davrlari ichida eng murakkab davr hisoblangan o‘smirlik davrida yoshlar tomonidan turli axborotlarni hech qanday to‘siqsiz, oson qabul qilinishi natijasida ularning turli norasmiy ma’lumot va axborotlarga ko‘rko‘roni ergashib ketish holatlari ko‘proq kuzatiladi. Bunda ota-onalar, ta’lim muassasalari, keng jamoatchilik birdek mas’ul. Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, turli sport va fan to‘garaklari, turli tadbirlar, eng asosiysi yoshlar taqdiriga befarq bo‘lmaslik muhimdir. Muxtasar aytganda, Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun

yo hayot – yo mamot, yo najot – yo falokat, yo halokat, yo saodat – masalasidir”, degan so‘zlarini yoshlar tarbiyasida dasturilamal qilib olish lozim.

O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni 15-moddasida Milliy axborot tizimiga davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari kiradi. Milliy axborot tizimi uning tarkibiga kiruvchi axborot tizimlarining xalqaro axborot tizimlari bilan bir-biriga mosligini hisobga olgan holda yaratiladi. Hozirgi davrda fan va texnikada ko‘p qo‘llaniladigan tushunchalardan biri tizimdir. Axborot tizimini ishlab chiqarishdan maqsad – tashkiliy loyihalashtirish, texnologik va hakozi jihatlarini hisobga olgan holda tizim faoliyatining samaradorligini oshirishdir.

**Xulosa:** Texnologiya foydali xizmatkor ammo xavfli xo‘jayindir. Yani texnologiya hayotimizda foydalanishimiz uchun juda kerakli narsa va juda ko‘p ishlarimizni yengillashtiradi. Ammo uning salbiy tomonlari biz o‘ylagandanda ko‘p. Yani xavfli xo‘jayin deb yuqorida keltirdim. Bu degani texnologiya, y‘ani zamonaviy raqamli texnologiyalar bizni juda ham ko‘p salbiy yo‘llarga boshliydi. Bunga hayotimizdan ko‘pgina misollar keltirishimiz mumkin. Texnologiya rivojlangani sari odamlarning mas‘uliyatsizligi tobora ortib boraveradi. Hozirgi kunda kasblarning yoqolib ketishi ham global muammo bo‘lib kelmoqda. Bu nimadan kelib chiqdi deb o‘ylisz? Albatta bular hammasi texnikani rivojlanishidan. Bu narsa bizni kelajagimizga juda katta ta‘siri bor. Odamlar mehnat qilib oylik olib oila boqyotgan kasbidan ayrilishi bu fojia. Odamlar o‘rniga hozir bu ishlarni robotlar qilyapti. Bu narsani insonlar ijobiy qabul qilishlarini holamasdim. Mehr ko‘zda-oqibat masofada degan gap bor, bu bejizga emas. Insonlar bir-biridan shunchaki telefon orqali xabar olayapti bu odamlar orasida oqibat yo‘qolishiga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Axborot psixologik xurujlarga qarshi immunitetni shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar. "ADU" nashriyoti, 2018-yil.
2. "Sharq mutafakkirlari asarlarining dunyo madaniyati va ma'naviyati rivojlanishiga qo'shgan hissalar".
3. Axborot tizimlari R.Alimova, O‘. T, Xaytmatov.

#### **TRANSLATING MEDICAL TERMINOLOGIES IN ANATOMY: DIFFICULTIES AND SUGGESTIONS**

**Mamasoliyeva N.I. <sup>1</sup>, Yuldashev Sh.Z. <sup>2</sup>**

1. Tashkent city, Institute of Pharmaceutical Education and Research, 1<sup>st</sup> year student, 102 group (M.C)

e-mail: [noilamamasoliyeva96@gmail.com](mailto:noilamamasoliyeva96@gmail.com), tel: +998 94 701 64 09

2. Tashkent city, Institute of Pharmaceutical Education and Research, Senior teacher of the department social and humanitarian sciences.

**Annotation.** Given the significance of medical translation, this thesis provides account of major problems and corresponding solutions. It identifies noticeable difficulties of translating medical terms and discussed how experienced translators go about such difficulties.

**Keywords:** medical terminology, translation, challenges, strategies, languages.

**The aim** is determining of clinical terminology on the accurate mode. Because especially in recent decades exchanging tuition among the world is developing. As a result of this scientists and researchers should learn English as world language or translators must know medical words in any other languages. It should also be said, terminology in various professional fields is highly challenging. Translating medical terms poses challenges due to various factors. Firstly, the terminology is not standardized across languages, leading to inconsistencies and difficulties in finding appropriate equivalents. Additionally, the constant expansion of the medical lexicon and the introduction of new concepts require translators to have access to up-to-date online resources for accurate translations. The complexity of medical texts, including the use of specialized terms, metaphors, and acronyms, further adds to the challenges. Moreover, the linguistic differences between languages can result in the need for lengthy paraphrases or alternative explanations to convey the meaning of a term. Translators who are not medically qualified face even greater risks, as mistakes in translation can have serious consequences for patient health and safety. Accurately translating medical terms is crucial. However, relying solely on machine translation tools poses excellent risks to healthcare providers and patients. Inaccuracies in the translated text can lead to grave consequences such as misdiagnosis or incorrect treatment. Therefore, it's imperative to consult with human translators who are well-versed in medical terminology and have expertise in medical localization. Overall, the challenges of translating medical terms require translators to navigate linguistic nuances, stay updated with medical advancements, and ensure accuracy in conveying medical information.

Here are a few key strategies that translators should consider before translating medical terms:

### **Relevant subject matter expertise**

The first key strategy for translating medical terminology with precision is to have a solid foundation in anatomy, physiology, and medical concepts. Understanding the underlying principles of medical science is essential for accurate medical terminology translation services. Knowing the anatomical structure and function of the human body can help in understanding and translating medical terms related to organs, tissues, and physiological processes. Familiarity with medical concepts such as pathophysiology, pharmacology, and disease classifications can also aid in understanding medical jargon and conveying the correct meaning in the target language.

### **Developing a glossary list**

Working on a comprehensive glossary is another strategy to work on for terminology and medical certificate translation. It is important to develop a comprehensive glossary of medical terms in both the source and target languages. A glossary is a tool that contains a list of medical terms along with their corresponding translations or explanations in the target language. Building and maintaining a glossary can be a time-consuming task, but it is a valuable resource for an accurate translation of medical text. It can help ensure consistency and accuracy in translation, especially for frequently



used terms or terms with multiple meanings. The glossary should be updated regularly to include new medical terms and to reflect changes in medical terminology.

### **Working on context**

Furthermore, being aware of the context in which you are using medical terminology is critical for precise translation. Medical terms can have different meanings depending on the context in which people use them. The term “heart failure” can refer to a medical condition in which the heart is unable to pump blood effectively. This may also indicate the termination of the heart’s ability to function altogether. Therefore, it is essential to consider the clinical context. The translators should be aware of these. Moreover, the translators can have better context with the patient’s medical history, and the intended audience when translating medical terminology. Understanding the purpose and scope of the medical certificate translation services can help in selecting the appropriate translation for the given context.

Moreover, it is important to pay attention to the nuances and subtleties of medical terminology. Medical terms have synonyms, acronyms, abbreviations, and homonyms that can create confusion if not translated accurately. The term “MI” can stand for “myocardial infarction,” which is a medical condition commonly known as a heart attack, but it can also stand for “mitral insufficiency,” which is a different medical condition.

**Conclusion.** Taking everything into account, translating medical jargon and terms is a hectic task. Medical translators should ensure they work on certain strategies to translate these medical terms accurately. These may include knowing the working on context and developing a glossary list among others. Otherwise, they must know the horrible consequences of trival error.

### **References**

1. Learoyd.P. Good Manufacturing Practices or ‘GMP’ A Brief Guide, NBS-Scientific and Technical Training STT040, Sept 2005.
2. Huber. L. Validation of analytical methods and procedures. 25.03.2012
3. Правила Надлежащей Производственной Практики (Gmp) Евразийского Экономического Союза. Версия 4.0 от 20.02.2015

## **TRANSLATION PROBLEMS IN THE CONSTRUCTION PROJECT OF A PHARMACEUTICAL PRODUCTION ENTERPRISE BASED ON GMP STANDARDS**

**Maxamadjonov K.N.<sup>1</sup>, Yuldashev Sh.Z.<sup>2</sup>**

**1.** Tashkent city, Institute of Pharmaceutical Education and Research, 3<sup>rd</sup> year student, 301 group (I.P)

e-mail: kozimjonmaxamadjonov01@gmail.com, tel: +998 97 410 60 41

**2.** Tashkent city, Institute of Pharmaceutical Education and Research, Senior teacher of the department social and humanitarian sciences.

**Annotation.** WHO defines Good Manufacturing Practices (GMP) as “that part of quality assurance which ensures that products are consistently produced and controlled to the quality standards appropriate to their intended use and as required by the marketing authorization.”

**Keywords:** GMP, procedure, facility system, bioassays, categories

**Aim.** GMP covers all aspects of the manufacturing process: defined manufacturing process; validated critical manufacturing steps; suitable premises, storage, transport; qualified and trained production and quality control personnel; adequate laboratory facilities; approved written procedures and instructions; records to show all steps of defined procedures have been taken; full traceability of a product through batch records and distribution records; and systems for recall and investigation of complaints.

The guiding principle of GMP is that quality is built in to a product, and not just tested in to a product. Therefore, the assurance is that the product not only meets the final specifications, but that it has been made by the same procedures under the same conditions each and every time it is made. There are many ways this is controlled - validation is that part of GMP that ensures that facility systems, equipment, processes, and tests procedures are in control and therefore consistently produce quality product. Validation is defined as the establishing of documented evidence which provides a high degree of assurance that a planned process will consistently perform according to the intended specified outcomes. Validation studies are performed for analytical tests, equipment, facility systems such as air, water, steam, and for processes such as the manufacturing processes, cleaning, sterilization, sterile filling, lyophilization, etc. There will be a separate validation for the lyophilizer as an equipment item and for the lyophilization process; for the cleaning of glassware and the cleaning of the facility; and for the sterilization process and for the sterility test. Every step of the process of manufacture of a drug product must be shown to perform as intended. Validation studies verify the system under test under the extremes expected during the process to prove that the system remains in control. Once the system or process has been validated, it is expected that it remains in control, provided no changes are made. In the event that modifications are made, or problems occur, or equipment is replaced or relocated, revalidation is performed. Critical equipment and processes are routinely revalidated at appropriate intervals to demonstrate that the process remains in control.

A protocol is a written set of instructions broader in scope than a Standard Operating Procedure (SOP). SOPs are the detailed written instructions for procedures routinely performed in the course of any of the activities associated with pharmaceutical manufacturing. A protocol describes the details of a comprehensive planned study to investigate the consistent operation of new system/equipment, a new procedure, or the acceptability of a new process before it is implemented. Protocols include significant background information, explain the rationale for and the objective of the study, give a full description of the procedures to be followed, set out the parameters to be measured, describe how the results will be analyzed, and provide pre-determined acceptance criteria for making conclusions. Validation studies, stability studies, and clinical studies are examples of written protocols for pharmaceutical manufacturers. Validation protocols are important in ensuring that documented evidence is taken which demonstrates that an equipment item, a system, a process or a method consistently performs at a specified level. Validation of analytical assays is the process of establishing one or more of: accuracy, precision, linearity, range, limit of

detection, limits of quantitation, specificity, and ruggedness as appropriate to the type of assay. For physico-chemical methods there are accepted defined limits for these test parameters. Bioassays are much more variable in outcome and also often use animals and cells in the assay which in themselves are variable, and can have broad acceptance limits. The discussion in this guide is limited to bioassays. Bioassays. There are three broad categories of bioassays which are commonly used for biological products: binding assays, cell-based assays, and whole animal assays. Some complex assays are in more than one of these categories. Binding assays are those that involve the binding of two or more molecules. Immunoassays are an example of this type. Binding assays are used for monitoring a molecule during purification steps and for cleaning validations. Binding assays are not generally considered acceptable for potency assays because the presence of a molecule as determined by a binding interaction is not necessarily an indication of the activity of the molecule. Cell assays are those where the product evokes a measurable response in specific cells: clumping, cell lysis, cell fusion, or generation of a specific detectable chemical. These assays can be more variable than binding assays and must be performed carefully to ensure consistent results. Cell-based assays are often used for potency assays.

**Conclusion.** Completely animal assays are more difficult and involve the care, maintenance and handling of animals. They are time consuming and highly variable. The biological response of an appropriate species to an active drug is compared to the response to a reference product or to uninoculated controls as a measure of activity. These assays are used for pyrogen assays, general safety assays, and potency assays. Because of their expense, the large number of animals used, the time spent, and their variability, completely animal assays for potency are usually only performed for the final product release.

## References

1. Agalloco, J., "Points to Consider" in the Validation of Equipment Cleaning Procedures, Volume 46, No. 5, PDA Journal of Pharmaceutical Science and Technology, 2023
2. Austin P.R., Design and Operation of Pharmaceutical Bio-cleanrooms and Aseptic Areas. Contamination Control Seminars, Michigan, 2024

## **O`ZBEK TILI - TILLAR ICHIDA ENG JOZIBADOR TILLARDAN BIRIDIR Maxmadiyeva Marjona Rustam qizi<sup>1</sup>, Sodiqova Dildor Abdullayevna<sup>2</sup>**

1. Farmatsevtika ta'lim va tatqiqot instituti sanoat fatmatsiya yo'nalishi sf 101 guruh, [marjonamaxmadiyeva9@gmail.com](mailto:marjonamaxmadiyeva9@gmail.com), tel+998885334818
2. Farmatsevtika ta'lim va tatqiqot instituti «Ijtimoiy va gumanitar fanlar» kafedrası katta o'qituvchisi, e-mail: [sadikovadildor18@gmail.com](mailto:sadikovadildor18@gmail.com), tel:+998994372870

### **Annotatsiya:**

Dunyoda barcha jabhalarda rivojlanish, taraqqiyot bo'lgani sari ijtimoiy aloqa vositasi sanalgan tilga munosabat ham o'zgarib boraveradi.

Til – moddiy, ma'naviy merosni saqlash va boyitishning eng kuchli vositasi. YuNeSKO hisob-kitobiga ko'ra, mavjud 7 mingga yaqin tilning yarmi XXI asrda o'zining «so'nggi sohibi»dan ajralishi mumkin. Ba'zi farazlarga ko'ra, asr oxiriga kelib mavjud tillarning 95 foizi o'lik tilga aylanadi. Har oyda dunyo miqyosida ikkitadan til o'layotgani esa dahshatli hodisa!

Har bir millatning boshqa ramzlari qatorida o'z tili bor va bu eng katta boyliklaridan biri hisoblanadi. Har bir inson ona tilimiz rivoji yo'lida o'z hissasini qo'shmog'i darkor. O'zbek tili jozibadorligi, ma'nodorligi, lug'at boyligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. O'zbek tili morfologik qurilishining nazariy talqinini o'z ichiga olgan "Zamonaviy o'zbek tili" sanaladi.

**Kalit so'zlar:** O'zbek tili, ma'naviy meros, ona tili, qadirlash, o'zbek tilini saqlab qolish.

**Maqsad:** O'zbek tili qadirsizlanib borayotganini sababi nimada ekanligini ko'rsatish, o'zbek tili qanchalar jozibali, chiroyli til ekanligini nomoyon qilish va o'zbek tili mavqeyini oshirish.

**Material va metodlar:** Hammamizga ma'lumki, dunyoda etti mingga yaqin til bor, ammo shularning ikki yuztasigina davlat tili maqomiga ega. Ularning orasida o'zbek tilining borligi esa tilimizning naqadar buyukligi, jozibadorligi, jahon hamjamiyatida ham o'zining munosib o'rniga ega ekanligini anglatadi. Ammo ana shu buyuklikning qadriga hamma birdek yetishi lozim.

Keyingi paytlarda “O'zbek tili inqirozga yuz tutmoqda”, “Ona tilimiz halokat yoqasiga kelib qolgan” qabilidagi gaplar ham quloqqa chalinmoqda. Lekin Oybek, G'. G'ulom, A. Qahhor, O. Yoqubov, P. Qodirov, A. Oripov, E. Vohidov, O. Matjon kabi qator so'z ustalari yaratgan, yaratayotgan dilbar asarlar, ularning tili bu qarashni ma'lum darajada inkor etadi. Albatta, adolat yuzasidan aytish kerakki, tilimiz imkoni bor joylarda rivoj va sayqal topib borgan bo'lsa-da, uning ish ko'rish va faoliyat doirasi o'ta chegaralanib qolgan edi. Ha, o'zbek tilining qadri juda tushib ketdi. Birgina uning rasmiy-ish uslubi olib ko'rilsa ham, shunga amin bo'lish mumkin. 20-yillarda rus tilidan andoza olish tufayli shamoyil topgan “Ushbu spravka berildi shul haqdakim, haqiqatdan ham bul o'rtoq shul joyda yashab turadi” tarzidagi noo'zbekcha ma'lumotnoma-hujjatlar hamon yozib kelinmoqda. O'zbek tilining shirasi, go'zalligi, jozibasi, nazarimda, badiiy adabiyotdagina saqlanib qolgan. Ayni chog'da, uning uy-ro'zg'or tiliga aylanib qolganligini taassuf bilan ta'kidlash kerak.

**Natija:** O'zbek tilini qadirlaymiz, tilimiz haqida ko'p malumotlarga ega bo'lamiz, o'zbek tili nufuzini oshiramiz, tilimizning leksik sathi rang-barang va bu boy qatlam ko'p ma'nolilik, tag ma'nolilik, qochirimlar singari mazmundor unsurlar bilan to'yinganligini angalaymiz. O'zbek tilimizni kelajak avlodlariga qanday qilib yetkazishimiz kerakligi kabi savollarga javoblarni olamiz. Turli ijtimoiy-madaniy va boshqa munosabatlarimizni tartibga solamiz.

Mening o'zbek tilim ham tillar ichida o'z o'rniga, mavqe'iga ega bo'lgan, eng boy, eng jozibador tillardan biridir. Dunyo tillari ichida nufuziga ko'ra o'zbek tili 41-o'rinda turadi. Bu tilda dunyo tamadduniga tamal toshini qo'ygan, insoniyat

sivilizatsiyasiga salmoqli, ulkan hissa qo'shgan alloma va mutafakkirlar ijod qilgan. ... ishlarning natijasi sifatida maydonga keldi.

**Xulosa:** Őzbek tilini qadirlashimiz qisqartirib yozishni va tilni yōq bōlib borishini oldini olishimiz, mavqeyini oshirishimiz, va sof Őzbek tilini saqlab qolishimiz kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.X.G` .Nematov, R.Sayfullayeva «Zamonaviy o`zbek tili» «Mumtoz so`z» 2021

2.N.Husanov, R.Xo`jaqulova «O`zbek tili» 2020

3.A.Anorbekova, Sh.Mirzayeva « Hozirgi o`zbek tili» «Talqin» nashriyoti-2005

<https://m.kun.uz/news/2019/10/20/til-nega-oladi-global-tanazzuldan-omon-qolish-mumkinmi-professor-bilan-suhbat>

<https://daryo.uz/2021/10/06/til-mavqeyi-el-mavqeyi>

<https://cyberleninka.ru/article/n/ozbek-tilshunosligida-etnografizmlarga-oid-ayrim-tadqiqotlar-xususida?ysclid=lvhpkmelrz334317560>

<https://www.sbtsue.uz/uz/news/view/312>

<https://muhaz.org/referat-mavzu-respublikamizga-ozbek-tilining-davlat-tili-sifat.html>

<https://library.navoiy->

## **KASBGA XOS QOBILIYAT VA SIFATLARNING NAMOYON BO'LISHINI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Nuraliyeva L.T.<sup>1</sup>, Tuychiyeva S.M.<sup>2</sup>**

1. Toshkent shahar, Toshkent amaliy fanlar universiteti PP yo'nalishi 3-kurs 07-guruh talabasi, e-mail: [layloxon070777@gmail.com](mailto:layloxon070777@gmail.com) , tel: +998958604777

2. Toshkent shahar, Toshkent amaliy fanlar universiteti "Psixologiya" kafedrasini mudiri, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent tel: +998998339732

**Annotatsiya:** Kasbiy va shaxsiy qobiliyatlarni anglash kasb tanlashda muhimdir. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Ushbu tezisda yoshlarda kasbiy qobiliyat va sifatlarini tahlil etish orqali kasb tanlashni to'g'ri yo'lga qoyish haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Qobiliyat, xarakter, shaxs, kasb, kasbiy, muloqot, muloqotchanlik, psixolog, kasbiy-shaxsiy.

**Maqsad.** Kasb tanlashda nafaqat qiziqish, balki shu kasbga xos sifatlarga ega bo'lish ham muhimdir. Mahalliy va xorijiy psixologiyada shaxsni o'rganishga ko'plab yondashuvlar mavjud, ammo so'nggi yillarda psixologlarning professional va shaxsiy fazilatlarini o'rganishga qiziqish ortdi. Ushbu maqolamizda psixolog kasbga doir kasbiy-shaxsiy sifatlar haqida fikr yuritimiz.

Shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishning mohiyati - borliqning soddalashgan, kichraytirilgan aksini yaratish, ya'ni undagi lavhalarni yuzaga keltirish – yaratish, shakllantirish, hosil qilishdan iborat. Borliqdagi qiyofalarni mos ravishda qo'llay olish

uchun biz o'zimizda ushbu lavhalardan hayotning to'laqonli aksini yarata olishimiz lozim. Kasbiy va shaxsiy qobiliyatlarni anglash kasb tanlashda muhimdir. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. O'quvchida ham zaruriy ko'nikma va malaka tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib topish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib ko'rilsa, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi bo'ladi.

Qobiliyat bilim va malakalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash tizimida namoyon bo'ladi ya'ni, boshqacha qilib aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishida namoyon bo'ladi.

Qobiliyat kishining psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo'lib, shuning bilan birga u ma'lum darajada bilim olish mahsuli hamdir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy ko'nikmalarni egallab olish jarayonida qobiliyat mukamallashib va rivojlanib boradi. Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakadir. Ular faoliyat mexanizmini tashkil qiladilar.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo'ladi. Shuning bilan birga ko'nikma va malakalar yetishmagan qobiliyatni bir muncha to'ldirish yoki undagi kamchilikni tugatish mumkin. Ko'nikmalarni umumlashmasi mohirlik deb ataladi. Mohirlik ham qobiliyatning o'zginasidir.

Qobiliyatlar B.M.Teplovning fikricha, muntazam rivojlanish jarayonida mavjud bo'ladilar. Shuningdek, ta'kidlab o'tish lozimki, har bir faoliyatning bajarilish samaradorligi bir xil emas, balki, turli qobiliyatlar uyg'unligiga bog'liq. Ba'zi qobiliyatlar rivojlanishiga zarur nishonalarning mavjud emasligi, ularning tanqisligi boshqa qobiliyatlarning yuksak darajada rivojlanganligi hisobiga to'ldirilishi mumkin.

Har bir inson hayoti davomida faoliyat, yoki qiziqishlari asosida kamida 10 tagacha, avloddan –avlodga gen orqali – fiziologik, hamda tabiat tomonidan berilgan va hayoti davomida rivojlantirilgan - psixologik qobiliyatlarni nomoyon qilishi mumkin. Bu qobiliyatlarning tashqi va ichki omillar natijasida rivojlantirish yuqori darajaga olib chiqilishi yoki e'tiborsizlik sabab so'nib borishi mumkin. Aksincha holatda, turli qobiliyatlarning xususiyatlarini noto'g'ri talqin qilinishi, ko'r-ko'rona xulosalar, soxta va botil haqiqatlar asosida yoshlarni yo'naltirish natijasida psixikaning ma'lum qatlamini og'ishiga olib keladi.

Bolajak psixologning intellektual rivojlanishi va uning ongining sifati muhim fazilat sanaladi. V. N. Drujininning (1999) fikricha, yuqori intellektga ega bo'lmagan muvaffaqiyatli psixolog yo'q. Psixolog ongining psixologik yo'nalishi, u faqat tan olinishi va tan olinishi uchun zarur bo'lgan intellektual analitik-sintetik faoliyat asosida amalga oshirilishi mumkin. Muammoni tushunish, aniq taqdim etilgan barcha ma'lumotlarni tahlil qilish va sintez qilish yashirin shaklda, unda mavjud bo'lgan narsalarni talqin qilish bo'yicha murakkab faoliyatni amalga oshirish, materialni tasarruf etish psixologning shaxsiy kasbiy sifatlarini tashkii etadi.

**Natija:** Psixologning intellektual rivojlanish darajasi unga quyidagilarga imkon beradi: o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan bilish uchun tegishli muvaffaqiyat darajasi, harakatlar, so'zlar, o'z-o'zini anglashga imkon beradi. Muloqotchanlik qobiliyati nafaqat shaxsga, balki kasbga xos qobiliyat hisoblanadi. Muloqotchalikni bo'lajak kasb bilan bog'liqligini tadqiq etishni maqsad qilib oldik. Muloqotchanlikning umumiy darajasini aniqlash so'rovnomasini o'tkazdik.

Toshkent Amaliy fanlar universitetining pedagogika fakulteti psixologiya yo'nalishi PP 05-guruh talabalari bilan muloqotchanlik sifati o'rganilgan. Tahlili:

*30-32 ball* - muloqotchanlik darajasi ancha past.

*25-29 ball* - yolg'izlanishni yaxshi ko'rasiz, shuning uchun do'stlaringiz kam.

Notanish odamlar bilan tanishish, notanish joylarga borish zarurati xalovatingizni buzadi. Buni o'zgartirish o'z qo'lingizda.

*19-24 ball* - ma'lum darajada muloqotchansiz va notanish vaziyatda o'zingizni yo'qotib qo'ymaysiz. Yangi muammolar sizni qurqitmaydi, ammo notanish odamlar bilan muloqot qilishda ancha ehtiyotkorsiz, bahs - munozaralarga bajonidil qo'shilmaysiz.

*14-18 ball* - yetarlicha muloqotchansiz, qiziquvchansiz, suhbatdosh qiziq narsalar haqida gapirganda, uni diqqat bilan tinglaysiz. Muloqotda ancha sabrlisiz, o'z nuqtai nazariningizni xissiyotga berilmay ximoya qilasiz.

*9-13 ball* - juda muloqotchansiz (ba'zida meyyoridan ortiq), qiziquvchan, gapdonsiz, har xil masalalar bo'yicha o'z fikringizni bildirishni yaxshi ko'rasiz, bu esa ba'zida atrofdagilarni g'ashiga tegadi. Notanish odamlar bilan bajonidil tanishasiz, odamlarning diqqat markazida bo'lishni yoqtirasiz.

*4-8 ball* - juda muloqotchansiz, gapingiz ichingizga sig'maydi. Doim hamma voqealardan xabardorsiz, har xil bahs-munozara, tortishuvlarda qatnashishni xush ko'rasiz, lekin jiddiy mavzular sizni zeriktirib yuborishi mumkin.

*3 va undan kam ball* - muloqotchanlik darajangiz me'yordan ortiq darajada yuqori. Juda sergapsiz, sizga aloqasi bo'lmagan ishlarga aralashaverasiz, hal etishga qurbingiz yetmaydigan muammolarni bartaraf etishga kirishaverasiz, ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda har xil nizolarning kelib chiqishiga sababchi bo'lib qolasiz.

Tajribamizda 15 talaba ishtirok etdi. Natijalar: 10 tasi 19-24 ball, 3 tasi 14-18 ball va 2 tasi 9-13 ballni yig'gan. Natijalardan ko'rinib turibdiki, tadqiqotda ishtirok etgan bo'lajak psixologlarning kop qismida muloqotchanlik qobiliyati yuqori.

**Xulosa.** Adabiyotlar tahlili va o'tkazilgan ilk tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, kasb tanlashda yoshlar nafaqat qiziqishlari, balki o'z xususiyatlarini ham tahlil etib ko'rishlari kerak. Bunda maktab bitiruvchilari bilan pedagog-psixologlar kasbiy konsultativ ishlarni olib borishlari va kasbga to'g'ri yo'naltirishlari kerak.

#### **Adabiyotlar:**

1. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. Югай А.Х., Мираширова Н.А. "Общая психология" – Ташкент 2014.

## **YOSHLARNING PSIXOTROP DORILAR VA SPIRTLII ICHIMLIKLARGA RUJU QO‘YISHINING TABIIY VA PSIXOLOGIK ZARARLARI**

Xamidov Sunnat Abdujabbor o‘g‘li<sup>1</sup>, Sobirov Yangiboy Elmurot o‘g‘li<sup>2</sup>

1. Toshkent shahar, Toshkent amaliy fanlar universiteti 2- kurs PP2201K01 guruh talabasi, e-mail: [xamidovsunnat.0201@gmail.com](mailto:xamidovsunnat.0201@gmail.com) tel: +99899 551 67 79
2. Toshkent shahar, Toshkent amaliy fanlar universiteti “Psixologiya” kafedrası katta o‘qituvchi e-mail: [sobirovyangiboy@gmail.com](mailto:sobirovyangiboy@gmail.com) tel: +998977630093

**Annotatsiya:** Bugungi kunda butun yer yuzida ilm-fan va axborot texnologiyalari juda tez sur‘atda rivojlanib bormoqda, kundan kunga texnika va texnologiyalarning rivojlanishi insoniyatning hayot tarzini yengillashtirmoqda. Bu esa o‘z navbatida yoshlar orasida salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Ular orasida turli xil psixotropik dori va alkagol mahsulotlarini iste‘mol qilish holatlari ham juda ko‘p uchramoqda.

Yoshlar orasida kechayotgan turli xil zararli illatlar va psixotrop dorilar iste‘mol qilish natijasida kasalliklar, psixologik inqirozlar yuzaga kelib chiqishi haqida ushbu maqolada keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** psixotrop dori, vitamin, qimor, vabo, teopikamod, retinol, klasstiferol

**Maqsad:** Bugungi kunda yoshlar orasida sog‘lom tanaga, sog‘lom aqlga ega bo‘la turib turli xil psixotrop dorilar: “Teopikamid”, “Lirika”, “Zarleks” singarilarni kayf safo ilinjida iste‘mol qilish singari turli yomon holatlar sezilarli darajada ko‘paydi. Aslida bu dorilardan ko‘z yoki boshqa tana a‘zolari kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Shu va shu kabi turli dorilarni iste‘mol qilgan bolalarda qon aylanish tizimi normasi buzilishi, jigar, oshqozon buzulishi, rak kasalliklariga ham uchrashi mumkin. Bu kabi dorilarning iste‘moli bilan bog‘liq jami 25 ta qonun va qonun osti 70 ga yaqin normativ me‘yoriy hujjatlarga qayta o‘zgartirish kiritilgan va qabul qilingan. Psixotrop vositalar kiradigan fenotiazin hosilalari teratogen ta‘sir ko‘rsatadi. Ular fokomeliyani keltirib chiqarib, oyoq-qo‘llarning kuraksimon shakllanishiga sabab bo‘ladi. Vitamin A (retinol) ning katta dozalari homilaning tanglayini yemiradi. Vitamin B (klasstiferol) kortikosteroid gormonlar hosil bo‘lishini susaytiradi, embrionning o‘rishini sekinlashtiradi, uning oyoq-qo‘l, bosh, umurtqaning bo‘yin qismi suyaklarining rivojlanmay qolishiga sabab bo‘ladi.

**Natija:** Narkotik moddalar va psixotropik dorilar olib yurish, tarqatishlar, qonunga xilof ravishda sotish, qimorga chorlovchi o‘yinlarni o‘tkazish, tarqatish yoki ularda ishtirok etishga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan 75 baravarigacha miqdorda jarima yoki 300 soatdan 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

*Qimorga va narkotik doriga qaramlik* - bu ko‘plab salbiy psixologik, jismoniy va ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan progressive «giyohvandlik» hisoblanadi.



Psixotropik dori iste'moli arzimadek ko`rinadigan holatda dorilar yoshlar hayot tarzini buzadi.

Psixotropik dorilarga bolalarda moyillikni yuzaga keltirib chiqaradigan asosiy sabab bolalarning qarovsiz qolishi, o'zini yolg'iz his etishi, oiladagi nizolar, ota-onalarning farzandiga nisbatdan zo'ravonik qilishi, shunga o'xshash vaziyatlar bolaning sekin asta asablariga salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi, ko'pchilik ota-onalar bolani juda qattiqqo'llik bilan boshqarishga harakat qilib, bolani birdan hamma narsadan mahrum qilish choralari qo'llashadi, aslida bunday qilib bolalarni bloklashga harakat qilishlar bolaning ruhiyatiga va psixologiyasiga noto'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bu vaqtda bolalarning ruhiyati va psixologiyasida o'zgarish bo'layotgan bo'ladi. Agar bola kuchli psixotropik doriga o'rganib qolgan bo'lsa bunday bolalarning sog'lig'ini tiklashga realitatsiya markazlari ham yordam bermasligi mumkin. Unga yordam bera oladigan insonlar uning ota-onasi va yaqin kishilari bo'ladi. Ko'pchilik ota-onalar farzandini psixotrop dori iste'mol qilishini payqagan bo'lsa kaltaklashi yoki uni kuchli so'roq ostiga olishi mumkin, bu vaziyatda bunday usul foyda bermaydi. Bolaning ruhiyatida bo'layotgan o'zgarishni sekin astalik bilan, ota onalar farzandini yoniga chaqirib og'ir vazminlikda suhbat olib borishi va uning qilayotgan ishi noto'g'ri ekanligini, chuqur afsusga tushishga majbur qiluvchi gaplar gapirishi, iliq munosabat bildirishi orqali bolalar psixotropik dori ta'siridan chiqib ketishiga ancha yordam beradi. Norkolog Nargiza Sodiqova kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarini sog'lom organizm qabul qilganda zararli xususiyatlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda zaharga aylanadi deb aytganlar.

**Xulosa:** Xulosa qilib shuni ayta olamizki, bugungi kun yoshlarini jamiyati insoniyatda hayotga bo'lgan qiziqishi kamligi, zerikish orqali turli psixotropik va alkagol mahsulotlari iste'mol qilishini juda ko'p joylarda uchratamiz. Bu illatdan qutilish, qo'shib qolmaslik uchun inson birinchi navbatda o'zini o'zi tarbiyalashi, o'zini doimiy ravishda biron bir ish bilan band qilib borish maqsadga muvofiq sanaladi. O'rta maktab yoshidagi bolalarning xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlarni ota-ona va o'qituvchi hamkorligida ish olib borgan holda ushbu yuqoridagi keltirilgan illatlarga ruju qo'ymaslikning oldini olib borishimiz mumkin. Zero kasalni davolagandan uni oldini olish chora tadbirlarini ko'rish har doim yaxshi samara beradi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. "Farmakologiya bilan retseptura" K.X.Postnova
2. "Farmakologiya" S.S.Azizova
3. "Лекарственные средства" М.Д.Машковский
4. G'oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi).

#### **“O'ZBEKISTON-2030” STRATEGIYASIDA TA'LIM, FAN, SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI ISLOHOTLAR**

Shukurullayeva Dildoraxon To'lqinxo'ja qizi, Ismoilov Kamolatdin Qurultoyivich,  
1. Toshkent shahar Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti Farmatsiya yo'nalishi  
1kurs 108-guruh talabasi, e-mail: dilone933@gmail.com, tel: +998997240142

2. Toshkent shahar Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti «Ijtimoiy va gumanitar fanlar» kafedrasini mudiri Ismoilov Kamolatdin Qurultoyovich, e-mail: ismailovkamolatdin27@gmail.com, tel.: +998971502000

**Annotatsiya:** Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida "O'zbekiston - 2030" strategiyasi tasdiqlandi.

**Kalit so'zlar:** Strategiya, davlat, jamiyat, ustuvor yo'nalish, ta'lim, tibbiyot.

**Maqsad:** "O'zbekiston-2030" strategiyasida ta'lim, fan va sog'liqni saqlash sohalaridagi yangi islohotlar bilan tanishtirish.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi tasdiqlandi. 2023 yil 11 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida»gi 158-son Farmoni qabul qilindi. Hujjat O'zbekiston axborot agentligi tomonidan chop etildi. Farmonga ko'ra, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi quyidagi 5ta ustuvor yo'nalish hamda 100 ta maqsad, 369 ta chora-tadbir, 190 ta vazifa, 306 ta maqsadli ko'rsatkich bajarilishi va bu borada 118 ta normativ-huquqiy hujjatlarni o'z ichiga oladi:

- Barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish;
- Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;
- Aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- Xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
- Mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash

kabi yo'nalishlardan iborat.

"O'zbekiston-2030" strategiyasida tibbiyot sohasidagi islohotlar: "O'zbekiston – 2030" strategiyasida, xususan, keyingi yetti yilda aholining o'rtacha umr davomiyligini 78 yoshga yetkazish belgilangan. Bu, ta'bir joiz bo'lsa, insonning yashash va sog'lig'ini saqlashiga oid konstitutsiyaviy huquqlari yanada to'liq ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi. Tibbiy yordamga muhtoj aholining 70 foiz murojaatlarini birlamchi bo'g'inning o'zida hal etishga erishish ko'zda tutilmoqda. Bu ezgu maqsad – insonning sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga taalluqli konstitutsiyaviy huquqlari ta'minlanishi bilan chambarchas bog'liq. Onkogematologik kasalliklarga chalingan bolalar uchun gemotopoetik suyak ko'migi o'zak hujayralari transplantatsiyasi amaliyoti joriy etiladi; virusli gepatitning "S" turi bilan kasallangan bemorlarni hamda gemotopoetik suyak ko'migi o'zak hujayralari transplantatsiyasi muolajasiga muhtoj onkologik kasalliklarga chalingan

bolalarni to'liq budjet mablag'lari hisobidan davolash yo'lga qo'yiladi. Joriy yilning 1-oktabridan og'ir hayotiy vaziyatga tushgan yoki tushish xavfi yuqori bo'lgan har bir oila bo'yicha alohida "ijtimoiy xizmat ishi"ni yuritish tartibi joriy etiladi. 2024-yildan Toshkentning tibbiyot muassasalarida davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar hajmi va dori vositalari ro'yxatini amaliyotga kiritishni nazarda tutuvchi davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy etiladi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni protez-ortopediya buyumlari, reabilitatsiya hamda dori vositalari bilan ta'minlash ishlari "vaucher" tizimi asosida tashkil etiladi.

**Natija:** Mamlakatimizda mustaqillikning o'tgan 32 yili mobaynida birinchi marotaba bunday uzoq muddatga, ya'ni 7 yilga mo'ljallangan qamrovdor milliy taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Bu yuksak marra ya'ni davlatimiz va jamiyatimiz hayotining barcha sohalaridagi barqarorlik, taraqqiyot va bunyodkorlikni o'z ichiga oladi.

**Xulosa:** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich aytganlaridek "Barchamizning fidokorona mehnatimiz, g'ayratu shijoatimiz bilan Yangi O'zbekiston orzusi real haqiqatga aylanmoqda. Xalqaro maydonda Vatanimizga nisbatan hurmat va e'tibor tobora ortib bormoqda". Binobarin, «O'zbekiston — 2030» strategiyasi jamiyatimiz va davlatimizning ana shu yutuqlarini yanada ulug'vor natijalar bilan mustahkamlashi hamda boyitishi muqarrar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" 2021-yil kitobi
2. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.
3. [https://gov.uz/oz/pages/2030\\_strategy/](https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy/).

## **LOTIN TILI VA FARMATSEVTIK TERMINOLOGIYA ASOSLARI FANIDA RETSEPTLARNI TO'G'RI YOZISH VA O'QISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**Eshmurzayeva F.I.<sup>1</sup>, Talipov B.B.<sup>2</sup>**

1. Farmasevtika ta'lim va tadqiqot instituti, 1 kurs talabasi, Farmatsiya yo'nalishi, 209 guruh, e-mail: feruzaoy2005@icloud.com +998995784511
2. Farmasevtika ta'lim va tadqiqot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi. e-mail: begzod81uz@gmail.com +998971056735

**Annotatsiya:** Farmatsevtik terminologiya - farmatsiya bilan bog'liq bo'lgan barcha fanlarga oid alohida terminologik tizimlardan iboratdir. Terminologiya - bu kasb va fanni tashkil qiluvchi muhim qismlardan biridir. Bu haqida Lavuaz'ye o'zining "Kimyo to'g'risida asosiy fikrlar" nomli asarida: "Fanni terminologiyadan, terminologiyani fandan ajratib bo'lmaydi, chunki har bir tabiiy fan uchta narsa: uning mazmunini tashkil qiladigan bir qator faktlar, u keltirib chiqaruvchi tasavvurlar va ushbu tasavvurlar ifodalangan terminlardan iborat "deb juda aniq qilib ko'rsatgan. Asosiy farmatsevtik terminologiya deganda, umumiy terminologik masalalardan tashqari, farmatsevtik terminologiyaning ayrim bo'limlari botanik, kimyo, farmakologik va boshqa nomlarga tegishli bo'lgan maxsus masalalarni ham tushunish lozim. Farmatsevtik terminologiyadagi retseptlar bilan umumiy ravishda tanishib chiqamiz. Tibbiyot Institutlari talabalari tibbiyotni o'rganishga

kirishishdan oldin quyidagini doimo yodda tutishlari kerak «Non est medicina sine lingua latina — lotin tilisiz tibbiyotni tasavvur etib bo‘lmaydi».

**Kalit so‘zlari:** Recipe, Misce, Da, Signa, Tincturae, Convallariae, Valerianae, ana, Infusi, Sennae, folii, foilorum, Betulae.

**Maqsad:** Lotin tili va farmatsevtik terminologiya asoslarida retseptlarni to‘g‘ri yozish va o‘qishni takomillashtirishdan maqsad, shifokor tomonidan yozilgan retseptlarni bilish, to‘g‘ri tarjima qilish va o‘qish orqali bemorqa aniq va to‘g‘ri dori berishdir. Chunki, birgina harfi noto‘g‘ri o‘qilsa yoki yozilsa, bemor zahar ichgan bilan barobar bo‘ladi. Misol uchun: **Barii sulfas** – bariy sulfat (ichdan qo‘llash uchun vosita) o‘rniga **Barii sulfidum**- bariy sulfid (sirtidan qo‘llash uchun vosita) yozilsa yoki o‘qilsa bemor zahar qabul qilgan bo‘ladi. **Retsept** so‘zi Lotincha **receptum** ya’ni olingan so‘zidan kelib chiqqan. Retseptlar, qaratqich kelishigida yoziladi, Misol uchun: **qayin bargi** so‘zini **Nom. Sing.** da **folium** Betulae deb yozsak, **Gen. Sing.** da **folii** Betulae bo‘ladi. Retsept rasmiy hujjat bo‘lib, uni yozgan shifokor, shu bilan birga dorini tayyorlab bergan dorishunos ham retseptning to‘g‘riligi uchun yuridik jihatdan javobgardir. Retseptlar yagona nusxali maxsus varaqalarda aniq va ravshan yozilgan bo‘lishi lozim. Retseptlardagi so‘zlarni tuzatish yoki o‘zgartirishga ruxsat etilmaydi. Retsept 10 ta qismlardan iborat.

Recipe: Tincturae Valerianae 10 ml.

Tincturae Convallariae 15 ml.

Misce:

Da.

Signa: Kuniga 1 marta kichkina qoshiqda ichilsin.

**Natija:** Retseptni to‘g‘ri o‘qish va yozish ko‘nikmalarini takomillashtirishda, talabalar bilan olib borilgan mashg‘ulotlar yoqori natija berish bilan birga, talabalarda yuqori qiziqish uyg‘otdi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda bugungi kunda, shifokor va farmatsevt retseptni to‘g‘ri yozish va o‘qishni bilishi juda muhimdir. U qaysi kelishikda yozilishi xam jiddiy ahamiyat kasb etadi. Talabalar, o‘qish paytidan juda katta e’tibor va mehnat bilan ilmligini mustahkamlashi va shu yo‘l orqali O‘zbekistonni ta’lim sohasidagi xalqaro reyting va ko‘rsatkichlardagi ijobiy o‘rnini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. M.N.Boliyev. Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi, Darslik. Toshkent. 2013 y.
2. X. T. U m a r o v. Lotin tili va tibbiy-farmatsevtik terminologiya asoslari, Darslik. Toshkent. 2015 y.
3. M.N.Israilova. Lotin tili va tibbiy farmatsevtik terminologiya asoslari. Darslik. Toshkent. 2016 y.
4. L.X.Bazarova, N.S.Suyundikov, D.Q.Xudoyqulova “Lotin tili va farmatsevtik terminologiya asoslari”. Farmatsevtika instituti talabalari uchun. Darslik.Toshkent. 2018 y.



**Gen. Sing.** folii Betulae – qayin bargi

**Nom. Plur.** folia Betulae – qayin barglari

**Gen. Plur.** foilorum Betulae – qayin barglari

**Nom. Sing.** Infusum Sennae folium – Sano bargining damlamasi

**Gen. Sing.** Infusi Sennae folii - Sano bargining damlamasi

**Natija:** Dorivor o‘simliklarni birlikda va ko‘plikda to‘g‘ri yozish va o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirishda, talabalar bilan olib borilgan mashg‘ulotlar yuqori natija berish bilan birga, talabalarda yuqori qiziqish uyg‘otdi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda bugungi kunda, dorivor o‘simliklarni to‘g‘ri yozish va o‘qishni bilishi juda muhimdir. Uni qancha miqdorda ekanligini bilish va qanday hususiyatini aniqlash jiddiy ahamiyat kasb etadi. Talabalar, o‘qish paytidan juda katta e‘tibor va mehnat bilan ilmligini mustahkamlashi va shu yo‘l orqali O‘zbekistonni ta‘lim sohasidagi xalqaro reyting va ko‘rsatkichlardagi ijobiy o‘rnini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. M.N.Boliyev. Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi, Darslik. Toshkent. 2013 y.
2. X. T. U m a r o v. Lotin tili va tibbiy-farmatsevtik terminologiya asoslari, Darslik. Toshkent. 2015 y.
3. M.N.Israilova. Lotin tili va tibbiy farmatsevtik terminologiya asoslari. Darslik. Toshkent. 2016 y.
Shifobaxsh bo'lgan bu choyni quruq joyda nisbiy namlik 70% dan ko'p bo'lmagan joyda saqlang.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Абу Али Ибн Сина «Законы медицины» Ташкент 2019г.
2. Ибрагимов Тахир «Можно ли побороть сахарный диабет» Ташкент-2019
3. Мамадалиева З. Р. Саидмуродова З. Значение микроэлементов в живых организмах. Самарканд-2015 год 34 б.

## “YUQORI NAFAS YO’LLARI YALLIG’LANISHI KASALLIKLARIDA ISHLATILADIGAN GRANULA DORI VOSITASI TARKIBINI ISHLAB CHIQISH”

D.B. ALIYEVA.<sup>1</sup>, N.E.VAXOBOVA.<sup>2</sup>

1. Toshkent shahri, Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot instituti, 3-kursning 21F-1 guruh talabasi Aliyeva D. B. e-mail: [diyora.aliyeva.6961@gmail.com](mailto:diyora.aliyeva.6961@gmail.com), tel: +998933956961.
2. Toshkent shahri, Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot instituti, Farmakognoziya va botanika kafedrası, farmakognoziya fanlari assistenti Vaxobova N.E. e-mail: [Vaxabovanargis@gmail.com](mailto:Vaxabovanargis@gmail.com), tel: +998977832846.

**Annotatsiya:** Jahon Sog’liqni Saqlash Vazirligi bergan ma’lumotlarga ko’ra har yili dunyo bo’ylab 1 milliardgacha insonlar mavsumiy gripp va paragripp infeksiyasiga chalinadilar. Shulardan 290-650 ming kishi ushbu kasalliklarning qurboniga aylanadi. 3-5 million asoratli og’ir holatlarga olib kelgani aniqlangan. Gripp va paragripp infeksiyasi asosan havo tomchilari yoki ushbu kasallikka chalingan insonning o’tkir virusli infeksiya bo’lib, havo tomchilari va uy ro’zg’or buyumlari bilan kontakt orqali yuqadi, kichik yoshdagi bolalar kattalarga qaraganda ushbu kasallikka chalinishga moyil bo’ladi. Bu ularning immun sistemasini to’liq rivojlanmaganligi natijasida sodir bo’ladi. Kasallikning eng yuqori darajasi odatda uch yoshdan o’ng to’rt yoshgacha bolalarda, fertil yoshdagi ayollarda va qariyalarda ko’proq uchraydi. Shuning uchun ham yuqori nafas yo’llari yallig’lanishi kasalliklarini davolashda tabiiy dorivor o’simliklar asosida kombinirlangan bezarar, qo’llash uchun qulay bo’lgan dori preparatini ishlab chiqarish zamonaviy farmasevtikaning muhim omillaridan biri bo’lib hisoblanadi. Biz ishlab chiqaradigan tabiiy dorivor o’simliklardan tayyorlangan dori vositasi yuqori nafas yo’llari yallig’lanish kasalliklari: isitma, burun bitishi, tomoq og’rig’i, yo’tal kabi simptomlarni tezda bartaraf etishga qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki yuqori nafas yo’llari yallig’lanish kasalliklarida; Evkalipt bargi (*lot: Folia Eucalypti*) tarkibidagi biofaol moddalar antiseptik xossasiga ega. Qizilmiya ildizi (*lot: Radices Glycyrrhizae*) tarkibidagi saponinlar balg’am ko’chiruvchi, siydik haydovchi, tinchlantiruvchi, organizm tonusini oshiruvchi vosita sifatida ta’sir ko’rsatadi. Zarchava ildizi (*lot: Radices Curcumae*) esa tarkibidagi fenol birikmalar kuchli antioksidantlik xossasini namoyon etadi. U bemor haroratini tushiradi va yo’talni yo’qotadi. Inson tanasini qizdirish xususiyatiga ega va modda almashinuvini me’yorga keltiradi, immunitetni mustahkamlaydi. Zanjabil ildizi (*lot: Radices Zingiber*) esa yallig’lanishga qarshi, og’riq qoldiruvchi, immunostimulyator ta’siriga ega. Biz tanlab olgan ushbu dorivor o’simliklar tibbiyotda uzoq yillar mobaynida keng qo’llanilib kelishi biz o’rgangan adabiyotlardan ma’lum bo’ldi. Yuqori nafas yo’llari yallig’lanish simptomlarini bartaraf etish va davolashda o’simliklardan tashkil topgan majmuaviy dori vositasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

**Kalit so’zlar:** Perkolyator, ekstragent, quritgich shkafi, ekstrakt, granulyatsiya.

**Maqsad:** yuqoridagi axborotlarni tahlil qilgan holda o’simliklardan Evkalipt bargi (*lot: Folia Eucalypti*), Qizilmiya ildizi (*lot: Radices Glycyrrhizae*), Zarchava ildizi (*lot: Radices Curcumae*), Zanjabil ildizi (*lot: Radices Zingiber*), o’simliklarini

kombinasiyasi asosida ta'sir doirasi keng qamrovga ega bo'lgan granula dori vositasini texnologiyasini ishlab chiqish.

**Natija:** Ushbu o'simliklardan quruq ekstrakt olish uchun biz perkolyatsiya usulini tanlab oldik. Bunda Davlat farmakopeyasining 11-ma'qolasida keltirilgan normativ hujjatlarga asosan Evkalipt o'simligi bargidan 3-5 mm maydalab 1:10 nisbatda, (70%) li etil spirtiga bo'ktirib qorong'u salqin joyda 1 hafta davomida saqlandi va bu jarayon 3 marta takror bajarildi. Zanjabil o'simligi ildizidan 3-5 mm maydalab 1:10 nisbatda, (96%) li etil spirtiga bo'ktirib qorong'u salqin joyda 3 kungacha saqlandi va bu jarayon 3 marta takror bajarildi. Qizilmiya o'simligi ildizidan 3-5 mm maydalab 1:5 nisbatda, etil spirti (40%) li solib bo'ktirildi va qorong'u salqin joyda 3 kungacha saqlandi va bu usul 3 marta takror bajarildi. Zarchava o'simligi ildizidan 3-5 mm maydalab 1:1 nisbatda, etil spirti (96%) li solib, bo'ktirildi va qorong'u salqin joyda 3 hafta saqlandi va bu jarayon 3 marta takror bajarildi. Perkolyatorga qo'yilgan o'simliklardan suyuq ekstrakt ajratib olindi va ulardan suv hammomida harorat 100°C da bug'lantirish yo'li bilan quruq ekstrakt olindi. Olingan quruq ekstraktlar aralashmasidan nam donadorlash usuli orqali ajratib olingan quruq ekstraktlar 10 grammdan o'lchov tarozisida tortib olindi, so'ng 2 mkm li elakdan alohida o'tkazib so'ng aralashma hosil qilindi, yordamchi modda sifatida qand upasi va korrigentlash uchun limon kislotasidan 5 gramm qo'shildi va bir hil massaga kelguncha aralashtirildi. So'ng granula olish uchun nam donadorlash usulidan foydalanildi. Bunda quruq ekstraktlar va yordamchi moddalar aralashmasi 3mkm li elakdan o'tkazilib quritish shkafiga harorat 100-105°C da 20 daqiqaga qo'yildi. Tayyor bo'lgan granulalar 3 mkm li elakdan takroran o'tkazilib, so'ng qadoqlandi.

**Xulosa:** Yuqori nafas yo'llari yallig'lanish kasalliklarini davolashga mo'ljallangan, dorivor o'simliklardan yangi granula dori vositasi tarkibi va texnologiyasi ishlab chiqildi. Ushbu dori vositasi tarkibiga kiruvchi o'simliklarning biologik faol moddalari o'rganilib, tahlillar orqali o'z isbotini topdi.

#### **Adabiyotlar:**

1. H. X. Xolmatov, O'. A. Ahmedov – Farmakognoziya I-II-qism. Ibn Sino» nashriyoti. Toshkent, 1995.
2. M. M. Miralimov, Farmatsevtik texnologiya asoslari 2007.
3. Юнусова.Х.М, Абдижалилова З.Х.,Илхамова Н.Б. Маҳаллий фармацевтик бозорда йўталга қарши дори препаратларининг ишлаб чиқарувчиларни таҳлили // Фармацевтика журнали.- Тошкент-2020.-№ 3.-Б.8-11.
4. The Essential Medicinal Chemistry of Curcumin – PubMed Kathryn M Nelson<sup>1</sup>, Jayme L Dahlin<sup>2</sup>, Jonathan Bisson<sup>3</sup>, James Graham<sup>3</sup>, Guido F Pauli<sup>3,4</sup>, Michael A Walters<sup>1</sup>
5. Zingiber officinale var. rubrum: Red Ginger's Medicinal Uses Shiming Zhang<sup>1</sup>, Xuefang Kou<sup>2</sup>, Hui Zhao<sup>3</sup>, Kit-Kay Mak<sup>1,4,5</sup>, Madhu Katyayani Balijepalli<sup>6</sup>, Mallikarjuna Rao Pichika<sup>4,5</sup>.



## **BIOSFERANING IFLOSLANISHI** **ATABEKOVA D.L.<sup>1</sup> JUMATULLAYEVA R.M.<sup>2</sup>**

2. Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti SF-fakulteti 101-guruh, 1-bosqich talabasi, [rjumatullayeva@mail.ru](mailto:rjumatullayeva@mail.ru) +998996486606

1. Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti Farmakognoziya kafedrası o'qituvchi. Atabekova D.L

**Annotatsiya:** Inson faoliyati sayyoramizning tirik qobig'iga xavf tug'dirganligi sababli antropogen ta'sir ekotizimlarning yo'q qilinishiga va flora va fauna turlarining yo'q qilinishiga, er po'stining relyefi va iqlimining o'zgarishiga olib keladi. Natijada litosferadagi yoriqlar va biosferadagi bo'shliqlar hosil bo'ladi. Bundan tashqari, tabiat o'ziga zarar etkazishi mumkinligi haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** Atmosfera, Biosfera, Havo, Kuchli ifloslanish, Global muomolar, Demografik, Industrlanish.

**Maqsad:** Zamonaviy davlatlar biosferaning global muammolarini hal qilishga qaratilgan siyosat ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar. Bundan tashqari, har bir inson ushbu umumiy ishda o'z hissasini qo'shishi mumkin: tabiat boyliklarini saqlash va ulardan oqilona foydalanish, chiqindilarni yo'q qilish va resurslarni tejash texnologiyalarini qo'llashga qaratilgan.

**Natija:** Keyingi yillarda atmosfera tarkibidagi doimiy komponentlarning nisbatida salbiy o'zgarishlar ro'y bermoqda, havoda yangi moddalar paydo bo'lib, ular atmosfera havosi sifatini pasaytirmoqda. Bu jarayon asosan insonning xo'jalik faoliyati natijasida atmosferaga chiqarib tashlayotgan ifloslovchi moddalarning miqdori va tarkibiga bog'liqdir. Atmosfera havosini ifloslovchi manbalar orasida tobora rivojlanib borayotgan sanoat ishlab chiqarishi asosiy o'rin tutadi. Binobarin, atrof-muhit havosining kuchli ifloslanishi, ko'plab zavod va fabrikalar, transport serqatnov bo'lgan yirik industrial shaharlarda, ayniqsa, yaqqol sezilmoqda. Havo ifloslanishining inson salomatligi va umuman jonli tabiat taqdiriga ko'rsatayotgan bu salbiy ta'sirning kundan-kunga kuchayib borayotganligi butun insoniyatni tashvishga solmoqda. Atmosfera havosining ifloslanishi muammosi hozirgi fan-texnika inqilobi davridagi industrlanish va demografik o'sish jarayonlari tufayli yanada jiddiy tus olmoqda.

Odamlarning aybi bilan sayyoramiz qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganini biz allaqachon bilamiz. Va bu avvalgilarning emas, balki hozirgi avlodlarning aybi, chunki eng katta halokat faqat yigirmanchi asrda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda yuz bera boshladi.

Ekologik muammolar tobora ko'payib borayotgani odamlarni tashvishga solmoqda, ular orasida tabiat va ekologiya uchun haqiqiy kurashchilar bor.

Atrof-muhit holatini yaxshilash va ba'zi ekotizimlarni saqlab qolish uchun qo'riqxonalar va milliy bog'larni yaratish mumkin. Ular tabiatni asl shaklida saqlab qolishadi, qo'riqlanadigan hududlarda o'rmonlarni kesish va ov qilish taqiqlanadi. Bunday ob'ektlarni muhofaza qilish va tabiatni muhofaza qilish ular erlarida joylashgan davlatlar tomonidan ta'minlanadi.

Hozirgi vaqtda ushbu ta'sir tezligi ayniqsa oshib bormoqda. Biosfera holatini yomonlashtiradigan inson harakatlarining bir nechta namunalari: tabiiy resurslarning

tugab borayotgani, atrof muhitning ifloslanishi, eng so'nggi xavfli texnologiyalardan foydalanish. Shunday qilib, inson global ekotizimdagi o'zgarishlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishga qodir va uni yanada zaifroq qiladi.

Tabiatni asrashda milliy bog'larni tashkil qilishning ahamiyati katta. Bunday bog'larga kelgan park mehmonlari turli xil hayvonlarni xavfsiz masofadan kuzatish imkoniyatiga ega. Bu odamlar va tabiiy dunyoni yaqinlashtirishga yordam beradi. Bunday joylarda bolalarni tabiatga bo'lgan muhabbatni rivojlantirish va uni yo'q qilish mumkin emasligini o'rgatish uchun olib borish yaxshi. Natijada o'simlik va hayvonot dunyosi bog'larda va qo'riqxonalarda saqlanib qoladi va antropogen faollik bo'lmaganligi sababli biosferaning ifloslanishi bo'lmaydi.

**Xulosa:** Bu so'zlardan xulosa qilish keraki, atrof muhitga e'tiborliroq bolish lozim, hattoki bizning olayotgan nafasimiz ham havoning tarkibini o'zgartirishga sabab bo'ladi. Tabiatni buzayotgan biz insonlarmiz, unga zarar berish bilan cheklanib qolmay havoni ham zararlayabmiz. Buni oldini olmasak hayot yo'qolish arafasida deyavering, chunki kosmik kemalarni uchurib azon qatlamni teshayotgan biz noshukur insonlar, Atrofn chiqindiga toldrib, suvni chiqindiga to'ldirayotgan biz insonlar. Bu ketishda o'z biosferamizni o'zimiz yo'qqa chiqarishimiz turgan gap. Biroz shukur qilaylik va tabiatni asraylik.

#### **Adabiyotlar:**

R. Sultonov. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari.

V. Burigin, M. Marsinovskaya O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish. T.: «O'qituvchi», 1980.

Sh. Otaboyev, M. Nabiyeu Inson va biosfera. T.: «O'qituvchi», 1995.

O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasining ma'ruzalari. T.: «O'qituvchi», 2001y.

## **KO'ZDA UCHRAYDIGAN KASALLIKLARNI BARTARAF ETISH MAQSADIDA TABIIY O'SIMLIKlardan FOYDALANGAN HOLDA MALHAM TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI**

**Axmadjonova M.<sup>1</sup> Vahobova N.<sup>1</sup>**

1. Toshkent shahri, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti, 3-kurs 301-F guruhi talabasi, e-mail: [ahmadjonovam01@gmail.com](mailto:ahmadjonovam01@gmail.com), tel: +998338619518

2. Toshkent shahri, farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti, Farmakognoziya va botanika kafedrası assistenti, e-mail: [vaxabova@gmail.com](mailto:vaxabova@gmail.com), tel: +998977832846

**Annotatsiya:** maqolada oftalmologik kasalliklarda ko'zning uzoqning ko'ra olish qobiliyati susayishini oldini olish choralari bo'yicha so'z yuritilgan. Ko'zning zo'riqishi yoki zararlanishi oqibatida kelib chiqadigan kasalliklarni bartaraf etish uchun qo'llaniladigan tabiiy dorivor o'simliklardan tayyorlangan malham, ularning kimyoviy tarkibi, strukturaviy tuzilishi haqida ma'lumotlar to'plandi va ushbu maqolada malham tayyorlash texnologiyasi bayon etilgan.

**Kalit so'zlari:** konservatsiya, avtoklav, antioksidant, sterilizatsiya, biostimulyator, ekstrakt, eritma.

**Maqsad:** Odamning uzoqni ko'raolish qobiliyatini pasayishini olidini olish uchun tabiiy mahsulotlardan foydalangan holda, samarali va ko'rinishi qulay bo'lgan malham taklif qilish.

**Natija:** Tabiiy mahsulotlar sifatida haqiqiy aloy (*Aloe vera*) saburi, zafaron (*Crocus sativus* L.) quritilgan tumshuqchalari orqali malham tayyorlandi. Aloyning shirasini sof holatda olish maqsadida uning yangi yig'ilgan bargidan yoki yon novdalaridan presslash usuli bilan olindi. Ushbu shiraning 80 qismiga 20 qism spirt qo'shib, konservatsiya qilinadi. Shiraning hidi yoqimli, mazasi achchiq bo'ladi.

Akademik V.P.Filatovning ko'rsatishicha, har qanday o'simlik yoki hayvon to'qimasini organizmdan ajratib olib, noqulay (lekin o'ldirmaydigan) sharoitda saqlansa, to'qimada chuqur biokimyoviy o'zgarishlar yuz beradi. Normal moddalar almashinuvi jarayoni buziladi va hayot faoliyati so'na boshlaydi. To'qima o'z hayot faoliyatini tiklash uchun maxsus modda ishlab chiqaradi. Ana shu modda *biogen stimulator* deb ataladi.

Ushbu o'simlikdan biogen stimulyator modda olish maqsadida: aloyning qini bilan ko'chirib olingan yosh barglari 4-8°C haroratda va qorong'i yerda 12 sutka saqlandi. So'ngra barglami (tikanlarini olib tashlab) maydalab qirqib, bankalarga solindi. Bankalardagi barg avtoklavda 120°C haroratda sterilizatsiya qilindi. Biogen stimulatorlarga boy bargdan suvli suyuq ekstrakt olindi. Kimyoviy tarkibi: Bargning tarkibida sof va birikkan holdagi antratsen unumlari - aloin, nataloin, izoemodin, A va B aloinozidlar va boshqalar bo'ladi. Aloin gidrolizlanganda arabinoza va aloe-emolin-antraxinon yoki aloe-emodin-antranol hosil qiladi. Bulardan tashqari, sabur tarkibida smola, fenol xarakteriga ega bo'lgan kristall modda - aloyzol, oz miqdorda efir moyi va achchiq moddalar uchraydi. Ushbu tajriba orqali uning xususiyatiga tegishli iogen stimulatorli preparatlar ko'z kasalliklari (konyunktivit, ko'z shishasimon tanachasining xira tortishi) da, Aloy bargining konservatsiya qilingan shirasi bakteritsid xususiyatga ega bo'lib, kuygan joyni, va yaralarni davolashda ishlatiladi.

Zafaron o'simligining onalik tumshuqchalari gulning ochilgan paytida yig'ib olinib, kukun shakliga keltirilgan holda foydalaniladi. Tarkibida turli xil efir moylari malhamga xushbo'y hid beradi. Tarkibidagi Vitaminlar hususan A (retinol) ko'zning qon aylanish tizimi buzilganda yana doimiy holatga qaytishini ta'minlaydi, vitamin E (tokoferol) esa ko'zning zararlangan yerini tiklanishi uchun yordam beradi. Uning eritmasidan tayyorlangan malham Miopiya, katarakta, glaukoma kasalligi oldini olish maqsadida ishlatildi. Sababi tarkibidagi antioksidantlar ko'z nervini zo'riqish davrida (uzoq muddat texnik vositalarga yaqindan qarash yoki doimiy yaqindagi narsalar bilan ishlash) uni tichlantiruvchi vositadir.

Aloydan biogen stimulatorlarga boy bargdan suvli suyuq ekstrakt olingandan so'ng ustiga maydalanga zafaron o'simligining onalik tumshuqchlari qo'shildi va tumshuqchani 60%i eriguncha aralashtirildi. So'ng unga 1:2 nisbatda glitserin qo'shildi. Sababi glitserin ko'z atrofini yumshatib mahsulotni yaxshi singishi uchun yordam beradi. Tabiiy selyulozadan tayyorlangan mahsulotni ko'z uchun kerakli shaklga keltirildi va eritma shimdiriladi. Mahsulotni kuniga 3 martagacha qo'llash tavsiya qilinadi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki juda ko'plab o'simliklarni dorivorlik xususiyati bor. Kasalliklarni davolashda tabiiy vositalardan foydalanish organizm uchun ko'proq foyda beradi. Ko'zning nurini pasayishini oldini olish uchun yuqorida keltirib o'tilgan dorivor o'simliklardan foydalangan holatda malham tayyorlash, ko'z nurini saqlab, ko'p yillar davomida odam uchun xizmat qilishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Abu Ali Ibn Sino Tib qonunlari kitobi II tom. - Toshkent, "Sharq" 2020.- 776 bet
2. Abu Ali Ibn Sino Tib qonunlari kitobi V tom. - Toshkent, "Sharq" 2020.- 776 bet
3. H. X. Xolmatov, O'. A. Ahmedov FARMAKOGNOZIYA II QISM. - Tashkent, "Fan"- 2007
4. H. X. Xolmatov, O'. A. Ahmedov FARMAKOGNOZIYA I QISM. - Tashkent, "Fan"- 2007

## **SEDATIV XUSUSIYATIGA EGA BO'LGAN TABIIY DORIVOR O'SIMLIKlardan YIG'MA CHOY TAYYORLASH**

**Axmedova D.B.<sup>1</sup>, Atamuratova N.T.<sup>2</sup>**

1. Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti 2 kurs, 203-guruh talabasi, e-mail: nafis\_1980@mail.ru, tel:+998999907222
2. Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti, Farmakognoziya va botanika kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dorivor o'simliklar yordamida inson organizmiga samarali ta'sir qiladigan, asab - tizimini tinchlantiruvchi yangi komponentli yig'ma choy va o'simliklarning dorivorlik xususiyati adabiyotlardan tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** dorivor o'simliklar xomashyosi, yig'ma choylar, shifobaxsh, tog'rayhon, arslonquloq, do'lana, tog'jambil, yalpiz.

**Maqsad:** So'ngi yillarda dorivor o'simliklar xomashyosiga bo'lgan talab sezilarli darajada oshmoqda. Dorivor o'simliklardan tayyorlangan yig'ma choylar ham o'zining dorivorlik xususiyatiga ega bo'lib ko'pgina kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Dorixonalarda shifobaxsh va terapevtik ta'sirga ega bo'lgan juda ko'p turdagi o'simlik choylari mavjud. Fitochoylar nafaqat mazzali, balki juda foydali bo'lib, mutlaqo tabiiy, kimyoviy qo'shilmalar va bo'yoqlarni o'zida saqlamaydi[1,2].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda sedativ ta'sirga ega bo'lgan yig'ma choyning yangi kompozitsiyasini yaratish va tarkibidagi o'simliklarning dorivorlik xususiyatini adabiyotlardan tahlil qilishni maqsad qildik.

**Natija:** Shahar shovqini, tirbandliklar, atrof-muhitning ekologik muammolari hisobiga inson organizmini stress holatiga olib kelmoqda. Shu munosabat bilan asab-tizimini tinchlantiruvchi dorivor o'simliklardan tayyorlangan yig'ma choy yangi kompozitsiyasini tayyorladik. Yig'ma choy tarkibiga tog'rayhon, arslonquloq, do'lana, tog'jambil va yalpiz o'simliklarini tanladik.

Maydagulli tog'rayhon (*Origanum tythanthum* Gontsch.) – Lamiaceae oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik. Bo'yi 30-60 sm, tik o'suvchi, uchki qismi shohlangan. Barglari oddiy, cho'ziq tuxumsimon, poyada qarama-qarshi joylashgan. Gullari

mayda, och siyoh rangli, tirs to'pgullarga to'plangan. Mintaqamizda iyul-avgust oylarida gullaydi. Kimyoviy tarkibiga ko'ra oshlovchi moddalar, askorbin kislotasi, flavanoidlar va efir moy saqlaydi. Tibbiyotda markaziy asab - tizimiga tinchlantiruvchi ta'sirga ega. Shuningdek oshqozon sekresiyasini va ichaklar peristatelkasini oshiradi. Nafas yo'llari kasalliklarida ham qo'llaniladi[3].

Turkiston arslonqulog'i (*Leonorus turkestanikus* Krecz.&Kuprian.) – Lamiaceae oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik. Bo'yi 40-150 sm, poyasi sertukli. Barglari oddiy, barg asosi keng tuxumsimon yoki rombsimon, uch-besh kesikli. Gullari mutovkasimon to'pgullarda to'plangan. Gultoji barglari pushti-siyoh rangli. Iyun-iyul oylarida gullaydi. Kimyoviy tarkibiga ko'ra staxidrin, flavonoidlar, fenolkarbon kislotalari, oshlovchi kislotalar va saponinlar mavjud. Tibbiyotda suvli va spirtli ekstrakti yurak kasalliklarida va asab tizimini tinchlantiruvchi ta'sirga ega.

Zarafshon tog'jambili (*Thymus seravchanicus* Klok.) – Lamiaceae oilasiga mansub ko'p yillik, asosi yog'ochlashadigan yarimbuta. Gul hosil qiladigan poyalari ko'tarilib yoki tik o'suvchi, sertukli. Barglari suprotiv, qisqa bandli, cho'ziq-ellipsimon. Gullari mayda, ikki labli, boshcha to'pgullarga to'plangan. Kimyoviy tarkibi timol, simol, karvakrol, borneol kabi efir moylari, oshlovchi moddalar, flavanoidlar va olein kislotalari mavjud. Tibbiyotda ishtahani ochuvchi, oshqozon-ichak, nafas yo'llari kasalliklarida, shuningdek asabni tinchlantiruvchi sifatida qo'llaniladi.

Turkiston do'lanasi (*Crataegus turkestanica* Pojark.) Rosaceae oilasiga mansub, daraxt. Barglari keng asosli, 5-7ta bo'lakli kesik barg. Gullari 12-15 tadan qalqon to'pgulga yig'ilgan. Mevalari yirik, bir danakli. Iyun oylarida gullab, sentyabr oylarida mevalari yetiladi. Meva tarkibida uglevodlar 9,9%, saxaroza 0,3%, pektinlar 4,6%, askorbin kislotasi va oshlovchi moddalar mavjud. Tibbiyotda gul va mevasi yurak faoliyati kasalliklarida - gipertoniya, stenokardiya, antigionevroz, klimakterik nevrozlarda qo'llaniladi.

Qalampir yalpiz (*Mentha piperita* L.) Lamiaceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasi shoxlangan, to'rt qirrali. Barglari yumaloq-ellipsimon har xil kattalikda, poyada qarama-qarshi joylashgan. Gullari mayda, boshhoqsimon to'pgullarga to'plangan. Iyul va avgust oylarida gullaydi. Tarkibida efir moylardan-mentol, menton, metilasetat, karotinlar va organik kislotalar saqlaydi. Tibbiyotda og'riq qoldiruvchi, spazmlarda va tinchlantiruvchi dori vositalari sifatida qo'llaniladi[3].

**Xulosa:** Yig'ma choylarning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lishi maqsadida tarkibiga kiruvchi dorivor o'simliklar yetarli xomashyo bazasiga ega bo'lishi, biologik faol modda saqlaydigan o'simliklar ro'yhatini kengaytirish, organoleptik xususiyatlariga e'tibor qaratish, ya'ni rangi, ta'mi va hidi yoqimli bo'lishi maqsadga muvofiq.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Драчева Л. В., Зайцев Н. К., Жарикова О. А. Антиоксидантная активность травяных чаев // Инновационные продукты питания. 2011. № 1. С. 32–34.
2. Клинецевич В. Н., Бушкевич Н. В., Флюрик Е. А. Фиточай: состав, свой-

ства, производство (обзор) // Труды БГТУ. Сер. 2, Химические технологии, биотехнологии, геоэкология. 2021. № 1 (241). С. 5–23.

3. Хожиматов К.Х., Хожиматов О.К., Собиров У.А. Сборник правил пользование объектами лекарственных, пищевых и технических растений. -Ташкент: Янги аср авлоди, 2009. С. 4-170.

## ***MOYCHECHAK (CHAMOMILLA MATRICARIA L.) QURUQ EKSTRAKTINING TERI KASALLIKLARIDAGI AHAMIYATI***

***Muhitdinova S.M<sup>1</sup>, Foziljonova M.SH<sup>2</sup>***

1. Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti 1-bosqich magistratura talabasi, e-mail: [fttisojidaxon@mail.ru](mailto:fttisojidaxon@mail.ru), tel:+998971100204.

2. Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti Farmatsevtik texnologiya kafedrasida dotsenti.

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda dermatozlar bilan kasallanish darajasi, kasbiy allergodermatozlarning rivojlanishi uchun ekzogen va endogen xavf omillari keltirilgan. Kasbiy dermatozlarning bemorlarning kundalik va kasbiy faoliyatiga salbiy ta'siri tasvirlangan, ularning hayot sifatini va mehnat unumdorligi pasaytiradi. Atopik va allergik dermatitning patogenezi, klinik va laboratoriya ko'rsatkichlari ko'rib chiqiladi [1]. Dermatitlarni davolashda mahalliy dorivor o'simliklardan foydalanish keng samara bermoqda.

**Kalit so'zlar:** dermatit, moychechak, efir moyi, damlama, atopik dermatit.

**Maqsad.** Ushbu tadqiqotning maqsadi teri kasalliklarida keng qo'llaniladigan mahalliy dorivor o'simliklarning PubMed, GoogleScholar va Springerda keltirilgan maqolalarni taqqoslash hamda adabiyotlar tahlilini o'rganish. Bunda ilmiy ishning ob'ekti sifatida, moychechak o'simligi belgilab olindi hamda uning tarkibi va dorivor xossalari to'g'risida ma'lumotlar to'plandi.

**Natija.** Moychechak turlari astradoshlar (Murakkabguldoshlar) Asteraceae (*Compositae*) oilasiga kiradi. Geografik tarqalishi Kavkaz, Yevropa janubi, Krim, Ukrainada, begona o't sifatida ekinzorlarda o'sadi.

Tibbiyotda moychechak turlarining guli ishlatiladi. Moychechak turlarining guli tarkibida 0,12-0,8% efir moyi, flavon, glikozidlar (apiin, kvertsimeritrin va boshqalar, matrikarin, proxamazulen, kumarinlar (umbelliferon, gerniarin), karotin, vitamin C, shilliq, achchiq va boshqa moddalar bor. Efir moyi 1,64-8,99 % xamazulen, 20 % gacha seskviterpen spirtlar, kadinen va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan.

Gulining damlamasi me'da-ichak (ichak yopishib qolganda va ich ketganida) va ginekologik kasalliklarni davolashda hamda teri kasalliklarida va yel xaydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Moychechak guli yana ichni yumshatuvchi, antiseptik va yallig'lanishga qarshi (og'iz, tomoq chayishda hamda shifobaxsh vanna) dori sifatida ishlatiladi. Moychechak guli me'da kasalliklarida, tomoq chayishda ishlatiladigan va ich yumshatuvchi yig'malar -choylar tarkibiga kiradi [2].

Misir Respublikasi Aleksandriya Paros universiteti olimlari Noxa Salamuni va uning hamkasblari tomonidan moychechak yog'idan olingan nanoemulsiya ko'rinishidagi

gel sichqonlarda atopik dermatitni davolashda tekshirilgan va ijobiy natijalar keltirilgan [3].

Farmatsiya bo'limi, Farmatsevtika kolleji, Shensi Xitoy tibbiyot universiteti, Syanyan, Xitoy va boshqa farmatsevtik tashkilotlar bilan birgalikda moychechak o'simligi ekzema kasalligini davolashda yangi farmokologok usullardan foydalangan holda o'rganilgan [4].

### **Adabiyotlar**

1. Измерова Н. И. и др. Профессиональные заболевания кожи как социально-экономическая проблема // Медицина труда и промышленная экология. – 2013. – №. 7. – С. 28-33.
2. X. X. Xolmatov, A. I. Qosimov, Toshkent Ibn Sino nashiryoti 1994, 130-131 betlar.
3. El-Salamouni, N. S., Ali, M. M., Abd El-Hady, S. A., Kandil, L. S., El Batouti, G. A., & Farid, R. M. (2019). Evaluation of chamomile oil and nanoemulgels as a promising treatment option for atopic dermatitis induced in rats. Expert Opinion on Drug Delivery. doi:10.1080/17425247.2020.1699054
4. Grimme H, Augustin M. Phytotherapie bei chronischen Dermatosen und Wunden: Was ist gesichert. [Phytotherapy in chronic dermatoses and wounds: what is the evidence]. Forsch Komplementarmed. 1999 Apr;6 Suppl 2:5-8. German. doi: 10.1159/000057139. PMID: 10352374.

## **QANDLI DIABET KASALLIGINING II TIPINI DAVOLASH UCHUN QO'LLANILADIGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR SHARHI**

Soliyeva Sh.A.1 Foziljonova M.Sh.2

3. Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti 1-kurs magistratura talabasi, e-mail: shaxnozasoliyevaftti27@gmail.com, tel: +998974558668.

4. Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti, Farmatsevtik texnologiya kafedrasida dotsenti, f.f.d.

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda qandli diabet kasalligi butun dunyo miqyosidagi global muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Dunyo miqyosida 20-79 yoshdagi taxminan 537 million kattalar qandli diabet bilan aziyat chekadi va bu ko'rsatkich 2045 yilga kelib 55 mln ya'ni 129% ni tashkil etadi [1]. Qandli diabetning II tipini nafaqat sintetik dori vositalari yordamida, balki kundalik turmushda keng foydalaniladigan foydali va dorivor xususiyatli o'simliklar bilan davolash ham alohida ahamiyatga ega. Diabetni davolash amaliyoti uchun biologik faol birikmalar sifatida inulinni o'z ichiga olgan dorivor o'simliklarni o'rganish hozirgi kunda katta qiziqish uyg'otadi.

**Kalit so'zlar:** qandli diabet, galega, oddiy sachratqi, metformin.

**Maqsad:** Ushbu tadqiqotning maqsadi qandli diabetning II tipida keng qo'llaniladigan mahalliy dorivor o'simliklarning PubMed, GoogleScholar va Springerda keltirilgan maqolalarni taqqoslash hamda adabiyotlar tahlilini o'rganish. Bunda ilmiy ishning ob'ekti sifatida galega, oddiy sachratqi o'simliklari belgilab olindi hamda ularning tarkibi va dorivor xossalari to'g'risida ma'lumotlar to'plandi.

**Natija:** Galega officinalis L (Козлятник) gipoglikemik ta'sirga ega istiqbolli dorivor o'simlik. Galega officinalis L ning qandli diabetning patologik jarayoning turli qismlariga ijobiy ta'siri o'simlikdan ajratilgan biologik faol moddalar majmuasining

tarkibi bilan izohlanadi. Guanidin alkaloid galegin karbamid biosintezining oraliq mahsuloti bo'lib, qandli diabet bilan og'riqan bemorlarni davolashda ishlatiladigan sintetik gipoglikemik dorilar guruhi (masalan, metformin), biguanidlarga o'xshash ta'sir ko'rsatishi mumkin. Galegin va metforminning farmakologik faolligining o'xshashligi ushbu moddalarning kimyoviy tarkibining o'xshashligi bilan bog'liq. Adabiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, galega officinalis L va metformin preparatini o'z ichiga olgan guanidin gipoglikemik faollikka ega, insulinni peptidazalar tomonidan yo'q qilishdan himoya qiladi, glyukozaning hujayralarga o'tkazilishini va uning metabolizmini yaxshilaydi, yog'lardan oqsil sintezini rag'batlantiradi va glyukoneogenezni bostiradi [2].

Oddiy sachratqi (*Cichrium inthybus* L). ko'p yillik o't o'simlikdir. Bo'yi 90-110 (125) sm gacha yetadi. Poyasi tik tukchalar bilan qoplangan, shoxlangan. Uning ildiz osti barglari teskari tuxumsimon cho'ziq, cheti qirqilgan, to'p barglari bandli. Poyada barglari lansetsimon yirik tishsimon qirrali (yuqori qismdagilari tekis qirrali) bo'lib poyada bandsiz ketma-ket o'rnanishgan, asosan poyani o'rab turadi. Poyaning yuqori qismidagi barglar yaxlit qirilmagan. Savatchalari poya va yon novda uchlarida to'p bo'lib yoki bittadan joylashgan qisqa gul bandlidir. Gullari ko'k havo ranglidir. Sachratqi o'sish sharoitiga qarab iyundan to oktyabrgacha gullaydi va urug'i yetiladi. Mevasi sarg'ish qo'ng'ir rangli uchmali pista[3]. Sachratqi ildizi tarkibida qimmatli modda 60% gacha inulin mavjud bo'lib, metabolizmni yaxshilaydi va ovqat hazm qilish tizimining faoliyatini normallashtiradi. Shu bilan bir qatorda tinchlantiruvchi, shakar miqdorini pasaytiruvchi, o't va siydik haydovchi, isitma tushuruvchi, yallig'lanishga qarshi vosita sifatida ham keng foydalanib kelinmoqda [4].

**Xulosa:** Adabiyotlar tahlili natijasida xalq va ilmiy tabobatda keng qo'llaniladigan mahalliy dorivor o'simliklar hozirgi kunda muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinayotganligi aniqlandi. Qandli diabet kasalligini davolashda *Galega officinalis* L va *Cichrium inthybus* L o'simliklarining samaradorligining olimlar tomonidan o'rganilayotganligi tahlil qilindi. Ushbu o'simliklar asosida samarali yig'ma choy texnologiyasi ishlab chiqish tadqiqotlari olib borilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. <https://www.afro.who.int/health-topics/diabetes>
2. Мартынич И. А., Трумпе Т. Е. ГАЛЕГА ЛЕКАРСТВЕННАЯ (*GALEGA OFFICINALIS* L.)-ПЕРСПЕКТИВНОЕ РАСТЕНИЕ ГИПОГЛИКЕМИЧЕСКОГО ДЕЙСТВИЯ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ) //Перспективы лекарственного растениеводства. – 2018. – С. 679-683.
3. Muxtaram A., Guli G., Shaxnoza D. QOQIO 'TDOSHLAR OILASIGA MANSUB AYRIM DORIVOR O 'SIMLIK LARNING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 37. – №. 5. – С. 67-69.
4. Botirovna S. M. et al. SACHRATQI-CICHORIUM INTYBUS L. NING DORIVORLIK XUSUSIYATI VA YETISHTIRISH AGROTEKNOLOGIYASI //INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 369-374.



## ЁНҒОҚ – ГИЖЖА ҲАЙДОВЧИ ТАБИИЙ МАҲСУЛОТ

Ахмедова Ф.Х. <sup>1</sup>, Рахимова Г.Қ. <sup>2</sup>

1. Тошкент ш., Фармацевтика таълим ва тадқиқот институти 1-курс магистратура талабаси, e-mail: [farahnozahmedova@mail.ru](mailto:farahnozahmedova@mail.ru), тел.: +998909364436.

2. Тошкент ш., Фармацевтика таълим ва тадқиқот институти, Фармакогнозия ва ботаника кафедраси доценти.

**Аннотация:** Фармакологик таъсирининг кенг доираси туфайли грек ёнғоғи маҳаллий аҳоли томонидан узоқ вақтдан бери турли касалликларни даволашда ишлатилган. Тадқиқотчиларнинг алоҳида эътиборини уларнинг ҳали пишиб етилмаган яшил пўстлоғидан тайёрланган дамламани қон кетишини тўхтатишда ҳамда одам организмида паразитлик қилувчи думалоқ паразитлар – аскаридаларни ҳайдашда фойдаланган, яллиғланишга қарши, яраларни даволаш фаолияти жалб қилади.

**Калит сўзлар:** гельминтоз, гижжа ҳайдовчи, грек ёнғоғи (*Juglans regia* L.), “Тиб қонунлари”.

**Мақсад:** Ёнғоқ ўсимлигини илмий тиббиётга тадбиқ қилиш учун адабиётлар таҳлилини олиб бориш.

**Натижа:** Гельминтозлар – бу катталар ва болалар организмига махсус паразитлар – гельминтлар кириши натижасида келиб чиқадиган ўткир юқумли касалликлардир. Фақат бизнинг мамлакатимиз худудида паразитларнинг 60 дан ортиқ тури мавжуд.

Болаларда гелминтозлар овқатланиш ва жисмоний ривожланишнинг бузилишига олиб келади. Репродуктив ёшдаги қизлар ва аёлларда гижжалар билан зарарланиши натижасида қон йўқотиш темир танқислиги анемиясини кучайтиради ҳамда оналар ва чақалоқлар ўлими, кам вазнли чақалоқлар туғилиши хавфини оширади.

Гижжа ҳайдовчи препаратларни пала-партиш қўллаш жигар ва унинг фаолиятини издан чиқариши мумкин. Шу сабабли таркиби ўсимликлар асосида тайёрланган дори препаратларини қўллаш мақсадга мувофиқдир. Масалан, бундай ўсимликларга мисол қилиб ёнғоқнинг яшил пўстлоғи ва барги, қалампирмунчоқ меваси, саримсоқпиез меваси, тирноқгул гуллари, зира уруғлари, кабиларни мисол қилиб келтириш мумкин. Ушбу ўсимликлардан тайёрланган препаратлар енгил ич суриш ва детоксикация қилиш хусусиятига эга.

Грек ёнғоғи (Орех грецкий) - *Juglans regia* L. Грек ёнғоғи Ёнғоқдошлар - Juglandaceae оиласига мансуб бўлиб, баландлиги 20, баъзан 35 м гача етадиган сершоҳ йирик дарахт. Барглари 3-5 бўлакли, ток; патли мураккаб бўлиб, пояси билан шохларида банди ёрдамида кетма-кет ўрнашган. Бўлакчалари қалин, ўзига хос хидли, қисқа бандли, тухумсимон, тухумсимон-ништарсимон ёки чўзиқ тухумсимон ва ўткир учли. Майда, кўримсиз, бир жинсли гуллари кучала тўпгулга (оталик гуллари) ёки бир йиллик шохларига якка, 2-3 тадан, баъзан 5 тадан жойлашган. Меваси - сохта, данакли (ёнғоқли) мева.

Асосан Ўрта ва Ғарбий Осиё – Ўзбекистон, Қирғизистон, Тожикистон, Туркменистон, Афғонистонда тарқалган. Шунингдек, Ҳималай, Корея, Хитой, Япония мамлакатларида ҳам ўсади. Умр кўриш давомийлиги 300 - 400 йил.

Ёнғоқ мағзи калий, фосфор, магний, кальций, рух, темир, натрий каби микро ва макроэлементларга бой. Шунингдек, витаминлардан С, РР, Е, В<sub>6</sub>, В<sub>1</sub>, В<sub>2</sub>, А лар мавжуд. С дармондорисининг миқдори, айниқса, ушбу кўрсаткич бўйича халқ орасида етакчи ҳисобланган лимонга қараганда 40 - 50 марта, қора смородинага нисбатан эса 8 - 10 баробар кўп. Рух миқдори бўйича грек ёнғоғи ушбу элемент миқдори энг кўп бўлган топ 10 талик табиий маҳсулотлар қаторига киради. Витаминлар ва минералларга қўшимча равишда ёнғоқ мағзида турли хил глицеридларини сақловчи фойдали ёғ кислоталари ( стеарин, пальмитат, линолен, олеин кабилар) мавжуд. Абу Али Ибн Сино машҳур “Тиб қонунлари” асарида ёнғоққа шундай таъриф беради: “Ёнғоқ, айниқса, қовурилгани киндик устига сепилса, ичак оғриқларини босади ва ични тўхтатади. Ёнғоқнинг қобиғи ҳайз қонининг кетиб туришини тўхтатади. Ёнғоқ мураббоси совуқ мизожли буйракка жуда фойдалидир. Қобиғининг кулини шароб билан ичилса ва кўтарилса, ҳайз қонини тўхтатади. Мураббо билан ейилса, ични юргизади. Буни истеъмол қилиш майда гижжаларни ва қовоқ уруғисимон гижжани ҳайдайди. Ёнғоқ кўричакнинг ўзига фойда қиладиган нарсалардандир”.

**Хулоса:** Ёнғоқ ўсимлигининг ушбу хусусиятларидан маълумки, унинг яшил пўстлоғидан халқ табobatiда ва замонавий тиббиётда гижжа ҳайдовчи восита сифатида ишлатилади.

#### **Адабиётлар:**

1. <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/soil-transmitted-helminth-infections>.
2. Bi D, Zhao Y, Jiang R, Wang Y, Tian Y, Chen X, Bai S, She G. Phytochemistry, Bioactivity and Potential Impact on Health of Juglans: the Original Plant of Walnut. Nat. Prod. Commun 2016 Jun;11(6).
3. Baer DJ, Gebauer SK, Novotny JA. Walnuts Consumed by Healthy Adults Provide Less Available Energy than Predicted by the Atwater Factors. J Nut. 2016 Jan;146(1):9-13.
4. Soriano-Hernandez AD, Madrigal-Perez DG, Galvan-Salazar HR, Arreola-Cruz A, Briseño-Gomez L, Guzmán-Esquivel J, Dobrovinskaya O, Lara-Esqueda A, Rodriguez-Sanchez IP.

### **ZANJABIL ILDIZPOYASIGA SHARH**

Shukurullayeva N.E<sup>1.</sup>, Raximova G.Q<sup>2.</sup>

1. Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti, 1-kurs magistratura talabasi, e-mail: [nazokatshukurullayeva1@gmail.com](mailto:nazokatshukurullayeva1@gmail.com), tel:+998977316397
2. Toshkent sh, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti, farmakognosiya va botanika kafedراسи dotsenti.

**Аннотация:** Dorivor zanjabil biologik faolligi keng spektrga ega bo'lgan, ko'p qirrali dorivor o'simliklardan biri hisoblanadi. Uning dorivorlik xususiyatlari gingerol, paradol va shogaollarning mavjudligi bilan bog'liq. Hozirgi kunda zanjabilga qiziqish

kundan kunga ortib bormoqda va faol moddalarni ajratib olish, davolash uchun uning farmakologik ta'sirini ilmiy tekshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Kalit so'zlar:** zanjabil ildizpoyasi, gingerol, efir moyi.

**Maqsad:** Zanjabil o'simligini ilmiy tibbiyotga tadbiiq qilish uchun adabiyotlar tahlilini olib borish.

**Natija:** Zanjabilning vatani – Janubiy Osiyo. Hozirgi kunda zanjabil bilan asosiy ta'minlovchi davlatlar Hindiston, Xitoy, Nigeriya, Indoneziya, Nepal, Tailand, Bangladeshdir. Umumjahon bo'yicha, zanjabil ekiladigan maydonlarning jami 56,23% ni qamrab olgan holda, Nigeriya birinchi o'rinda turadi, keyingi o'rinlarda Hindiston (23,6%), Xitoy (4,47%), Indoneziya (3,37%) va Bangladesh (2,32%) hisoblanadi. Dunyo bo'yicha zanjabil ishlab chiqarish tahlil qilinganda, Hindiston birinchi o'rinda turishi, dunyo ishlab chiqarishining qariyb 48% ni tashkil qilishi, undan keyin Nigeriya 17% va Xitoy 14% natija bilan jahon bozorida yetakchilik qilishi aniqlandi. Zanjabil ishlab chiqarish bo'yicha qit'alar tahlil qilinganda va Osiyo qit'asi eng ko'p miqdorni tashkil qilishi, keyingi o'rinlarda Afrika, Amerika, Okeaniya ekanligi aniqlandi [1]. Food and Agriculture Organization of the United Nations ma'lumotlariga ko'ra zanjabil ishlab chiqarish 2012-yilda 2491849 tonna, 2021-yilda 4895972 tonnani tashkil qilgan [2]. Zanjabil o'simligi uchun Yaponiya va AQSH asosiy importyorlar bo'lib, Hindiston asosan butun va quruq zanjabil shaklida eksport qiladi. Xitoy, Nigeriya va Tailand so'nggi yillarda jahon bozorida Hindiston bilan raqobatlashmoqda. Zanjabil Hindistonning deyarli barcha shtatlarida yetishtiriladi. Biroq mamlakatning umumiy ishlab chiqarishining 70% hissasi Kerala, Meghalaya, Arunachal Pradesh, Mizoram, Sikkim, Nagaland va Orissa Shtatlariga to'g'ri keladi. Sifat jihatidan Yamayka va Hind zanjabilari, keyin esa G'arbiy Afrika navlari ustunlik qiladi. Janubiy Osiyo mintaqasida zanjabilning bir nechta gibril navlari yetishtiriladi. Biroq navlar iqlim, tuproq va mahalliy sharoitga bog'liq. Yuqori mahsuldor navlar: Maran, Karakkal, Rio de Janeiro va Mahim hisoblanadi. Tarkibi kamroq tolali: Jamaica, Bangkok va China Thingpuri navlari mavjud. Hosildorlikni ta'minlashda zanjabil ekish vaqtida ildizpoyalari unib chiqqunga qadar mo'tadil namlikni, o'sish davrida yetarlicha kuchli va taqsimlangan yomg'irni va hosilni yig'ishdan oldin taxminan bir oy davomida quruq ob-havoni talab qiladi. Zanjabil qumli tuproqda yaxshi o'sadi. Gomonusga boy yumshoq tuproq ideal hisoblanadi. Biroq, yuqori hosil olish uchun, zanjabilni har yili bir joyda yetishtirish maqsadga muvofiq emas. Asosan ochiq maydonlarda keng miqyosda yetishtiriladi, qisman soyada yaxshi o'sadi [3].

Zanjabilning yig'im davri odatda ekishdan 6-8 oy o'tgach, barglar sarg'ayib, butunlay quriganda amalga oshiriladi. Ildizpoyalar qazib olinadi, tuproqdan tozalanadi, 2-3 marta suvda yuviladi va ularni 2-3 kun davomida soyada quritiladi. So'ngra zanjabilning tashqi teri qismi tozalanadi va 1hafta davomida quyoshda quritiladi.

Mahsulotning tashqi ko'rinishi yon tomondan siqilgan, yuqori tomonida qisqa, yassi, tuxumsimon va qiya shoxlari bor. Ildizpoyalarining uzunligi 5-15 sm gacha, kengligi 3-6 sm gacha va qalinligi 1,5 sm. Tashqi tomoni och rangda, ichi och sarg'ish rangda, xushbo'y hidli, yoqimli va o'tkir ta'mli, qalin qobiqli [4].

Zanjabilning kimyoviy tarkibida 400 ga yaqin foydali elementlar mavjud. Ushbu ildiz o'z tarkibida juda kerakli bo'lgan aminokislotalar, uglevodlar, oz miqdorda yog', ko'p

miqdorda selliyulozani saqlaydi. Zanjabil vitaminlarga juda boy (V-guruh vitaminlari, askorbin klotasi, tokoferol, vitamin K ni alohida ta'kidlash kerak). U o'zining tarkibida kaliy, fosfor, magniy, temir, kalsiy, rux va shu kabi boshqa mikro va makroelementlarni, efir moyini saqlaydi. Zanjabil og'izda issiqlik hissi tug'diradigan gingerol 1-3%, shogaol 0,5-1%, paradol va zingeron 0,5%gacha kabi uchuvchan bo'lmagan, kuchli xususiyatlarni o'z ichiga olgan biologik faol tarkibiy qismlaridan iborat va ular fenol birikmalari hisoblanadi. Yangi zanjabilida gingerollar 6-gingerol, 8-gingerol va 10-gingerol kabi asosiy polifenollardir. Issiqlik bilan ishlov berish yoki uzoq saqlash bilan gingerollar mos keladigan shogaollarga aylanishi mumkin. Hidrogenatsiyadan so'ng shogaollar paradollarga aylanadi.

**Xulosa:** Zanjabil o'simligini ilmiy tibbiyotga tadbiiq qilish uchun zanjabil o'simligining morfologiyasi, geografik tarqalishi, mahsulotini tayyorlash, mahsulotining tashqi ko'rinishi, kimyoviy tarkibi va ishlatilishi haqida adabiyotlar tahlili o'tkazildi.

#### **Adabiyotlar**

1. <http://www.fao.org/faostat/en/#data/QCL/visualize>
2. <https://scienceagri.com/10-words-biggest-ginger-producing-countries/>
3. Jyotsna Dhanik, Neelam Arya and Viveka Nand. A Review on Zingiber officinale//Journal of Pharmacognosy and Phytochemistry 2017; 6(3): 174-184 p
4. Ambre SG, Gaikar VS, Sharmale MN, Mhaske PB, Phalke PL. Pharmacognostic study of zingiber officinale.// IP International Journal Comprehensive and Advanced Pharmacology 2023;8(3):138-142p.

### **BROKKOLI O'SIMLIGINI FARMAKOGNOSTIK O'RGANISH**

**FAYZULLAYEVA S.B.<sup>1</sup>, MARADJAPOVA L.A.<sup>2</sup>**

1. Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti F-fakulteti 312-guruh, 3-bosqich talabasi, e-mail: [fayzullayevasevinch23@gmail.com](mailto:fayzullayevasevinch23@gmail.com) +998906814242

2. Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instuti Farmatsevtik botanika va farmakognoziya kafedrasida katta o'qituvchisi Farmatsevtika fanlari nomzodi Maradjapova.L.A.e-mail: [maradjapova.lobar@gmail.com](mailto:maradjapova.lobar@gmail.com)

**Annotatsiya:** Brokkoli – karamdoshlar oilasiga mansub, bir yillik o'simlik, gulkaramning o'zgargan turi hisoblanadi. Janubiy Italiya brokkolini vatani bo'lib, qadimgi Rimda uni 2 ming yil oldin ham yetishtirilgan. Bu ekin Italiyadan Vizantiyaga, keyinchalik esa boshqa Yevropa davlatlariga keng tarqalgan. AQSHda karamning bu turi 1925 yildan beri ekib kelinadi va bugungi kunda maydoni gulkaramnikidan ham ko'payib ketgan. Hozirgi vaqtda brokkoli yetishtirish Yaponiya, Italiya, Germaniya, Angliya, Fransiya, Kanada, Shvetsiya, Polsha, Rossiya, Ukraina va boshqa mamlakatlarda sezilarli darajada ko'paygan. Mamlakatimizda brokkoli noan'anaviy, kam tarqalgan sabzavot ekinlariga kiradi. Uni ayrim havaskor sabzavotkorlar cheklangan miqdorda yetishtirib supermarket hamda bozorlarda sotmoqdalar.

**Kalit so'zlar:** Brokkoli, sulforan, uglevod, vitamin, foydali xususiyatlari, karam, supermarket, saxaroza, kraxmal, kletchatka, kapsula, pektin.

**Maqsad:** Brokkolini foydali xususiyatlari hozirgi kunda juda ham ko'p o'rganilgan. Ammo brokkoli o'simligi uchun Farmakopeya maqolasi mavjud emas. Bizning asosiy

maqsadimiz brokkoli o'simligi uchun Farmakopeya maqolasi tuzish, uning mikroskopiyasini o'rganish. Yana brokkoli karamidan kapsula holdagi dori turini taklif etamiz.

**Natija:** Brokkoli tarkibida saraton kasalliklari va sekretsiyalaridan himoya qiluvchi sulforafan moddasi mavjud. U organizmni rak xujayralarining tarqalishidan himoya qiladi va qarish jarayonini sekinlashtiradi.

Brokkoli koronavirus bilan kurashishga yordam beradi. Brokkoli karamida ko'plab uglevodlar borligini, uning poyalari qandga boy ekanligini tekshirdik. Jami shakar miqdori 1,5–3,8 foizni tashkil etib, uning umumiy miqdorini 5–10 foizini saxaroza, 0,4–0,5 foizini kraxmal, 0,7–1,2 foizini kletchatka tashkil etadi.

Brokkoli tarkibida vitaminlar, pektin va yumshoq kletchatkani, xolin hamda metionin moddalarini, shuningdek, mineral tuzlar va boshqa biologik faol moddalari mutanosibli turli yoshdagi insonlar uchun juda muhim parhez mahsulot ekanligidan dalolat berdi. Uning mahsulotidan nurlanish kasalliklarini davolashda samarali foydalanish mumkinligini isbotladik. Uning oilaga xos mikroskopik tuzulishini ko'rib chiqdik.

**Xulosa:** Brokkoli karamini kelib chiqishi, morfologik belgilari va tashqi muhit omillariga bo'lgan munosabati gulkaramga o'xshashligi mamlakatimizda uni yetishtirish istiqbolli ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari brokkolini onkologik kasalliklar uchun foydali ekanligini bilgan holda uni dori tarkibiga kiritib kelgusida dori vositasi qilib ishlab chiqarishdan iborat.

#### **Adabiyotlar:**

1. <https://qalampir.uz/uz/news/salomatligingizga-foydali-brokkoli-4018>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/brokkoli-karamining-oziq-ovqat-havsizligida-tutgan-o-rni>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Brokkoli>
